Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti

# UZLUKSIZ TA'LIM

ILMIY-USLUBIY JURNAL

2024, № 5

*DJURAYEV Risbay*
**Bosh muharrir**

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.
O‘z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po‘yxatdan o‘tgan.

Jurnalda e’lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta’lim» jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi lozim.

**Tahrir hay’ati:**
*Abdug‘appor QIRQIZBOYEV*
*Uzoqboy BEGIMQULOV*
*Xolboy IBRAGIMOV*
*Laylo AXMEDOVA*
*Roxatoy SAFAROVA*
*Leyla DJURAYEVA*
*Dono G‘ANIYEVA*
*Lobar QARAXANOVA*
*Dusmurod DJURAYEV*
*Baxodir AKBAROV*
*Komiljon KARIMOV*
*Komiljon GULYAMOV*
*Zulfizar KARIMOVA*

**Tahririyat manzili:**
100027, Toshkent sh.,
Furqat ko‘chasi,
174-uy.
O‘zPFITI
Tel.: (71)-245-92-34
(93)-503-52-07
e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

3 ***Z.A.Xolmatova***
Ta'limning uzluksizligini ta'minlashda pedagog-tarbiyachilarning o'ziga xos o'rni va ahamiyati
8 ***L.M.Qaraxonova***
Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda maktab-oila-mahala hamkorligi samaradorligi
13 ***D.N.Qayumova***
Uzluksiz inklyuziv ta'limni joriy etishning pedagogik aspektlari
17 ***Sh.O.Aripov***
Uzluksiz ta'lim tizimida madaniy-tarixiy yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda gender modellarga xos rollarni rivojlantirish
22 ***I.R.Karimova***
Uzluksiz ta'lim tizimiga xalqaro baholash dasturlarini tatbiq etishning metodik asoslari
28 ***Р.Х.Джураев***
Внеклассная деятельность направленная на патриотическое воспитание подростков
33 ***Г.Ибрагимова***
Индивидуальная помощь и поддержка развития детей с ограниченными возможностями

## UZLIKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

38 ***R.Madatov, N.Temirov***
Biologiyadan darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda elektron ta'limiy vositalar va ularning ahamiyati
43 ***E.O.Sharipov***
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirishning nazariy bosqichlari
48 ***M.Nurullayeva, A.Xotamov***
Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda multimediya vositalaridan foydalanish imkoniyatlari
53 ***Ф.Гаибназарова***
Особенности использования виртуальных лабораторных работ на уроках биологии

## MA'NAVIY TARBIYA

56 ***F.E.Boqiyev***
Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini modernizatsiyalash
61 ***N.Y.Tadjiyeva***
O'quvchi muomala madaniyatining didaktik xususiyatlari
66 ***G.S.Kaxarova***
Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini milliy folklar qo'shiqlari vositasida rivojlantirishning samarali usullari
71 ***D.A.Bobomurodov***
Yosh avlodda mardlik, jasurlik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish uzviylik tamoyili
76 ***M.X.Djumaniyazova***
Ta'lim jarayonida talabalar o'quv motivatsiyasiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri
88 ***N.T.Jalilova***
Alisher Navoiyning axloqiy-pedagogik qarashlari

## KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

84 ***R.Choriyev***
Mutaxassislarni dual tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari
89 ***A.B.Baxramov***
Zamonaviy dunyoda yoshlar orasida vatanparvarlik rivojiga bo'lgan talab
94 ***N.M.Ruziyev***
Milliy hunarmandchilikda ustoz-shogird an'analari
97 ***J.O.Begijonov***
Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning dadaktik asoslari
100 ***M.Alimov***
Kasbiy mahoratni yuksaltirishda harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strayegiyasi sari
104 ***Б.Ганиева***
Развитие подготовки профессиональных кадров в области библиотечного дела
109 ***И.Г.Галущенко***
Важность изучения наследия мыслителей востока в системе непрерывного музыкального образования Узбекистана

# TA'LIMNING UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASHDA PEDAGOG-TARBIYACHILARNING O'ZIGA XOS O'RNI VA AHAMIYATI

***Z.A.XOLMATOVA,***
*Qo'qon davlat pedagogika instituti*
*instituti, p.f.d (DSc)*

*O'quvchi o'quv faoliyati mohiyatini anglay olmasa, o'quv maqsadini tan olmaydi, o'qituvchi qo'ygan vazifalarni tushunmaydi va qabul qilmaydi, u tomonidan sodir etiladigan barcha xatti-harakatlar majburiyat va ta'ziq ostida sodir bo'ladi, uning bilimlari rasmiy xarakterga, pedagogning faoliyati esa rasmiyatchilik mazmuniga ega bo'ladi. Shunday ekan, birinchi gala o'qituvchi, tarbiyachi pedagog har tomonlama o'quv faoliyati uchun tayyor va mas'ul bo'lishi talab etiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *ta'lim jarayoni, ta'limda uzluksizlik va uzviylik tamoyiyi, o'quvchilarning bilim, ko'nikmasini oshishirish, o'quvchining o'z ustida ishlash, tashabbuskorlik hamda kirishimlilik xususiyatlarini shakllantirish.*

*If the student does not understand the essence of educational activity, he does not recognize the educational goal, does not understand and does not accept the tasks set by the teacher, all his actions take place under obligation and pressure, his knowledge becomes formal, and the activity of the pedagogue becomes formal. Therefore, the first gala teacher, educator and pedagogue must be ready and responsible for all educational activities.*

Key words: *the educational process, the principle of continuity and coherence in education, increasing the knowledge and skills of students, working on the student, forming the characteristics of initiative and initiative.*

Insonning eng ulug' va ezgu orzularidan biri bu farzandi kamolini ko'rishdir. Bola tug'ilmasdanoq biz uning kelajagi xaqidagi rejalarni tuzib olamiz, orzular qilamiz. Farzand esa tug'ilgan kunidanoq oilaning to'laqonli a'zosiga aylanadi va kun sayin oilada o'z o'rnini mustahkamlab boradi. Farzandimizning kelajak xayotida, uning oilada, jamiyatda o'z o'rnini topishida, o'zligini anglashida tarbiya va ta'limning o'rni beqiyosligi bizga yaxshi ayon. Bola tarbiyasi, ta'limi xaqidagi aniq namunaviy usul yoki reja mavjud emas. Vaqtdan, turli vaziyatdan, sharoitdan kelib chiqib tarbiya sohasidagi usul va tajribalar turlicha natija berib kelgan. Tarbiyada ijtimoiy muhitning o'rni beqiyosligini inobatga oladigan bo'lsak, yoshlarning imkoniyatlardan to'g'ri, unumli foydalana olish, o'z ustida ishlash, tashabbuskorlik hamda kirishimlilik xususiyatlarini shakllantirish – bu nafaqat kelajakdagi farovon va go'zal xayotiga zamin yaratish, balki jamiyat uchun yaxshi fuqaroni tarbiyalash ham demakdir.

Shaxs ta’lim-tarbiyasi bola dunyoga kelganidanoq boshlanib, uzluksiz davom etadigan tizimli jarayondir. Jarayonning biror qismida yo‘l qo‘yilgan xatolik yohud e’tiborsizlik butun jarayon faoliyatini yo‘qqa chiqarishi mumkin. Mazkur tizimni zanjirga o‘xshatish mumkin. Zanjirning bir qismida uzilish paydo bo‘lsa u zanjirlik mohiyati(funksiyasi)ni yo‘qotishi muqarrar. Shunday ekan uzluksiz ta’lim tizimining har bir qismini yaxlit jarayon sifatida qabul qilish va yondoshish, sharafli va mas’uliyatli kasb egalari bo‘lish, pedagoglardan fidoiylik, betinim mehnat talab etadi.

Bola xar safar ta’lim tizimining yangi bosqichiga ko‘tarilganida, o‘ziga xos psixologik sinovdan o‘tadi. Bir necha yil mobaynida o‘rgangan ustozi, murabbiyi bilan xayrlashib yangi ustoz va murabbiylar ixtiyoriga topshiriladi. Ushbu jarayonda bolani to‘g‘ri qabul qilib olish va ta’limning davomiyligini to‘g‘ri tashkil etish ta’limning uzluksizligini ta’minlashda o‘qituvchining mahorati muhim ahamiyatga ega. Ta’lim-tarbiyaning insonparvarligi, tarbiyalanuvchilar va ta‘lim oluvchilarni hurmatlash O‘zbekistonda ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. «Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish uchun «tegishli ma’lumot, kasb tayyorgarligi bilan bir qatorda yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish» talab etiladi; bolalarning qadr-qimmatini hurmatlash, yoshlarda mehnatsevarlik, yaxshilik va muruvvat tuyg‘usini, Vatanga, yoshi ulug‘larga, davlat tili va ona tiliga, oilaga, milliy, tarixiy va madaniy qadriyatlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish tuyg‘usini tarbiyalash mas‘uliyati talab etiladi". (M.Ochilov, «Muallim – qalb me’mori», 6chi bet).

Qadimda tashkiliy tarbiya asosan bolalar tarbiyasini qamrab olgan, shu sababli pedagogikani bolalar tarbiyasi xaqidagi fan deb atashgan. Xozirda esa pedagogika insonning umri mobaynida, barcha yosh davrlarida uning ta’lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanadi. Respublikamizda ta’lim tizimining uzluksizligini ta’minlashga katta e’tibor qaratilayotgan bir vaqtda inson hayotidagi butun ta’lim tizimi jarayonini qamrab oladigan pedagogikaning o‘rni beqiyosdir.

Pedagogika fani – ulg‘ayib kelayotgan yosh avlod o‘qishi va tarbiyasida ko‘p asrlar davomida to‘plangan tajribalar yig‘indisidir. Shunday ekan pedagogika fanini bilish o‘qituvchini mas‘uliyatli bo‘lgan ta’lim va tarbiya jarayonida uchraydigan ko‘pgina to‘siq va xatoliklardan holi qiladi, xar vaziyatda eng ma‘qul pedagogik qaror qabul qilishda yordam beradi.

Ko‘p yillar davomida pedagogika bu nima – fanmi yoki san’at degan savol ustida bahs yuritib kelingan. Tajribalar ko‘rsatadiki, tarbiya fanini chuqur bilmasdan tarbiya san’atini rivojlantirib, egallab bo‘lmaydi. Ta’lim va tarbiyaning

qonuniyatlarini bilish, pedagogik jarayonning usullarini egallash – o‘qituvchi mahoratining asosi xisoblanadi.

Pedagog ta’lim-tarbiya berish jarayonida o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlariga alohida e‘tibor bergan holda uning mustaqil ta’lim olishi, o‘z ustida ishlashi, imkoniyatlarini to‘liq namoyon qila olish xususiyatlarini rivojlantirib borishi lozim. Tinglovchining endi kurtak ochayotgan ijobiy xususiyatlari rivojlanishida, ochilmagan ijobiy qirralarining ochilishiga ko‘maklashish pedagog-o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Doimiy tarzda tinglovchilarning dars davomida va darsdan tashqari faoliyatida xar biri bilan alohida (individual) ishlashni tashkil etish maqsadida ta’lim jarayonida ball tizimi bejiz joriy etilgani yo‘q. Ammo mazkur jarayonni belgilangan tartibda, kutilgan natijani tahlil qilgan holda muntazam amalga oshirib borish pedagogik mahoratga ega bo‘lmagan pedagog-o‘qituvchining qo‘lidan kelmasligi mumkin.

Bunga quyidagi omillar ta’sir qiladi: birinchidan, pedagog-o‘qituvchida pedagogik mahoratning, bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligi, ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan, zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalana olmasligi; ikkinchidan, ba‘zi umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonining to‘g‘ri tashkil qilinmaganligi natijasida o‘quv guruxlarida o‘quvchilarning xaddan tashqari ko‘pligidir.

Faraz qiling boshlang‘ich sinfda, bir o‘quv guruxida 40-45 o‘quvchi o‘qiydi. Dars uchun ajratilgan vaqt 45 daqiqadan iborat. Pedagog-o‘qituvchi juda mahoratli bo‘lib, dars uchun ajratilgan vaqtdan maksimal foydalana olgan taqdirda ham, har bir o‘quvchi bilan individual ishlash, uni ball tizimida baholash imkoniyati bo‘lmaydi. Dars davomida o‘qituvchi 10-15 o‘quvchi bilan to‘liq ishlashi mumkin, qolgan 30-35 o‘quvchi jarayondan chetda qoladi. O‘quvchilar o‘quv materialini qisman o‘zlashtiradi. Natijada, o‘quvchining uqish xususiyatlari, motivlari zaiflashib, yo‘qolib boradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish darajasi pasayishi butun uzluksiz ta’lim tizimi davomida tinglovchilar bilim saviyasining pasayishiga olib keladi.

Mustaqil o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik mahoratga ega bo‘lmagan o‘qituvchi dars davomida o‘rtacha 40-70%gacha tinglovchilar bilimini baholaganda, 30-60%gacha o‘quvchi dars jarayonidan chetda qoladi. Uchinchidan, pedagog-o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning tashabbuskorlik, intiluvchanlik, qiziquvchanlik xususiyatlariga e’tiborsiz bo‘lish mazkur xususiyatlarning susayishiga olib keladi. Tadqiqot mobaynida o‘rta

umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim tizimida o'qiyotgan o'quvchi va talabalarning faolligini, tashabbuskorligini o'rganganimizda quyidagi natijalar ko'rindi. Boshlang'ich sinflarda darsda faol ishtirok etadigan, o'z xohishi bilan savollarga javob beradigan, intiluvchan, tashabbuskor tinglovchilar o'rtacha 68-81%ni, yuqori sinflarda 52-64%ni, o'rta-maxsus ta'lim tizimida 50-59%ni, oliy ta'lim tizimida 1-kurslarda 45-52%ni tashkil etsa, 2,3,4-kurslarda 28-37%ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar uzluksiz ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning asl sababi nimada? – degan savol tug'ilishi tabiiy.

Birinchidan, yuqorida aytganimizdek pedagog-o'qituvchining shaxsiy bilim va mahoratining talab darajasida emasligi bo'lsa, ikkinchidan ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining noto'g'ri tashkil etilishi hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasasi talabalari orasida bilim saviyasining tushib ketishi uzluksiz ta'lim tizimida keskin uzilish paydo bo'lishiga olib keladi. Chunki, oliy o'quv yurtini pedagogik yo'nalish bo'yicha tamomlagan talabalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida, umumiy o'rta-maxsus kasb-hunar kollejlarida pedagog-o'qituvchi bo'lib faoliyat yuritadilar. Keragicha bilimli bo'lmagan, pedagog kasbining mohiyatini anglamagan bitiruvchilarning ta'lim sohasida faoliyat yuritishi ta'limda uzluksizlikni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlatimiz tomonidan uzluksiz ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilayotgan va ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi tubdan yangilangan bir vaqtda yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, talaba va o'quvchilarga maksimal bilim berish, fidoiy bo'lish, yoshlarni bilimli, tashabbuskor va talabchan qilib tarbiyalash biz pedagoglarning burchimizdir.

Yoshlar tarbiyasida nima uchun ularning tashabbuskorligi, faolligiga alohida to'xtaldik? Chunki, o'quvchining talabchanlik, tashabbuskorlik ruhida tarbiya olishi o'ta muhimdir. Unga nisbatan hurmat, e'tibor qancha baland bo'lsa, talabchanlik shuncha yuqori bo'lishi kerak. Doimiy band bo'lishini ta'minlash, mehnat qilishga o'rgatish, mehnati xosilini ko'ra bilishga, quvonishga, xar bir vazifaga tashabbuskorlik bilan yondoshishga o'rgatish o'rinlidir. Tashabbuskor, atrofidagilarga e'tiborli, talabchan, bilimli yoshlarni tarbiya qilish nafaqat bugungi zamon, balki butun insoniyat orzusidir.

Hayotda ko'pincha yoshlar nima qilishi kerakligi, oilasi uchun, jamiyat uchun qanaqa yordami tegishi mumkinligini aniqlay, anglay olmasligi mumkin. Bunday vaqtlarda ota-onalar farzandiga, ustozlar shogirdiga uning vazifasini aniqlashida ehtiyotkorlik bilan yordam berishlari, yo'l ko'rsatishlari lozim. Yoshlar ta'limi

davomida vaqtdan unumli foydalanishi bilan birga tarbiyali bo‘lishi, atrofidagilarga yordami tegayotganligini, o‘zining kerak ekanligini anglashi muhim. Yoshlik chog‘idanoq bolani harakatchan bo‘lishga, qiyinchiliklarni yengishga, mehnat qilishga va mehnati natijasi bilan zavqlanishga, atrofidagilari, ota-onasi xursandchiligiga sabab bo‘lishga tarbiyalab borish lozim.

Yoshlarda erinchoqlik, ishyoqmaslik, ishtiyoqsizlik va mas’uliyatsizlik kabi xislatlari bilan kurashish lozim. Erinchoqlik, ishyoqmaslik bilan kurashish yo‘li bitta – sekinlik va chidamlilik bilan muntazam ravishda bolani mehnatga, atrofidagilar mehnatini qadrlashga, ularga nisbatan befarq bo‘lmaslikga o‘rgatib borishdir. Jamiyatimizda faqat mehnat qiladigan emas, balki nima uchun, kim uchun mehnat qilayotganligini anglay oladigan, o‘z mehnati bilan ota-onasiga, atrofidagilarga, jamiyatga yordami tegayotganligini tushunadigan, burchi va huquqlarini biladigan, erkin fikrlaydigan, tashabbuskor va bilimli yoshlar kerakligini unutmaslik va bu borada xar qanaqa mexnatdan qochmaslik zarur. Yoshlarni mehnatni sevishga, mexnatga mehr bilan yondoshishga, mehnati natijasidan quvonishga, mehnati orqali hurmat qozonishi, yuqori natijalarga erishishi, farovon va go‘zal hayot qurishi mumkinligini anglashga o‘rgatsak jamiyat uchun bugungi kun talabi darajasidagi barkamol yoshlarni tarbiyalashga o‘z xissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘risida»gi Qonuni.Toshkent 2019yil 26 -dekabr.

2. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2018.

3. Fayzullayev Sh. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi (maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun) Uquv qo‘llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2020.

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHI-YOSHLARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA MAKTAB-OILA-MAHALLA HAMKORLIGI SAMARADORLIGИ

***L.M.QARAXONOVA,***
*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo'lim mudiri, (PhD) katta ilmiy xodim*

*Pedagogikaning qaysi sohasi bo'lishidan qat'i nazar, ularning qanday samara berayotganligi, natijadorligi doimiy tarzda oqilona baholab borilmasa, ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirib bo'lmaydi. Chunki oila, maktab va mahalla, jamoatchilik tashkilotlari hamkorligi asosida ma'naviy-axloqiy sohada amalga oshirilgan ishlarning sifat darajasi o'quvchi-yoshlarning tarbiyalanganlik darajalari qay darajada yuqori ekanligi bilan qiymatlidir.*

***Kalit so'zlar:*** *pedagogik hamkorlik, mahalla va oila hamkorligi masalalari, o'quvchilarning ahloqiy tarbiyasi, mas'uliyat, ota-onalar mas'uliyati, mahalla faoliyati, o'qituvchilar munosabati, maktab jamoasi va o'qituvchilar hamkorligi.*

*Regardless of the field of pedagogy, it is impossible to develop educational practice if their effectiveness and efficiency are not constantly and rationally assessed. Because the quality of work carried out in the spiritual and moral sphere based on the cooperation of the family, school, neighborhood, and public organizations is as valuable as the level of education of students and young people.*

***Key words:*** *pedagogical cooperation, issues of neighborhood and family cooperation, moral education of students, responsibility, parental responsibility, neighborhood activities, teachers' attitude, school team and teacher cooperation.*

Pedagogik hamkorlik asosida tarbiyalashning mexanizmlarini takomillashtirish hamda ma'naviy tarbiya ishining samaradorligini baholash – umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiya muammolarini samarali hal etishning muhim sharti hisoblanadi. Jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitini takomillashtirishda asosiy tayanch omillar sifatida pedagogik hamkorlik munosabatlarining muhim shakllari: o'qituvchi – o'quvchi – ota-ona, jamoatchilik tashkilotlari – o'quvchi – o'qituvchi, ta'lim muassasalari – o'quvchi – mahalla organlari, mahalla organlari – o'quvchi – ota-onalar kabi faoliyatning mushtarakligini baholash orqali o'quvchilar tarbiyasini ta'minlashda mazkur paradigmalarning ma'naviy hamkorligini ta'minlashni tashkil qilish muhim amaliyot sanaladi.

«Axloq» (lotincha – xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiymunosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonunqoidalar majmuidir. Axloq – ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs

kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Yosh avlodni axloqiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash ishi birinchi navbatda oiladan boshlanadi. Bu borada barkamol avlodni tarbiyalashda ota-ona, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi xislatlar bilan birga diniy va milliy bag'rikenglik, yuksak ma'naviyat egasi hamda boshqa millatlarga nisbatan hurmat bilan qaraydigan, insoniy qadr-qimmatni e'zozlaydigan qilib tarbiyalashda uch asosiy omil – oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga egadir.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, o'z Vatani va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish bo'yicha maktablarning ota-onalar, oilalar, mahalla qo'mitalari, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi bo'linmalari, jamoat tashkilotlari va jamg'armalar bilan mustahkam o'zaro hamkorligi amalga oshiriladi. Bolalarning ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom bo'lishlarida oilaning vazifalari:

– oilada sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olgan holda farzandlarda ota-ona, Vatanga muhabbat g'usini shakllantirish;

– bolalarning qiziqishi, iqtidori va ehtiyojlarini hisobga olgan asbga yo'naltirish;

– ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqlol g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

– bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish va ularning qo'shimcha ta'lim olishlariga shart-sharoit yaratish;

– bolalar ongiga sanitariya-gigienik, ekologik bilim va ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish.

Davlatimiz oilalarni o'zining olib boradigan siyosati markazida olib qaraydi. Shu sababli imkoniyat doirasida moddiy va ma'naviy yordam berib, oilaviy tarbiyani maktab, jamoatchilik bilan uyg'unligini ta'minlashdan manfaatdordir.

Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Oilalarni pedagogika yutuqlari bilan tanishtirish ularning mustahkamligini ta'minlash vositalaridan biridir.

Ikkinchi tomondan esa bu, o‘z navbatida, bolalar tarbiyasida tegishli shakl va uslublarni takomillashtirish yo‘llaridan biridir. Shuning uchun ham ota-onalarni, oilalarni tarbiyaga oid bilimlar bilan, tarbiya uslublari bilan qurollantirish nihoyatda zarur.

Tarbiya jarayonida ota-onalar va o‘qituvchilarning bolalarni ijtimoiy foydali ishlarga tortish borasidagi mas’uliyati nihoyatda muhimdir. Tarbiyaga oid bilim berish muammosi faqat ota-onalarning ishi bo‘lib qolmasdan, balki barchaning ishi, keng ma‘noda davlat ahamiyatiga molik ishdir.

Oilaning eng muhim xususiyatlaridan biri insonlar avlodini ko‘paytirishdir. Bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasida oila ma‘lum darajada ijtimoiy tashkilotlar bilan jamiyat taraqqiyotiga hamohang holda faoliyat yuritmoqda.

Oilaviy tarbiya muammolarini tadqiq etish, asosan, ikki yo‘nalishda olib borilmoqda. Bir tomonda oilaviy tarbiya pedagogikaning an’anaviy qismi sifatida o‘rganilmoqda. Ikkinchi tomondan esa oila sotsiologiya va filologiya yo‘nalishida ham tadqiq etilmoqda.

Respublikamizda ayni hozirgi kunda oilalarning ijtimoiy ahamiyati ortib bormoqda. Oilalarning moddiy ehtiyojlarini to‘laroq qondirish asosida bolalar tarbiyasi uchun javobgarlikni kuchaytirish jarayoni tezlashmoqda. Biz uchun oila mustahkamligini ta’minlovchi axloqiy ruhiy aloqalar juda muhimdir. Xuddi ana shu aloqadorlik oilaviy munosabatlar, to‘laqonli hissiy-emotsional, otalik yoki onalik, oilaviy baxtni ta’minlash ehtiyojlarini qondiradi.

Mahallaning vazifalari:

– ta’lim muassasalari bilan birgalikda ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashib, oqilona yechimlar topishda faollik ko‘rsatish;

– farzandlari tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmaydigan ota-onalarni mahalla yig‘inlarida muhokama qilish, ularga jamoatchilik ta‘sirini o‘tkazish, lozim hollarda bunday ota-onalar bilan tegishli profilaktik tadbirlarni belgilash maqsadida mahalla faollarini biriktirish yoki qonun doirasida boshqa choralar ko‘rish;

– yoshlar diniy mazhablar va sektalar, aqidaparastlikning salbiy ta‘sirini to‘g‘ri anglab yetishida ularga ota-onalar orqali ta’sir ko‘rsatish, ulug‘ ajdodlarimizning tarbiyaviy o‘gitlarini singdirib borishga keng jamoatchilikni safarbar qilish;

– mahalla hududidagi notinch oilalarni aniqlash va ularda sodir etilishi mumkin bo‘lgan kelishmovchilik va nizolarning oldini olish.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish instituti – mahallalarning mavqeini yuksaltirish, davlat va jamiyat qurilishi tizimidagi huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ushbu sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan keng

qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugunda mahalla hayoti bilan bog‘liq ko‘plab qadriyat va an’analarimiz tiklanib, zamon talablari asosida boyitilmoqda. Mahallalar imkoniyati va vakolatlarining tobora kengayib borayotgani fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ahillik, hamjihatlik, osoyishtalik muhitini asrab-avaylash, oilalarnimustahkamlash, yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati ortayotganida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mahalla tarbiya o‘chog‘idir. Farzand oilada dunyoga kelib birinchi bor ota-onasini tanisa, ulg‘aygan sayin mahalladagi odamlarni taniy boshlaydi va yurish-turish, odob-axloq, jamiki ijobiy fazilatlarni, avvalo, mahalladan, aniqrog‘i, ota-onalari, qo‘ni-qo‘shnilari, tabarruk otaxonlari, duogo‘y onaxonlaridan o‘rganadi. Shu nuqtai nazardan tahlil etilganda, «Oila – mahalla» tizimidagi ishlarni takomillashtirish, oila va mahallaga taalluqli boy va sermazmun milliy an’analarni avaylab-asrash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo‘li bilan oilaning mustahkamligi, barqarorligini ta’minlash, oila a’zolarining huquqiy savodxonligiga erishish yaxlit jamiyat barqarorligi va tinchligining muhim omillaridandir.

Mahallada kishilarni odob-axloqqa o‘rgatish, ularga urf-odatlar, turli qadriyatlarni singdirish, ilg‘or udumlarni keng yoyish borasida ajoyib an’analar qaror topgan. Oila kichik vatan bo‘lsa, mahalla uning mustahkam tayanchi hisoblanadi. Oilalar farovon, obod bo‘lsa, mahalla ko‘rkiga ko‘rk qo‘shadi.

Ta’lim muassasalarining vazifalari:

– bolalarga ta’lim berishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalaridan o‘rinli foydalanishga shartsharoit yaratish;

– o‘quvchi-yoshlarning ta’lim-tarbiya olish jarayonida turli xil chalg‘ituvchi vositalarning zarari va ular oqibatlarining oldini olish bo‘yicha keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

– hozirgi murakkab sharoitda yosh avlod ongi va shuuriga ta’sir etishga qaratilgan ma’naviy tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilish;

– ta’lim muassasalarida yoshlarning birorta kasb-hunarni egallashi uchun poydevor yaratish;

– yoshlarni mustakil fikrlashga o‘rgatish, ularni istiqlol g‘oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

– o‘quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish, ularning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish. Oila, mahalla, ta’lim muassasalari hamkor ligida quyidagi tamoyillar va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo‘ladi:

– ta’lim va tarbiya jarayonida hamkorlik harakatlarining ish birligi;

– tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg‘unligi;

– hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqligi va yuksak
– faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;
– hamkorlik ishlarining ilmiyligi.

Maktabning tom ma‘noda tarbiya markaz rolini o‘ynashi uchun o‘qituvchi va ota-onalarning maqsad va vazifalari, ularning amaliy faoliyatlari bir-birlari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi shart. Bu borada maktabning eng muhim vazifasi ota-onalar o‘rtasida ijtimoiy tarbiyaviy muhitni sog‘lomlashtirish borasidagi ishlarni jonlantirish, takomillashtirish oila va maktab aloqasini mustahkamlovchi omildir. Maktabning ota-onalar jamoatchiligi bilan aloqa qilishida o‘qituvchi va tarbiyachilarga yaqindan yordam beruvchi bo‘g‘in maktab ota-onalar qo‘mitasidir. Mazkur qo‘mita qabul qilingan umumiy qoidalar asosida ota-onalar jamoatchiligini maktab hayotiga, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarga jalb qilishi lozim.

Ta’lim-tarbiyaning mana shunday tashkiliy-metodik tamoyillaridan biri bu - pedagogik hamkorlikdir. Ya’ni oila, maktab va mahalla, jamoatchilik tashkilotlari hamkorligida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning dolzarb milliy parametrlari o‘z ichiga halqimizning uzoq asrlar davomida shakllanib kelayotgan qadriyatlarini chuqur singdirish, vatanning sha’ni va obro‘sini ko‘zlab, yuksak marralar sari intiluvchi munosib farzand bo‘lishi uchun hamkorlik dasturlari asosida ish olib borish muhim.

Yuqoridagi usullarning faol qo‘llanishi, ota-onalar bilan o‘tkazilgan tarbiyaviy suhbat lar huquq va majburiyatlar haqidagi bilimlar, ularni zamonaviy yoshlar tarbiyasi muammolariga jalb etish, milliy tarbiyani mahalla, mahalla oqsoqollari kengashlari faoliyati yo‘nalishiga aylantirish va ota-onalarning tarbiyachilar sifatidagi faolliklarining oshishiga olib keldi. Buning natijasida o‘quvchilarimizning axloqiy tarbiyasida hech qanday yot g‘oyalarga o‘rin qolmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришнинг янги босқичга кўтариш тўғрисида»ги 2017 йил 28 июль ПҚ-3160 сонли Қарори.

2. Ш.Мирзиёев Тартиб-интизом ва маъсулятни кучайтириш, жиноятчиликнинг олдини олиш муҳитини мустаҳкамлаш – ҳуқуқбузарлик пофилактикаси самарадорлигининг асосий омилидир. Халқ сўзи. 2017 йил 16 ноябрь, № 231 (6925). 1- бет.

3. Аҳмедов Ҳ. Маҳаллаларда маънавий-маърифий ишларни ошириш йўлида. Халқ сўзи. 2017 йил 8 ноябрь, № 225 (6919) 3-бет.

# UZLUKSIZ INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY ETISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

**D.N.QAYUMOVA,**
*Nizomiy nimidagi TDPU,*
*Maktabgacha ta'lim metodikasi*
*kafedrasi dotsent v.b., p.f.f.d. (PhD)*

*Maqolada respublikamizda inklyuziv ta'limni uzluksiz rivojlantirish sohasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar tafsiloti, mazkur soha olimlarining ilmiy yondashuvlari, amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni uzluksia rivojlantirish tendensiyalari bayon etilgan.*

*В статье подробно описаны нормативные документы, принятые в сфере непрерывного развития инклюзивного образования в нашей республике, научные подходы ученых в этой области, проводимые реформы. Описаны тенденции комплексного развития инклюзивного образования в системе дошкольного образования, школьного и высшего образования.*

*The article describes in detail the regulatory documents adopted in the field of continuous development of inclusive education in our republic, scientific approaches of scientists in this field, and the reforms carried out. The trends of the comprehensive development of inclusive education in the system of preschool education, school and higher education are described.*

Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlash, imkoniyatlarini kengaytirish, ularni ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratish, maqsadida inklyuziv ta'lim joriy etildi. Ma'lumki, inklyuziv ta'limning paydo bo'lish zamirida qadriyatli, ijtimoiy va me'yoriy shart-sharoitlar majmuasi tashkil qilib, uning tizim sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda respublikamiz ta'lim tizimida asosiy qonun ustivorligi belgilangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «…inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish»[1] ga qaratilganligi; inklyuziv jamiyat qurish maqsadida ta'limni insonparvarlshtirish, inson qadr-qimmatini yuksaltirish, insoniylik tamoyillarga amal qilgan holda har bir fuqaroning teng huquqli bilim olishiga, a'zosiga aylantirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, sha'ni va

qadr-qimmatini himoya qilish va boshqa qator ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega vazifalarni amalga oshirish kafolatlab qo'yilgan. Bundan tashqari oxirgi 5 yil mobaynida ta'limni isloh qilish, fuqarolarning bandligini ta'minlash orqali farovon hayot kechirish sharoitini ta'minlash masalasi davlat siyosatidarajasiga ko'tarildi [2]. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 20-moddasida: «Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyat-larning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi» [3]; O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonunida «inklyuziv ta'lim va tarbiya – bolalarning alohida ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan jarayon»[4] ekanligi ta'kidlanadi. Biroq, maktabgacha ta'lim tizimida bo'lajak tarbiyachilarni inklyuziya muhitlarda faoliyat olib borishlari uchun tizimli tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj mazkur qonun kuchga kirishidan ancha oldin shakllanishni boshlagan edi.

Hozirgi vaqtda respublikamizda inklyuziv ta'lim har bir ta'lim tashkilotining diqqat markazida. Respublikamizda qonunchilik darajasida inklyuziv ta'lim g'oyalariga e'tibor qaratish inklyuziv jamiyat qurish uchun ta'limni insonpar-varlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Inklyuziv ta'lim g'oyalari insonparvarlik pedagogikasining asosiga qurilgan bo'lib, mazkur sohada uning asoschilari buyuk faylasuflar va o'qituvchilar - Jan-Jak Russo [5], D.Dyui [6] va boshqalarning g'oyalarini tatbiq etadi.

Shubhasiz, inklyuziv ta'lim olishda shaxslarning teng huquqliligini ta'minlash va amalga oshirishda asosiy g'oya ekanligi olimlarimaiz tomonidan keng tadqiq va targ'ib etilgan.

Insonparvarlik va bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat V.P. Kashchenko asarlarida intellektual rivojlanish muammolari bilan singdirilgan. U birinchi bo'lib alohida ehtiyojli bolalarni alohida «o'ziga xos» boshqalarga o'xshamagan deya e'tirof etgan. U har bir bola noyob qobiliyat egasi ekanligini ta'kidlaydi va har bir bolani ta'lim-tarbiya tizimga moslashishni talab qiladi, o'qituvchilar esa mavjud dasturlarni va ta'lim jarayonini bolaga moslashtirish metodikasini ishalb chiqishi lozim. Ayniqsa uning quyidagi fikri insonni hayratga soladi «patologik xususiyatga ega bo'lgan har qanday bolani jamiyatga munosib a'zo bo'lishi uchun uning ongini atrofdagi odamlarning soxta xurofotidan himoya qilish, tamg'alab ataylab shikastlamaslik zarur».

Zamonaviy sharoitda inklyuziv ta'limni rivojlantirar ekanmiz, biz ulug' allomalar tomonidan kelajak avlod o'qituvchilari, ota-onalari, pedagoglar uchun

nazariy jihatdan qanchalik boy meros qolganligini anglaymiz. Inklyuziv ta‘limni joriy etish sohasida ayni vaqtda mamlakatimizda keng tarqalgan ommaviy amaliyot boshlanadi. Bu sohada turli qarashlar mavjud: kimlardir inklyuziv ta’limni joriy etilishida faqat nogiron bolalar inklyuziv maktabga borishlari kerak degan fikrni qo‘llab quvvatlaydidilar. Bu fikr negizida allaqachon «nogiron» ta’rifida inson qadr-qimmatini kamsituvchi fikr yashiringan. Ko‘pgina nogiron talabalar ularning hayot istiqbollari haqida suhbat chog‘ida salomatlik imkoniyatlari, ularni «nogiron» deb nomlashning hojati yo‘qligini bildiradi, bu so‘z ularning qalbiga og‘ir botadi. Shahardagi axloq tuzatish maktablaridan biridagi hamkasbning gapi esimda. Imkoniyati cheklangan bolalar maktabida ishlaydigan Dyusseldorf (Germaniya)ning nogiron bolalar haqida aytgan bu fikrini qo‘llab quvvatlash mumkin «bu bolalarga achinish mumkin emas! Ular hurmat va tahsinga loyiq, chunki ular hayotining har bir daqiqasi uchun kurashadi!»

Pedagogika fanlari doktori, professor Z.G.Nigmatovning ta’kidlashicha, uzluksiz inklyuziv ta’lim, «me’yoriy» ta’lim kontseptsiyasining ba’zi g‘oyalarini faqat umumiy ma’noda bayon etadi.

Uzluksiz inklyuziv ta’lim tizimini biz butun jamiyat ishtirok etadigan yaxlit doimiy jarayon sifatida taqdim etamiz.

Hozirgi vaqtda ko‘plab ta’lim tashkilotlari inklyuziv ta’limni joriy etish muammolariga jiddiy qiziqish bildirmoqda va shu bilan birga inklyuziv ta’limni tadbiq etish muammolarini ijobiy hal etish bilan qiziqmoqda.

Ushbu murakkab yo‘lga qadam qo‘ygan ta’lim tashkiloti qator muammolarni izchil va har tomonlama hal etishi zarur:

– qulay, to‘siqlarsiz muhit yaratish;

– talabalarning sog‘lig‘idagi og‘ishlarni yoki o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda talabalar uchun ish joylarini tayyorlash (bular lingvistik, etnik, yosh, intellektual, ijtimoiy, gigiyenik va boshqa o‘ziga xos xususiyatlar bo‘lishi mumkin); ta’lim tashkilotining barcha xodimlarini, shu jumladan, kadrlar, xizmatchilarni tolerantlik madaniyati va aniq fasilitatsiya ro‘nikmalarini shakllantirish, shu asosda qayta tayyorlashni amalga oshirish zarur;

– tahsil oluvchilarning ota-onalar bilan dastlabki ishlarni olib borish (inklyuziv ta’limning asosiy g‘oyalari, insoniylik haqida bir qator suhbatlar olib borish);

– iloji bo‘lsa, ta’lim tashkilotini malakali qo‘shimcha kadrlar bilan ta’minlash, masalan: shifokor, ijtimoiy pedagog, ta’lim psixologi, pedagogik tmyutorlar (qo‘shimcha mutaxassislarning soni va tarkibi ushbu jarayonda tibbiy-psixologik komissiya ishtirokida ta’lim tashkiloti tomonidan belgilanadi).

Shuni ta’kidlash joizki, ko‘pgina inklyuziv universitetlar va maktablar o‘qituvchilari bu haqda o‘ylamaydi. Vaholanki, inklyuziv bolalarga xizmat ko‘r-

satish uchun qo‘shimcha xodimlarni ishga olish zarur, chunki ular hamma narsani biladi.

Har qanday bolani o‘z vaqtida qo‘llab quvvatlash, zarur bilim va ko‘nikmalarni egallashi uchun yordam berish ko‘nikmasi (fasilitatsiya) lozim.

Avvalgi tadqiqotlarimizda ta’kidlanganidek [18; 19], inklyuziv yondashuv, bizning fikrimizcha, shaxsiy rivojlanishning barcha bosqichlarida, shu jumladan prenatal davrda ham amalga oshirilishi kerak, shunga ko‘ra, ta’limning barcha darajalariga inklyuziv yondashuv g‘oyalari va texnologiyalari singdirilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/-644-5145?otherlang=1.

2. O‘zbekiston Respublikasi «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida» gi Qonuni. 2008 yil 8 yanvardagi // https://lex.uz/acts/1297315.

3. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonuni. 2020 yil 24 avgustdagi O‘RQ 637 -sonli. - Toshkent. https://lex.uz/uz/docs/-5013007

4. O‘zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi qonuni. 16-dekabr 2019-yil, O‘RQ-595-son. https://lex.uz/uz/docs/-4646908

5. Руссо, Ж.-Ж. Эмиль, или О воспитании. [Текст]/ Ж.-Ж. Руссо// Руссо, Ж.-Ж. Пед. соч: в 2-х т./Ж.-Ж. Руссо/под ред. Г. Н. Джибладзе. М.: Педагогика, 1981. - Т. 1. - 815 с.

6. Дьюи, Дж. Введение в философию воспитания / Дж. Дьюи. - М. : Работник просвещения, 1921. - 63 с.

7. Abidov B.K. Maktabgacha ta’lim (xorijiy mamlakatlar tajribasi) // Zamonaviy ta‘lim 2017 y. 11-son. – B. 34-46.

8. Berdiyeva M.M. Zamonaviy maktabgacha ta’limda bola shaxsini qo‘llab quvvatlash masalalari // Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovasiyalar va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferensiya. -T., 2018.

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MADANIY-TARIXIY YONDASHUV ASOSIDA O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARDA GENDER MODELLARGA XOS ROLLARNI RIVOJLANTIRISH

**SH.O.ARIPOV,**
*Farg'ona davlat universiteti*
*p.f.b.f.d (PhD) Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi*

*Ushbu maqolada jahon tajribalari asosida shaxsda gender madaniyatni rivojlantirishning qiyosiy tahlili, gender stereotip va rollar o'zgaruvchan xarakterga egaligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Tayanch so'zlar:*** *gender madaniyat, gender stereotiplar, gender rollar, madaniy immunitet, differensial yondashuv, jinsga xos nomutanosiblik, genderni ijtimoiy konstruksiyalash.*

*В данной статье представлен сравнительный анализ развития гендерной культуры у человека на основе мирового опыта, сведений об изменении характера гендерных стереотипов и ролей.*

***Ключевые слова:*** *гендерная культура, гендерные стереотипы, гендерные роли, культурный иммунитет, дифференцированный подход, гендерное неравенство, социальная конструкция гендера.*

*This article presents a comparative analysis of the development of gender culture in a person based on world experiences, information about the changing nature of gender stereotypes and roles.*

***Key words:*** *gender culture, gender stereotypes, gender roles, cultural immunity, differential approach, gender inequality, social construction of gender.*

O'zbekiston jamiyatida milliy mentalitetni saqlab qolgan, milliy madaniy dunyoqarashga ega bo'lgan o'g'il va qiz bolalarning shakllanishi ularni jasorat, safarbarlik ko'rsatishga undaydi. Bu, o'z navbatida, tarixiy-madaniy tajribani samarali o'zlashtirish natijasida vujudga keladi.

O'z mavqeini aniqlash muammosi o'g'il va qiz bolalar uchun tobora o'tkirlashib, tolerantlik sifatlari namoyon bo'lmaydi. Bugungi kunda bachabozlik «ommaviy madaniyat» ta'sirida keng tarqalayotgan havfli hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Bachabozlar aksariyat hollarda estrada xonandalari yoki taniqli shaxslar orasidan chiqib, ko'plab o'smir yoshdagi o'g'il bolalar e'tiborini jalb qilmoqda. Bachabozlik ruhiy hayotning eng murakkab ko'rinishi bo'lib, o'zbek xalqi mentaliteti uchun yot hodisa hisoblanadi. U o'zbek xalqining barcha vakillarida o'ziga nisbatan nafrat hissini uyg'otadi. Biroq o'smirlar ruhiyatiga turli vositalar: kinofilmlar, romanlar, reklamalar,

multfilmlar, kliplar orqali salbiy ta’sir ko‘rsatish asosida mazkur hodisani targ‘ib qilmoqdalar.

O‘rta asrlar Islom madaniyatida o‘g‘il bolalarga kuch-qudrat egasi, mardlik, jasorat timsoli, Vatanni mudofaa qiluvchi shaxs sifatida qaralgan.

Gender rollar xotin-qizlar va erkaklarning o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Turli davrlarda hamda turli madaniyatlarda gender rollarning namoyon bo‘lishi uning madaniyat mahsuli ekanligini ko‘rsatadi.

Xovstedning ta’kidlashicha, gender rollardagi farqlar turli madaniyatlarda gender rollarning farqlanishi orqali namoyon bo‘lib, ular muayyan madaniyatdagi maskulistik va feministik darajalar orqali ifodalanadi. Maskulistik madaniyatdagi shaxslar yutuqlarga erishishning yuqori motivasiyasiga ega bo‘ladilar. Ular hayot mazmunini ko‘plab ishlarni bajarish, doim band bo‘lishda ko‘radilar. Feministik madaniyatga mansub shaxslar esa, oilaviy hayot bilan ko‘proq band bo‘lib, o‘zlari bajaradigan rollarda tenglikka erishishni istaydilar. Buni Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvesiya kabi davlatlarning fuqarolari misolida ko‘rish mumkin.

Xovstedning fikriga ko‘ra, erkaklik – bu milliy madaniyatning atributi bo‘lib, u ijtimoiy qadriyatlarning qat‘iyatlilik (ishonch) va materializm bilan tavsiflanadigan darajasini ifodalaydi. Ayollik esa, milliy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib, boshqalarga nisbatan munosabat va e’tibor darajasini namoyon qiladi. Erkaklar xotin-qizlar va erkaklarning ijtimoiy rollari sezilarli darajada farqlanadigan jamiyatlarda etakchi kuch hisoblanadi. Aksincha, xotin-qizlar bilan erkaklarning ijtimoiy rollari teng bo‘lgan jamiyatlarda ayollikka ustuvor o‘rin ajratilib, ular qadriyatlar tizimida hayot sifati etakchi o‘rin egallab, atrofdagilar bilan ijobiy munosabat tajribasi hosil bo‘ladi, ma’naviy-axloqiy yo‘nalishlar ustivorlik qiladi.

Aql-idrok va xayrixohlik qadrlanadi, intellektual rivojlanish jadallashadi. Qulaylikka ustivor o‘rin ajratiladi. Uydagi va oiladagi qadriyatlar ishdagi muvaffaqiyatni ta‘minlaydi.

Shaxsni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda maskulinlik va feministlik asosiy faoliyat uslubi sifatida gender olamning manzarasini ifodalaydi. Maskulinlik va feministlik omillarining ajratilishida biologik va ijtimoiy jinsdagi farqlar etakchi o‘rin egallaydi. Oilaviy munosabatlarda jinslarning farqlanishi tabiiy hamda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy rivojlanish ko‘rsatkichidir. U o‘zining maqsadga yo‘naltirilgan funksiyalariga ega.

Oilaviy munosabatlarda erkaklar va ayollar rollarining tarixiy jihatdan farqlanishi o‘ta chuqur omil hisoblanib, har ikkala jinsning muhim jihatlari va obrazini ommalashtirishga xizmat qiladi.

O‘g‘il va qiz bolalarga madaniyatning ta’siri umumiy madaniyatning tarkibiy qismini tashkil etadi. Bu gender madaniyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tushuncha murakkab xarakterga ega bo‘lib, o‘z tarkibiga iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ta’limiy,

maishiy, tarixiy va ko‘plab yo‘nalishlarni mujassamlashtiradi.

Oilaviy munosabatlarga oid tasavvurlar, o‘g‘il va qiz bolalarga xos madaniyat, asosan, ta‘lim jarayonida shakllanadi. U o‘g‘il va qiz bolalarning o‘ziga xos ijtimoiylashishiga zamin yaratadi. Ta’lim jarayonida o‘g‘il va qiz bolalarga xos bo‘lgan ijtimoiylashish jarayoni tizimli tarzda amalga oshadi.

X.M.Tojiboyevaning fikricha, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarda o‘g‘il va qiz bolalarga xos bo‘lgan gender stereotiplar turli o‘quv materiallari yordamida mustahkamlangan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘g‘il va qiz bolalarning har birida o‘ziga xos xulq-atvor ko‘rinishlarini shakllantirishdan iborat.

Madaniy boyliklarni egallashda o‘g‘il va qiz bolalar orasidagi o‘zaro munosabatlarni tizimlashtirish alohida ahamiyatga ega. O‘g‘il va qiz bolalarning har birida gender madaniyatni shakllantirish ularni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish va jamiyat madaniy hayotini barqarorlashtirish uchun alohida ahamiyatga ega.

G‘arbda ham XVIII-XIX asrlarda o‘g‘il bolalarga ta’lim berish borasidagi fikrlar o‘zgarib, yangicha munosabat vujudga kelgan. Jumladan, Jan Jak Russo o‘g‘il va qiz bolalarga bir xil sharoitlarda ta’lim berish g‘oyasini yoqlab, o‘g‘il bolalarda mardlik, to‘g‘riso‘zlik, qat’iyatlilik, vijdonlilik sifatlari, qizlarda esa uyatchanlik, nazokatlilik, ziyraklilik sifatlari tarkib toptirilishi lozim, – deb hisoblaydi. Djon Lokk esa o‘quvchilarni uy sharoitida maxsus tayyorlangan tarbiyachi nazorati ostida o‘qitish lozimligini ta‘kidlaydi. U o‘g‘il bolalarda xaqiqiy djentelmenlik sifatlarini shakllantirish uchun xorijiy tillar, geografiya, matematika, falsafa kabi o‘quv fanlarini o‘qitish, qizlarga esa raqs, musiqa, san’atdan saboq berish zarurligini uqtiradi.

K.Gelvesiy esa ta’lim olishda o‘g‘il va qiz bolalarning teng huquqli ekanliklarini e’tirof etadi. Yan Amos Komenskiy o‘g‘il va qiz bolalarni birga o‘qitish tarafdori bo‘lib, ularga alohida-alohida ta’lim berish uchun xech qanday asos mavjud emasligini ta‘kidlagan. I.G.Pestalossi ham turli jinsga mansub o‘quvchilarni alohida-alohida o‘qitish g‘oyasini tanqid qilib, ularga birgalikda ta’lim berishni yoqlagan.

Ko‘plab pedagoglar, psixologlar, sosiologlarning ta’kidlashlaricha, o‘g‘il va qiz bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda jinsga xos muayyan xatti-harakatlar bilan bog‘liq. Jumladan, globallashuv, jamiyatda gibrid madaniyatning tobora keng ko‘lam kasb etayotganligi o‘g‘il va qiz bolalarning xatti-harakatlaridagi jinsga xos nomutanosiblikning vujudga kelishiga asos bo‘lmoqda. Natijada genderni ijtimoiy konstruksiyalash tushunchasi vujudga keldi.

Genderning ijtimoiy konstruksiyasi shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida vujudga keladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, gender stereotip va rollar o‘zgaruvchan xarakterga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gender rollar turli tarixiy sharoitlarda turli madaniyatlar ta’siri ostida o‘zgaradi. Chunonchi, M.Mid xam o‘g‘il va qiz bolalarning rollari muayyan jamiyatdagi ijtimoiy voqelik bilan

bog‘liq holda o‘zgarishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning ta’biricha, har bir jinsga xos bo‘lgan rollar tabiiy tarzda shakllanadi. Ushbu shakllanish ijtimoiy madaniy omillar yordamida jadallashadi.

Har bir jamiyatda mavjud bo‘lgan oilaviy munosabatlar tajribasi shaxsning gender rollarini belgilashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan. Smelzerning ta’kidlashicha, ayollar va erkaklarning jamiyatdagi rollari muntazam o‘zgarib turadi va ushbu tendensiya saqlanib turadi. Shu bilan bir qatorda mutaxassis gender rollarni faollashtirish usullari va yo‘llarini ham ko‘rsatib o‘tadi.

Shuning uchun ham umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash maqsadida genderga xos madaniy dunyoqarash, ijtimoiy voqelik haqida aniq tasavvur hosil qilish talab qilinadi. Oilaviy munosabatlardagi gender rollar jamiyatdagi muammolar bilan bog‘liq holda shakllanadi va o‘zaro muvofiqlashadi. Agar jamiyatdagi tizim o‘zgarsa, gender bajaradigan rollarda ham o‘zgarishlar vujudga keladi. Rollardagi nomutanosibliklar oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklarning farzand tarbiyasiga nisbatan mas’uliyatni to‘g‘ri taqsimlamaganliklari bilan ham izohlanadi.

X.M.Tojiboyevaning ta’kidlashicha, mustaqil fikrlovchi shaxsni rivojlantirish uchun jinsga ko‘ra farqlarni hisobga olgan holda hamda umumiy xarakterdagi o‘quv materiallarini taqdim qilishdan iborat. O‘quvchilarda gender madaniyatini shakllantirishda ta’lim katta ahamiyatga ega ekanligini kuzatishlarimiz yaqqol ko‘rsatdi. Ta’lim o‘g‘il va qiz bolalarning o‘ziga xos tarzda ijtimoiylashuvini ta’minlashda harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. O‘quvchilarda gender madaniyatni shakllantirish jarayoni o‘zida umuminsoniy, madaniy qadriyatlar, tafakkurning nostandart stereotiplari, borliqni tahliliy idrok etish imkoniyatlarini mujassamlashtirishi kerak. Buning uchun ta’lim mazmunida milliy madaniyatga xos qadriyatlar hamda universal madaniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish talab etiladi.

Globallashuv jarayonida ayrim hollarda qizlarda o‘g‘il bolalarga xos, o‘g‘il bolalarda qizlarga xos qadriyatlar etakchilik qilmoqda. Bugungi kunda gender madaniyati shaxsning ijtimoiy mavqeini belgilamoqda. Bunday munosabatlar ikki tomonlama xarakter kasb etmoqda. Ijtimoiy mavqeidagi o‘zgarishlar oilaviy munosabatlar tizimiga xam ta’sir ko‘rsatmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda gender tiplar madaniy hodisalar bilan aloqadordir. Gender tiplar nafaqat jamiyatda balki madaniy hodisalar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Gender munosabatlar doirasida o‘smir yoshdagi o‘g‘il bolalar qiyofasida

quyidagilar namoyon bo‘lmoqda: qo‘rslik, xudbinlik, itoatsizlik, mustaqil fikriga ega emaslik, salbiy his-tuyg‘ularga moyillik, meshchanlik, boqimandalik, dabdabaga o‘chlik, ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolish, tajovuzkor o‘yinlarni o‘ynashga moyillik, kitob o‘qimaslik, dabdabaviy hayot orqasidan quvish, Shou-biznes vakillariga taqlid qilish kabilar.

Oilaviy munosabatlarga tayyorlash nuqtai nazaridan yondashganda qiz bolalar bilan o‘g‘il bolalarning mavqei teng bo‘lgani holda ularning har biri gender o‘ziga xosligini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Bunday yondashuv ularning ijtimoiylashuvini ta’minlaydi. Aks holda o‘g‘il va qiz bolalar orasida ziddiyatlar vujudga keladi. Mentalitetga xos stereotiplar shakllanmay qoladi. Shu bilan bir qatorda o‘g‘il va qiz bolalarda jinsga xos rollarning taqsimlanishi murakkablashadi. O‘g‘il va qiz bolalarda oilaviy munosabatlarga xos bo‘lgan dunyoqarash va rollarning shakllanishi natijasida ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi amalga oshib, jamiyatdagi mavqei ortadi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1.https://www.yaneuch.ru/cat_08/gendernye-stereotipy-n smjelzer/9817.579399.page1.html

2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Gelvesiy,_Klod_Adrian

3. Pedagogika ensiklopediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. // Toshkent. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. - 320 b.

4. Aripov Sh.O. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik tizimi// pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)... dis. - Farg‘ona, 2023. 133 bet.

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIGA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI TATBIQ ETISHNING METODIK ASOSLARI

***I.R.KARIMOVA,***
*O'zbekiston Findlandiya pedogogika instituti magistranti*

*Mazkur maqolada ta'lim tizimiga xalqaro baholash dasturlarini tadbiq etishning metodik asoslari haqida so'z yuritish bilan birga, PISA, PIRLS xalqaro baholash dasturlarining muhim belgilari xorijiy olimlar fikrlariga, ilmiy-tadqiqot ishlariga tayangan holda ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, xorijiy tajribalar, ta'lim sifatini baholash milliy markazi, kasbiy kompetentlik, o'qish savodxonligi, tushunish darajasi, ta'lim tizimi.*

*В данной статье, наряду с изложением методических основ внедрения международных оценочных программ в систему народного образования, выявлены существенные признаки международных оценочных программ PISA, PIRLS с опорой на мнения зарубежных ученых, научно-исследовательские работы.*

***Ключевые слова:*** *международные оценочные программы, PISA, PIRLS, зарубежный опыт, Национальный центр оценки качества образования, профессиональная компетентность, грамотность чтения, уровень понимания, система образования.*

*In this article, along with a presentation of the methodological foundations for the introduction of international assessment programs into the public education system, the essential features of the international assessment programs PISA, PIRLS are identified, based on the opinions of foreign scientists and research works.*

***Key words:*** *international assessment programs, PISA, PIRLS, foreign experience, National Center for Educational Quality Assessment, professional competence, reading literacy, level of understanding, education system.*

Mamlakatimiz xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash yo'nalishidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, ta'lim tizimi rivojlangan davlatlar bilan xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini, birinchi bosqichda, yosh tadqiqotchi o'quvchilarning g'oyalari va ijodkorligini qo'llab-quvvatlash, kerak bo'lsa rag'batlantirish dolzarbdir [2,3,4].

Yuqoridagilarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «Oʻzbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida» gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilgʻor mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan [1,2,4]. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish chora tadbirlari toʻgʻrisida»gi 997-sonli qarorida eng ustuvor vazifa qilib quyidagilar olindi:

– Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlangʻich 4-sinf oʻquvchilarining matnni oʻqish va tushunish darajasini baholash uchun;

– Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8-sinf oʻquvchilarining matematika va tabiiy yoʻnalishdagi fanlardan oʻzlashtirish darajasini baholash uchun;

– The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli oʻquvchilarning oʻqish, matematika va tabiiy yoʻnalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

– The Teaching and Learning International Survey (TALIS) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy oʻrta ta'lim muassasalarida oʻqitish va ta'lim olish muhitini hamda oʻqituvchilarning ish sharoitlarini oʻrganish uchun;

Bugingi kunda yurtimizda berilayotgan ta'lim sifatiga xalqaro doiradagi ekspertlarning bahosi juda muhim. Sababi, hech qaysi davlat oʻz ta'lim tizimiga xolis baho bera olmaydi. PISA tadqiqotlari esa dunyoning yuzdan ortiq mamlakatida standartlashtirilgan testlar orqali oʻtkaziladi. Ta'lim rivojlangan mamlakatlardagi 14 yoshdagi bolalarning bilim darajasini bir xil mezonda oʻlchash imkonini beradi. PISA tadqiqotlarida Oʻzbekistonning ishtiroki mamlakatda ta'lim sifati nechogʻlik darajada ekanini xalqaro miqyosda koʻrsatadi. Bu nima uchun muhimʻ Avvalo, ta'limdagi oʻzgarishlarda toʻgʻri yoʻldan ketyapmizmi, degan savolga javob topiladi. PISA tadqiqotlarida shunday savollar beriladiki, bu qaysidir bir faktga asoslangan boʻlmaydi. Bitta savolda bir nechta fanlar elementlari jamlangan va unda kimyo, fizika, biologiya ham boʻlishi mumkin. Test bolalarning mustaqil hayotga nechogʻlik tayyorligini baholaydigan sinov xisoblanadi. Bugingi kunda yurtimizda milliy

o‘quv dasturi ishlab chiqilmoqda va takominlashtirilmoqda. Milliy o‘quv dasturi doirasida o‘quvchilarga endi nazariy bilim emas, hayotiy ko‘nikma va malaka berish ustida ish olib borilmoqda. Shu orqali biz xalqaro baholash dasturlarida natijaga erishishimiz mumkin.

O‘zbekiston xalqaro baholash tizimi (PISA)ga kirish bo‘yicha xohish bildirgani va bugungi kunda bundan xalq ta’limida PISA ta’limni qanday qilib takomillashtirish mumkinligi obeyktiv ma’lumotni olish imkoniyatiga ega bo‘lamizni beradi.

O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimi 2030-yilga borib aynan PISA xalqaro baholash dasturida birinchi o‘ttiztalikka kiritilishi. Bundan tashqari, milliy baholash tizimini ham shakllantirish zarurligi borasidagi rejalar ta’lim tizimimizni bir nechta komponenti bo‘lishini taminlaydi. Bu biz pedogoglarga qiz va o‘g‘il bolalar kesimida viloyatlar, tumanlar, shaharlarni taqqoslash imkoniyatini yaratadi. Biz qayerda kamchilik, bo‘shliq borligini bilgan holda zarur chora-tadbirlar ko‘rishimiz imkonini beradi. Ho‘sh ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O‘zbekistonga nima beradi?

– Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

– Milliy ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo‘llaniladi.

– Xalqaro tadqiqotlar ta’lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o‘tkazishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

– Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

– O‘zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish madaniyati rivojlanadi, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

– Milliy ta’lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo‘llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

Xalqaro baholash dasturilaridan PISA tadqiqotni quyidagi vositalar yordamida amalga oshiradi: 1. O‘quv topshiriqlaridan iborat test to‘plami. 2. O‘quvchilar uchun o‘zi tahsil olayotgan ta‘lim muassasasi haqida anketa savollari. 3. Maktab rahbarlari uchun o‘zi pedagogik faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasasi haqida anketa savollari.

4. Test va anketa savollarini o‘tkazayotgan rahbar uchun anketa savollari. 5. Ta’limni boshqarish organlari xodimlari uchun anketa savollari. 6. Test topshiriqlarini tayyorlash va olingan natijalarni matematik statistik tahlil qilish yuzasidan ko‘rsatmalar [7].

PISA – o‘quvchilarni ta’lim sohasidagi yutuqlarini amaliyotda qo‘llay olish mahoratini baholash bo‘yicha xalqaro dastur bo‘lib, asosiy maqsadi – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko‘rinishida baholashdan iboratdir. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g‘oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog‘liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxon bo‘lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi (1-rasm).




1-rasm: Tabiiy fanlarni o‘rganishga ijobiy munosabatda bo‘lishning qoidalari.

Mazkur halqaro baholash dasturlari Respublikamiz ta’lim tizimini mazmunan yangilash, innovatsion ta’lim muhitini yaratish, ta’lim sifatini orttirishni talab etadi va quyidagi vazifalarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi: Xalqaro baholash dasturlari PIRLS TIMSS va PISA talablari asosida o‘qish, o‘zbek tili va adabiyoti, matematika va tabiiy o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv va nostandart adaptiv topshiriqlarini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil ish daftarlarini bosma

shaklda va modulli o‘qitish tizimiga asoslangan elektron variantini tayyorlash axborot texnologiyalari vositasida baholash mexanizmini ishlab chiqish. Xalqaro baholash tizimi TALIS (Teaching and Learning International Survey) talablari asosida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini aniqlash uchun kvalimetrik diagnostika anketa so‘rovnomasini tayyorlash va on-lain tizimi vositasida aniqlash. Pedagog kadrlar tomonidan o‘zining kasbiy kompetentligini mustaqil nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholash imkonini beradigan kvalimetrik diagnostika topshiriqlaridan iborat metodik va elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish zarur.

Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Davlatimizga ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta‘lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. O‘quvchilarni xalqaro PISA, PIRLS baholashning asl mohiyati o‘quvchilarda tafakkur uyg‘oqligi, ularni ixtirochi, ijodkorlikka o‘rgatishning asosiy belgisi hisoblanadi. O‘zbekistonda ta’lim tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning «Milliy dasturi»ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi. Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o‘zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ‘O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi» 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni 2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

3. Abdirimova I.K., Boymurodova Z.B. Xalqaro baholash tizimining asosiy xususiyatlari va ta‘lim sohasidagi ahamiyati Pedagogik ta’lim klasteri: muammo

va yechimlar International Conference Chirchik, Uzbekistan 1425- 1429

4. oecd.org/pisa/ - PISA xalqaro baholash dasturi sayti

5. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 243-247. 6.

6. Abdirimova, I. K. (2020). Loyihalash faoliyatining bosqichlari loyihaga yondashuv mohiyati va maqsadlar uygʻunligi. Science and Education, 1(Special Issue 2). 18-26.22 7.

7. Абдиримова И.К. Гармония образования в формировании любви к стране у молодежи Academic Research in educational sciences volume 2 (Issue 2) 2021 ISSN: 2181-1385, 1416-1421.

# ВНЕКЛАССНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НАПРАВЛЕННАЯ НА ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ПОДРОСТКОВ

**_Р.Х.ДЖУРАЕВ,_**
_НИВП им Кары Ниязи, д.п.н., академик_

*Патриотическое воспитание – это сложный целенаправленный процесс, основной задачей которого является формирование высокого чувства патриотизма, патриотического сознания, чувства верности своему Отечеству и его историческому наследию и народам, а так же готовности к выполнению гражданского долга. Патриотизм является нравственной основой жизнеспособности государства и выступает в качестве важного внутреннего мобилизующего ресурса развития общества, активной гражданской позиции личности, готовности ее к самоотверженному служению своему Отечеству.*

***Ключевые слова:*** *патриотическое воспитание, патриотизм, Отечество и его исторический наследия, гражданский долг.*

*Patriotic education is a complex, purposeful process, the main objective of which is to form a high sense of patriotism, patriotic consciousness, a sense of loyalty to one's Fatherland and its historical heritage and peoples, as well as readiness to fulfill civic duty. Patriotism is the moral basis for the viability of the state and acts as an important internal mobilizing resource for the development of society, an active civic position of the individual, and his or her readiness for selfless service to his or her Fatherland.*

***Key words:*** *patriotic education, patriotism, Fatherland and its historical heritage, civic duty.*

Подростковый возраст – это переходный период развития ребенка между детством и взрослостью, который так же называют переломным, трудным или критическим. Он характеризуется физическими изменениями строения тела, качественными изменениями личности и переходом ребенка во взрослую жизнь. По классификации Д.Б. Эльконина старший подростковый возраст охватывает период жизни от 14 до 17 лет. В социальном плане подростки продолжают уже существующий социальный путь, так как всё так же являются школьниками, находятся на иждивении и являются частично дееспособными. Социальный статус подростка практически не отличается от социального статуса детского. В биологическом смысле, происходят большие изменения, поскольку это возраст полового созревания, параллельно которому достигают в основном зрелости и другие биологические системы организма.

Бесспорно, современному становлению демократического государ-

ства, преодолению кризисных процессов развитию на основе традиций отечественной духовности, нравственности, государственности, приобщению к содружеству цивилизованных государств, способствует правильно организованное гражданско-патриотическое образование, включающее в себя единство обучения и воспитания. От его успешности во многом зависит построение правового государства и гражданского общества в Узбекистане.

Одним из основных инструментов формирования гражданственности и патриотизма является воспитание.

Национальная программа подготовки кадров в числе основных задач обозначила воспитание патриотов Узбекистана, обладающих высокой нравственностью. Государственная программа направлена на формирование заинтересованности граждан в развитии национальной экономики, проявления мировоззренческих установок на готовность граждан к защите Отечества, снижение социальной напряженности в обществе, упрочение единства и дружбы народов.

Указанные документы, однозначно и недвусмысленно закрепили гражданско-патриотическое воспитание подрастающего поколения в качестве приоритетного направления в деятельности общеобразовательных учреждений.

В условиях становления гражданского общества и правового государства необходимо осуществлять воспитание принципиально нового, демократического типа личности, способной к инновациям, к управлению собственной жизнью и деятельностью, делами общества, готовой рассчитывать на собственные силы, собственным трудом обеспечивать свою материальную независимость. В формирование такой гражданской личности, сочетающей в себе развитую нравственную, правовую и политическую культуру, ощутимый вклад должна внесли современная школа.

Нели говорить о задачах гражданско-патриотического воспитания подростков в общеобразовательной школе это прежде всего:

– Формирование уважительного отношения к народам мира, человечеству, представителям других национальностей, к своей национальности, ее культуре, языку, традициям и обычаям;

– Воспитание способности делать свой жизненный выбор и несли за него ответственность: отстаивать свои интересы, своей семьи, своего народа, государства;

– Признание ценности независимости и суверенности своего государства и других государств.

При реализации поставленных задач гражданско-патриотического воспитания необходимым условием становится всесторонность организуемой деятельности подростков, разнообразие форм организации, их взаимосвязь и взаимодействие. Процесс деятельности ориентирован па эмоциональное воздействие, переживание организуемой деятельности, включение каждого подростка в деятельность в соответствии с индивидуальными склонностями, потребностями.

Гражданское и патриотическое воспитание подростков в общеобразовательной школе должно осуществляться по двум линиям: на уроках и во внеклассной деятельности.

В учебном процессе урок является источником получения знаний о Родине, ее истории, современных достижениях во всех областях науки, он знакомит подростков с лучшими представителями науки и культуры, героями труда, учит дисциплинированности, законопослушности, готовности выполнять свои гражданские обязанности, стать настоящими гражданами Узбекистана.

Связь внеклассной деятельности с учебной характеризуется тем, что знания, полученные на уроках, умения и навыки, приобретенные в процессе учебной деятельности, закрепляются и находят практическое применение во внеклассной деятельности и наоборот: опыт приобретенный во внеклассной деятельности, находит теоретическое обоснование и практическое применение в учебной деятельности.

Если во время учебных занятий формируется, в основном, устойчивость гражданско-патриотических ценностных ориентаций личности, то их действенность закрепляется во внеклассной деятельности по учебным предметам. При этом необходимым условием действенности гражданско-патриотических ценностей является включение подростков в разные виды деятельности, их активное, осознанное участие на этапе подготовки и проведения акций, недели, марафона по какому-либо предмету.

Важным условием эффективность формирования гражданственности и патриотизма личности подростков является организация разнообразных форм внеклассной деятельности, оказывающих комплексное педагогическое воздействие на когнитивный, мотивационно потребностный, деятельностный компоненты структуры гражданско-патриотических ценностных ориентаций личности подростков.

Ярким примером форм внеклассной деятельности по литературе являются литературно-музыкальные постановки на патриотические темы.

Патриотизм немыслим без чувства единства с другими людьми. Такую же задачу решают и выпуски школьной газеты, литературного журнала, презентации коллективных творческих работ и т.д.

Основой для воспитания патриотических чувств является знакомство учащихся с героическими событиями отечественной истории, выдающимися достижениями страны в области политики, экономики, науки, культуры и спорта. Основными формами данного направления являются создание музеев организация походов и экспедиций по историческим памятным местам и др.

Открытие памятников (А.Темур, Ж.Мангуберды и др.) несет огромное воспитательное значение. Ведь важно, чтобы подростки знали о великих битвах, о великих полководцах, о мужестве народа. Только тогда они смогут понять: им есть чем гордиться, а без гордости за свою страну говорить о патриотизме невозможно.

Наиболее известной и часто проводимой формой внеклассной деятельности является классный час, главная цель которого, познакомить подростков с событиями и объектами, историческими и героическими личностями страны, знаменательными событиями. Кроме информационной нагрузки классные часы-должны быть эмоционально насыщенными, чтобы вызвать у подростков гордость за принадлежность к великой стране, великому народу, и скорбь по павшим воинам и мирным жителям, желание изучать историю, природу родного края, и ответственность за судьбу семьи, города, страны.

Важной формой внеклассной работы по гражданско-патриотическому воспитанию является экскурсия, которая предполагает изучение местных объектов в их естественной обстановке. Такими являются экскурсии к историческим памятникам и памятным местам, а также историко-производственные экскурсии. На экскурсии классный руководитель имеет возможность события прошлого непосредственно связать с конкретными историческими памятниками немыми свидетелями тех событий, что помогает учащимся создать более верные представления о далеком прошлом.

Каждое из перечисленных дел направлено на ориентацию полростка в мире ценностей и последующую трансформацию системы ценностных ориентаций личности в сторону позитивных ориентиров.

Таким образом, правильно организованная внеклассная деятельность является важным фактором и необходимым условием формирования гражданственности и патриотизма, индикатором успешности протекания воспитательного процесса.

**Литература:**

1. Анохина Г.М. Технология развития универсальных учебных действий в основной и средней общеобразовательной школе. - Воронеж: Научная книга, 2013. - 164 с.

2. Д Краевский В.В. Общие основы педагогики: Учеб, пособ. для студ. высш. пед. учеб, заведений. - М.: Издат. центр «Академия», 2003. - 256 с.

3. Якиманская И. С. Технология личностно ориентированного образования. - М.: Директор школы, 2000. - 172 с.

# ИНДИВИДУАЛЬНАЯ ПОМОЩЬ И ПОДДЕРЖКА РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

***Г.ИБРАГИМОВА,***
*соискатель ТГПУ им Низами*

*В статье индивидуальная помощь детям и подросткам с ограниченными возможностями здоровья рассматривается как важный компонент социального воспитания. Показана сущность, содержание и этапы оказания индивидуальной помощи детям и подросткам изучаемой группы. Отмечено, что индивидуальную помощь необходимо оказывать как в образовательных учреждениях, так и в учреждениях социальной защиты в первую очередь при решении возрастных задач социализации.*

***Ключевые слова:*** *дети и подростки с ограниченными возможностями здоровья, социализация, социальное воспитание, индивидуальная помощь.*

*In the article the individual help to children and teenagers with the limited possibilities of health is considered as an important component of social education. The essence, the maintenance and stages of rendering of the individual help is shown children and teenagers of studied group. It is noticed that it is necessary to render the individual help both in educational institutions, and in social protection establishments first of all at the decision of age problems of socialization.*

***Key words:*** *children and teenagers with the limited possibilities of health, socialization, social education, the individual help.*

Термин «индивидуальная помощь» является междисциплинарным, так как используется в медицине, психологии и педагогике для обозначения различной по содержанию, форме и продолжительности деятельности, направленной на изменение внешнего или внутреннего состояния человека при взаимодействии со специалистом в реальном режиме.

В современной социально-педагогической литературе индивидуальная помощь рассматривается с нескольких позиций: как помощь в решении возникающих у человека проблем [4; 6; 7]; как педагогическая поддержка [3]; как педагогическое сопровождение [1].

По мнению ряда исследователей, "педагогическая поддержка - это педагогическая деятельность, подкрепляющая ребенка в ситуации обнаружения им своей слабости и помогающая ему преодолеть ее за счет индивидуальных способностей и возможностей" [3, с. 32].

В столкновении с проблемой ребенок имеет возможность развивать способности к самоопределению, а в процессе преодоления ее он развивает

способности к самореализации. Это происходит только при столкновении индивидуальных способностей и возможностей, которое актуализирует процессы, связанные с самоопределением, а педагогическая поддержка помогает ребенку развернуть самоопределение в конкретную деятельность по самореализации. Так возникает основание для возникновения общности между ребенком и педагогом, что, в свою очередь, является условием для совместной рефлексии опыта, приобретаемого ребенком в качестве субъекта жизнедеятельности. В литературе последних лет [2] выделяют четыре тактики индивидуальной помощи:

1) тактика защиты - ребенок не должен оставаться жертвой обстоятельств. Задача педагога в этом случае - выстраивание безопасного диалога, атмосферы взаимного диалога с ребенком;

2) тактика помощи - необходимо разблокировать собственную активность воспитанника, боящегося неудачи, потерявшего веру в себя; успешное взаимодействие с ним;

3) тактика содействия - воспитанник всегда имеет возможность выбора; необходимо развивать его способность к самоопределению в той или иной ситуации, к видению заложенных в ней возможностей и преодолению страха перед неизвестностью;

4) тактика взаимодействия - воспитанника обучают выстраиванию демократических, договорных отношений с другими, установлению границ своей свободы и ответственности с помощью целенаправленно создаваемых для этого педагогических условий.

Индивидуальную помощь необходимо оказывать при:

- наличии трудности, вызывающей негативные эмоции ребенка и представляющей потенциальную или реальную угрозу для него;
- наличии предпосылок возникновения проблемы или определения опасности для воспитанников;
- наличии реальной ситуации, воспринимаемой в качестве серьезной проблемы.

Мы в своем научном исследовании придерживаемся позиции А.В. Мудрика, согласно которой индивидуальная помощь - это сознательная попытка помочь человеку приобрести знания, установки и навыки, необходимые для удовлетворения своих позитивных потребностей и интересов и удовлетворения аналогичных потребностей других людей; в осознании человеком своих ценностей, установок и умений; в развитии самосознания, в самоопределении, самореализации и самоутверждении; в развитии понимания и восприимчивости по отношению к себе и другим, к социальным проблемам; в развитии чувства причастности к семье, группе, социуму [4].

Индивидуальную помощь необходимо оказывать при решении возрастных задач социализации, а также при столкновении с опасностями возраста.

Опишем специфику возрастных задач социализации детей и подростков с ограниченными возможностями здоровья.

Приведем примеры естественно-культурных задач для человека с ограниченными возможностями здоровья:

1) формирование представлений у детей и подростков с ограниченными возможностями здоровья об эталонном строении организма здорового человека мужского и женского пола;

2) физическое развитие детей и подростков с ограниченными возможностями здоровья (двигательной активности, координации движений, силовых возможностей);

3) обучение детей и подростков с ограниченными возможностями здоровья навыкам здорового образа жизни (своевременному использованию лекарственных препаратов, медицинских приборов, выполнению физических упражнений, соблюдению режима труда и отдыха, выполнению посильных видов деятельности).

Дети и подростки с ограниченными возможностями здоровья имеют наибольшие проблемы при решении именно этой группы задач; это связано с наличием первичных (биологических) и вторичных (социальных) нарушений. Осознание себя как самодостаточной и самоценной личности, способной к изменениям, встречается только у небольшой части изучаемой нами категории детей и подростков. Самосознание у детей и подростков с ограниченными возможностями здоровья будет не сформировано, а самооценка - занижена. Самоопределение себя ребенком (подростком) с ограниченными возможностями здоровья в актуальных для него сферах жизнедеятельности затруднено, так как оказываются ^сформированными ценностно-целевые компоненты личности, отсутствует развитая временная перспектива. Стратегии самоутверждения детей и подростков с ограниченными возможностями здоровья характеризуются бездеятельностью, непоследовательность, нацеленностью на асоциальные и антисоциальные формы общественного поведения.

На наш взгляд, наряду с перечисленными выше возрастными задачами социализации дети и подростки с ограниченными возможностями здоровья сталкиваются с проблемными ситуациями, связанными с вторичными (т. е. социальными) нарушениями (общение, взаимодействие, формирование социально-важных навыков), с адаптацией и приспособлением к природной и социальной среде, с приобретением навыков социально-желательного поведения.

Наиболее остро у каждого человека с ограниченными возможностями здоровья стоят проблемы восприятия и переживания собственной бо-

лезни, сохранения и укрепления здоровья, нахождение общего языка с ближайшими родственниками, профессиональной ориентации и поиска работы. Мы считаем, что индивидуальная помощь детям и подросткам с ограниченными возможностями здоровья должна оказываться в учреждениях образования (общеобразовательных и специальных школах) и социальной защиты (социально-реабилитационные центры) педагогами, психологами, социальными работниками.

Индивидуальная помощь, оказываемая детям и подросткам с ограниченными возможностями здоровья, будет результативна, если определено содержание, формы и этапы оказания индивидуальной помощи; у человека с ограниченными возможностями здоровья сформированы возможные навыки самостоятельности, самооценочной деятельности и готовности идти на контакт с окружающими взрослыми людьми и сверстниками.

Содержанием индивидуальной помощи детям и подросткам с ограниченными возможностями здоровья является помощь в решении возрастных задач социализации, опасностей возраста, специфических проблемных ситуаций, возникающих в процессе жизнедеятельности.

Наиболее распространенными способами оказания индивидуальной помощи являются: индивидуальные и групповые беседы (последние организуются для лиц со сходными проблемами); создание специальных ситуаций в жизнедеятельности воспитательных организаций; работа со значимыми для ребенка (подростка) людьми; переориентация индивидуальных и групповых интересов в сторону социально значимых; . тренинги и ролевые игры; рекомендации для чтения специальной литературы.

Современные педагоги выделяют три уровня самостоятельности клиента:

1) автономность предполагает способность выполнять элементарные каждодневные функции, позволяющие человеку обеспечить:

- биологическое существование (удовлетворение биологических потребностей - гигиенический уход за собой, умение одеваться, самостоятельно принимать пищу, элементарные бытовые навыки);

- поддержку минимального социально обусловленного уровня жизни (удовлетворение социальных потребностей - умение строить отношения с близкими, знание социальных норм поведения, элементарный уровень ориентации в сфере трудоустройства, минимальные экономические знания);

2) самореализация требует наличия таких навыков, которые позволили бы человеку действовать с целью самосовершенствования (способность ставить цели, делать выбор, брать на себя инициативы). Области, в которых возможна самореализация, в большинстве случаев включают культуру, ис-

кусство, спорт, творческую работу, общение. Самореализация подразумевает изменение человека, прогресс на уровне глубинных потребностей;

3) эмпатия предполагает содействие в самореализации других лиц и подразумевает наличие навыков заботы и заинтересованности в других людях, т. е. социальную ответственность, потребность помогать другим людям. Ответственность за других можно, с одной стороны, рассматривать как человеческий долг, а с другой - как свободный выбор, одну из форм самореализации [5].

Таким образом, индивидуальная помощь является необходимым компонентом социального воспитания детей и подростков с ограниченными возможностями, оказывается всем нуждающимся в ней в учреждениях образования и социальной защиты; содержание индивидуальной помощи конкретному ребенку (подростку) с ограниченными возможностями здоровья определяется исходя из возрастных задач, опасностей возраста и индивидуально-типологических особенностей ребенка.

**Литература:**

1. Александрова Е.А. Педагогическое сопровождение старшеклассников в процессе разработки и реализации индивидуальных образовательных траекторий: Автореф. дисс.... д.п.н. - Тюмень, 2006.

2. Касицина Н.В., Михайлова Н.Н., Юсфин С.М. Четыре тактики педагогики поддержки: эффективные способы взаимодействия учителя и ученика. - М.: Сфера, 2010.

3. Михайлова Н.Н., Юсфин С.М. Педагогика поддержки: Учебно-метод. пособ. -М.: МИРОС, 2001.

4. Мудрик А.В. Социальная педагогика: Учебник для студентов высш. пед. учеб, завед. - М.: Academia, 2005.

# BIOLOGIYADAN DARSDAN VA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA ELEKTRON TA'LIMIY VOSITALAR VA ULARNING AHAMIYATI

***R.MADATOV,***
*dotsent v.b., (PhD)*
***N.TEMIROV,***
*dotsent v.b., (PhD)*
*TDPU Tabiiy fanlar fakulteti*

*Biologiyadan darsdan tashqari ishlar mazmuni mashg'ulotlar davomida amalga oshiraladigan maqsad va vazifalar, xususan sistematika, morfologik va anatomik tuzilishiga oid ma'lumotlarni bilish bilan belgilanadi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilar darsda o'zlashtirgan nazariy bilimlarini mustahkamlaydi; amaliy ko'nikma va malakaga ega bo'ladi.*

***Kalit so'zlar:*** *biologiya, elektron vositalar, ta'lim tizimida, o'quvchilar, o'qituvchilar, ta'lim sifati va samaradorligi, darsdan tashqari mashg'ulotlar, sinfdan tashqari ishlar, kuzatish, o'rganish, multimedia vositalaridan foydalanish.*

*The content of extracurricular activities in biology is determined by the goals and objectives to be achieved during the lessons, in particular, knowledge of information on systematics, morphological and anatomical structure. During the lessons, students consolidate the theoretical knowledge acquired in the lesson; acquire practical skills and qualifications.*

***Key words:*** *biology, electronic means, in the education system, students, teachers, quality and effectiveness of education, extracurricular activities, extracurricular activities, observation, learning, use of multimedia tools.*

Biologiyadan darsdan tashqari ishlarni tashkil etishda hayvonlarning rivojlanishining turli bosqichlari uzoq muddatli kuzatuvlar asosida amalga oshirish ham maqsadga muvofiqdir. Masalan, hayvonlarning ko'payishi (masalan, akvarium baliqlari, to'tiqush yoki kanareykani tuxumdan jo'ja ochishi, mushuk yoki kuchuk bolasining «katta bo'lish» ya'ni rivojlanish jarayonlari) o'rganish mashg'uloti o'quvchiga zavq beribgina qolmasdan, balki uy hayvonlarining xatti-harakatlari va ulg'ayishi bilan bog'liq jarayonlarni ko'rish, e'tibor qaratish, shu bilan birgalikda tabiatni sevish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday mashg'ulotlarni o'quvchilar bilan hamkorlikda nafaqat tabiatda, sinf burchaklarida, balki uy sharoitida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Yovvoyi tabiatda kuzatish mashg'ulotida jarayonida o'quvchi hayvonlarning ko'pgina moslashish xususiyatlarini o'rganadilar. Jumladan, ov to'rlari va

o‘rgimchaklarning xatti-harakatlarini, hayvonlarning muayyan sharoitlarda yashashiga moslashishini, qushlardagi reflekslarni hayvonlarning yashash sharoitlarini kuzatish misolida tushunib boradilar.

Ta’kidlash joizki, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning biologiyadan hayvonot olamining asosiy biologik tushunchalarini shakllantiradigan, ularning biologik qonuniyatlarning mohiyatini o‘zlashtirishlariga hissa qo‘shadigan mavzularga alohida tanlab olish talab etiladi.

Darsdan tashqari ishlar o‘quv jarayonining turli bosqichlarida qo‘llaniladi. Masalan, hasharotlarning tashqi tuzilishi, tarqalish va ularning moslanish jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha laboratoriya ishlarini tashkil etganimizdan so‘ng, mazu doirasida bilimlarni mustahkamlash va sinovdan o‘tkazish uchun uyda bajarish uchun vazifa topshiriladi. Unga ko‘ra o‘quvchilar uy atrofida tarqalgan hasharotlardan mobil kolleksiya to‘playdi. Ya’ni hozirda intellektual salohiyatli o‘quvchilarimizda zamonaviy mobil aloqalaridan foydalanish keng ommalashgan. Shunday ekan, o‘quvchilar axborot vositalaridan unumli foydalanishlarini inobatga olgan holda kichik hajmda videoparchalar, rasmlar kolleksiyalarini tayyorlaydilar.

Masalan, O‘zbekistonning iqlim sharoitiga moslashib, keng tarqalgan qattiqqanotlilar, pardaqanotlilar, to‘g‘ri qanotlilar, ninachilar turkumi vakillaridan ko‘rgazmali namunalar tayyorlashda, o‘quvchilar o‘qituvchi ko‘rsatmalari va pedagogik maslahatlaridan foydalanishadi. Qo‘ng‘izlar, kapalaklar va ninachilardan to‘plangan kolleksiyalar keyinchalik o‘qituvchi hamkorligida umumiylashtiriladi. Unda har bir o‘quvchining hasharotlar kolleksiyasining elektron namunalari darsda va to‘garak mashg‘ulotlarida samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. Darsdan tashqari ishlar katta ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Darsdagi nazariy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ko‘plab foydali ko‘nikmalarni egallashga imkon beradi va shuning uchun ta‘lim va tarbiyani hayotga yaqinlashtiradi. Darsdan tashqari ishlar umumta’lim maktabida o‘quvchilarga individual yondashishni osonlashtiradi, ularning mustaqil ishlashi va kichik loyihalarda tadqiqotlar olib borishlariga yordam beradi.

O‘qituvchi bilan birgalikda olib boriladigan darsdan tashqari ishlar o‘quvchining bilim olishga intilishini faollashtiradigan va o‘quvchilar manfaatlarini yaxshiroq qondirishga yordam beradigan samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarning maqsadi o‘quvchilarga ma’lum bir fan sohasidagi barqaror qiziqishlarni, faoliyat turlarini aniqlashga yordam berish, shuningdek, o‘quv dasturlari doirasidan tashqarida bo‘lgan, ammo o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lgan mavzularni

chuqur o‘rganish paytida moyillik, qobiliyat va iste’dodlarni aniqlashga ko‘maklashishga xizmat qilishi lozim.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarning asosiy vazifalari:

1. Biologiyaga qiziqishni targ‘ib qilish

2. Biologik eksperiment, kuzatish ko‘nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirish.

3.O‘quvchilarning ijodiy faolligi, tashabbuskorligi va tashabbuskorligini rivojlantirish

4. O‘quvchilarni amaliy mashg‘ulotlarga tayyorlash

5. O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini estetik va axloqiy tarbiya bilan uyg‘un holda tashkil qilish.

6. O‘quv jarayonidagi darsdan tashqari ishlarning o‘rni

Darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarni o‘qituvchidan individual yoki guruh vazifalari bo‘yicha maktabdan keyin bajariladigan ishlarni tashkil etish shaklidir. Darsdan tashqari ishlar:

– biologiya xonasida;
– yovvoyi tabiat burchagida;
– tabiat qo‘ynida;
– o‘quv-tajriba maydonchasida tashkil etiladi.

Ma’lumki, fan bo‘yicha darsdan tashqari ishlar shunday tarbiyaviy ishlar deb ataladi, o‘quvchilar darsdan tashqari vaqtlarda o‘qituvchining rahbarligi ostida ixtiyoriy ravishda o‘quv dasturiga qo‘shimcha ravishda bajaradilar. O‘qituvchi tomonidan yetakchilik to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki boshqa muassasalar mutaxassislari, o‘quvchilar va yuqori martabali o‘quvchilar yordamida amalga oshirilishi mumkin [141. 24-26.].

Biologiya fanidan darsdan tashqari mashg‘ulotlarning muhim vazifasi o‘quvchilarning adabiyotlar va laboratoriyada eksperimental ish ko‘nikmalarini mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot ishida darsdan tashqari ishlarni o‘rganish borasida asosan mustaqil ishlarni tashkil etish va uni o‘quvchilar orasida ommalashtirish, natijada ularda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida etibor qaratildi.

Tadqiqot ishida o‘quvchilarning darsdan tashqari ishlarni bajarishga yo‘naltirish maqsadida ularni mustaqil ish mavzularini individual bajarishi, mustaqil o‘quv-bilish faoliyatining rivojlantirish va kichik tadqiqot ishlarini amalga oshirishda o‘quvchidagi tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratilgan. Bunda

mavzulardan tanlab olingan kichik loyiha ishlarini bajarish davomida o‘qituvchining o‘quvchilarga individual yondashishi talab etiladi. Shunday ekan, birinchi galda o‘qituvchining mustaqil ishni tashkil etish va uni amalga oshirishi uchun mustaqil ish metodlarini to‘liq anglashi va tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Biologiya fanidan darsdan va sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashning eng harakatchan shakli, o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan ularning qiziqishlari, tajribasi va qobiliyatlari va maktab ish muhitiga bog‘liq holda belgilanadigan tarkibiy va metodikadir. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar turli xil shakl va usullar bilan ijodiy shaxsni shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi, bu nafaqat o‘quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob berish, balki biologiya sohasidagi ham, ilmiy-texnik muammolarga nisbatan ham o‘z bilimlarini sezilarli darajada takomillashtirish va kengaytirish, kasblar va tanishlar bilan tanishish imkonini beradi.

Masalan, yoz davomida 7-sinf o‘quvchilariga hayvonlarni kuzatish va mahalliy hasharotlar vakillaridan (tur va turkumlarga mansub holda) kolleksiya, suvda va quruqda yashovchilar, sudralib yuruvchilar sinfi vakillariga mansub hayvon to‘plamiga xos hayvonlar guruhini rasmlar kolleksiyasidan namunalar (kapalaklar, qo‘ng‘izlar, chigirtkalar), qushlarning inlari, tuxumlarining videonamunalari kabi biologik obyektlar tayyorlash vazifalari nafaqat o‘quvchilarning yozgi ta’tildagi vaqtlarini unumli o‘tkazishga, balki ularning biologiyadan hayvonot dunyosiga qiziqish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

O‘qituvchi yozgi ta’tilga O‘zbekistonning turli viloyatlariga sayohat qilgan o‘quvchilar biologiya sinfini qiziqarli narsalar bilan boyitish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar yoz uchun qaerga borishini oldindan bilib olgach, o‘qituvchi ularga individual topshiriqlar beradi: urug‘lar, chig‘anoqlar, hayvonlar uchun xos maxsulotlar, ba‘zi hollarda tirik burchak uchun zarur bo‘lgan ba’zi narsalarni, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha ma’lumotlar to‘plab keladi.

Yozda tabiatda bajariladigan darsdan tashqari ishlar, shuningdek o‘quv va eksperimental maydondagi topshiriqlar o‘quv mavzularini o‘rganish munosabati bilan o‘quv yili davomida o‘quvchilar o‘rtasida taqsimlanadi. [141]. Ta’kidlash joizki, biologiyadan darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga elektron ta‘limiy resurs vositalarini joriy etish dars mavzulari singari yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan xulosa sifatida quyidagilarni keltirish o‘rinli:

1. Biologiyadan ta’limida elektron ta’limiy resurslaridan foydalanishda

ko‘rgazmali vositalarning, taqdimot va baholash dasturlaridan unumli foydalanishni to‘g‘ri yo‘naltirish zarur.

2. Darsdan tashqari ishlarni tashkil etishda mustaqil ta’lim texnologiyalari usullarini keng targ‘ib qilish, tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil faoliyat yuritishga o‘rgatish asosida o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish talab etiladi.

3. Elektron ta‘lim resurslari, taqdimot dasturlari, elektron qo‘llanmalarini sinfdan tashqari mashg‘ulotlar – to‘garaklar, kechalar, tadbirlar, hayvonlarning muhofaza qilishga bag‘ishlangan kun tadbirlarida keng targ‘ib qilishning samarali usullarini joriy etish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ergasheva G. Biologiya ta’limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish.: pedagogika fan.fals.doktori (DSc) diss. avtoreferati…- Toshkent.: O‘zMU, 2018. - 56-b.

2. Ergasheva G.S., Qaraxonova L.M. Ta’lim jarayonida veb-kvest texnologiyasi va undan foydalanishning o‘ziga xos ahamiyati // Uzluksiz ta’lim // - Toshkent. 2016. № 6. -B. 59-63.

3. Yusupov N. Biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash usullari // Zamonaviy ta’lim. 2018. № 6. -B. 31-36.

4. Qudratova G. Ko‘l baqasining tashqi tuzilishi va skeleti // Maktabda biologiya. 2017. № -B. 2-7.

# BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY BOSQICHLARI

***E.O.SHARIPOV,***
*QarMII «Oliy matematika» kafedrasi mudiri, dotsent*

*Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari talabalarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish hamda intellektual salohiyatini oshirishda talabalarni olgan bilim, ko‘nikma va faoliyat tajribasiga tayangan holda pedagogik muammolarni hal etish qobiliyatini shakllanishida axborot texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanish zarurligi keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *axborot kompetensiyasi, raqamli ta’lim, raqamlashtirish, axborot savodxonlik, integratsiyalashgan axborot ta’limi.*

*В данной статье рассматривается необходимость эффективного использования средств информационных технологий в формировании умений решать педагогические задачи, опираясь на полученные знания, умения и опыт деятельности учащихся по развитию информационной компетенции и повышению интеллектуального потенциала будущих учителей начальных классов.*

***Ключевые слова:*** *информационная компетентность, цифровое образование, цифровизация, информационная грамотность, интегрированное информационное образование.*

*This article presents the need for the effective use of information technology tools in the formation of the ability of future primary school teachers to solve pedagogical problems, relying on the knowledge, skills and experience gained by students in developing information competence and increasing their intellectual potential.*

***Key words:*** *information competence, digital education, digitization, information literacy, integrated information education.*

Axborotlashgan jamiyatda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quv-metodik ta’minot (salohiyotli mualliflar adabiyotidan)lar asosida axborot tayyorlash, saqlash va boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga yetkazishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari talabalarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Shuning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot bilan ishlash bosqichlarini to‘g‘ri bajarishning mantiqiy tuzilmasi (algoritimi)ni keltiramiz (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

**Axborot bilan ishlash bosqichlarining mantiqiy tuzilmasi**

| Axborot bilan ishlash bosqichlarini to'g'ri bajarishning mantiqiy tuzilmasi | | |
|---|---|---|
| **"Axborot tizimlarini" qo'llash uchun axborot tayyorlashda o'qituvchining nazariy va amaliy bilimlari va pedagogik mahorati shakllanadi.** | | |
| Talabalarning axborot tizimlarini bilgan holda adabiyotlar bilan tanishadi va ishlaydi. | O'quv-metodik ta'minot asosida axborot (elektron resrus)larni tayyorlaydi, saqlash va boshlang'ich sinf o'quvchilariga yetkazadi. | |
| **"Axborot tizimlari" bilan ishlashning asosiy maqsadi** | | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini axborot tizimlarini nazariy asoslar bilan tanishtirish hamda ulardan amalda foydalanishni o'rgatishdan iborat. | | |
| **Axbort tizimlarini joriy etilishidan kutilayotgan natijalar** | | |
| Pedagogik texnologiyalar va intelekual tizimlarni joriy etish natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi talabalarini boshqaruv masalalarini va fanga oid masa lalarni yechishni modellashtirish hamda yechishni ratsional usullariga yega bo'lish. | Axborotlarni (elektron resrus)ishonchl iligini ta'minlash. | Umum o'rta ta'lim maktabdagi axborotlar oqimini va hujjatlarni yuritishning aylanishiga e'tibor qaratib takomillashtirish. |

Axborot tizimlarining vazifasi. Axborotlarga asoslangan, maqsadi va shu maqsadga erishish yo'llari belgilangan boshqariluvchisi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining boshlang'ich sinf o'quvchilariga maqsadli ta'sir etish natijasida boshlang'ich sinf o'quvchisida bilim, ko'nikma, malaka shakllantirish natijasida – o'quvchining mustaqil qaror qabul qilish jarayoni tushuniladi. Qaror qabul qilish jarayonini ta'minlash aynan matematika faniga kerakli axborot (harakatli ko'rgazma va rasm)larning kerakli vaqtda va kerakli joyga taqdim etish – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi talabasini ta'lim jarayonida axborot tizimida foydalanishning asosiy vazifalari hisoblanib, pedagogik moharatini baholaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga axborotlarning asosiy mazmunini, keng doirada qo'llanadigan ma'nosini tushunadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari atrofdagi real voqeliklar mazmunini aks yettirgan axborotlardan ko'ra ertaklardagi obrazlar, hayoliy voqealar, mavhum tushunchalar mazmunini aks yettirgan axborotlarni harakatli ko'rgazmalar va rasmlar ko'proq e'tiborni tortadi. Buning sababi boshlang'ich sinf o'quvchilari real voqea – hodisalar va predmetlarning asl mohiyatini hozircha tushunmaydi. Hodisalar va predmetlarni o'quvchi o'z ongida aksini tasavur yettira olmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ma'lum hayotiy qonuniyatlarga bo'ysunmaydigan, o'zlari tomonidan, yoki ular uchun to'qib chiqarilgan voqea-

hodisalarni ko‘proq tushunarli. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari axborotlarning tub maz‘mu (o‘quv-metodik ta’minot, elektron resrus)ni harakatli ko‘rgazma va rasmlar asosida tayyorlash malakasiga ega bo‘lishlari shart [2].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida axborot bilan uchun zarur bo‘ladigan mavjud kompetentsiyasilarni keltiramiz(2-jadvalga qarang):

2-jadval

**Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida axborot bilan uchun zarur bo‘ladigan mavjud kompetentsiyasilar**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Axborot bilan ishlash kompetentsiyasi** | | | |
| Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio, audio-video yozuv, telefon, kompyuter, yelektron pochta va boshq.) foydalana olish. | Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta`minlash va foydalanishda media - madaniyatga rioya qilish. | Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ma`lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish. | Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to‘ldirish, mehmonxona ro‘yxatida o‘zi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd yeta olishi va boshq.) |
| Kompetentsiyani tatbiq qilish usullari. | | | |
| Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi dars mavzusiga oid ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish . | Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi axborot bilan ishlash kompetentsiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni, asosan harakatli masalalarni yechishda kordinatsion yordam bera olishi. | Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilariga qo‘yilgan masalaga oid savolnomalarni bera olishi. | Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi boshlang‘ich sinf o‘quvchisini o‘zi xarakatga keltirilib, kuzatib yangi darsga tayerlab borishi. |
| **O‘z o‘rnida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bilan boshlang’ich sinf o‘quvchilari o‘zaro muloqotda bo‘lib, yangi darsga tayyorlanishadi.** | | | |
| **Axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari va ulardan foydalanish.** | | | |
| Boshlang‘ich sinf o‘qivchisi jarayonlar haqida puxta va ongli ravishda o‘zlashtirish uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga beriladigan bilimlarni asoslari berishni ta’minlash | Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quv va keyingi ish faoliyatlarida kompyuterlardan oqilona foydalanib, boshlang‘ich sinf o‘quvchisida kompyuterlardan ishlash ko‘nikma va malakalarini hosil qilish. | Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bergan bilimlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchisida yangi axborot texnologiyalarining mamlakatimiz taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasi to‘g‘risida ma’lumotlar berish. | Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi boshlang‘ich sinf o‘quvchisida dasturiy ta’minotlar (sistemali dasturlar, amaliy dasturlar, uskunaviy dasturlar) magnit disklar bilan tanishtirish. |

O‘quvchilarning axborotning muloqot jarayonini ta’minlashga xizmat qiluvchi funksiyani anglashlari muhim. Ta’lim jarayoni – bu avvalo axborot almashinish jarayonidir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi boshlang‘ich sinf o‘quvchiga tegishli axborot beradi va o‘z navbatida teskari aloqa tarzida bayon qilingan axborotlar qanday o‘zlashtirilganligi haqida tasavvur hosil qiladigan axborot oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda axborotlar bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tafakkur kabilar)ni, ziyraklik, sinchkovlik, fikrlay olish kabi xislatlarini rivojlantirishi bilan muhimdir. Globollashuv davrida taraqqiy etib borayotgan axborotlar oqimi jamiyatida ijtimoiy rivojlanishning asosini insonlarning intellektual salohiyati, faoliyati, mustaqil ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishi kabi omillar tashkil etadi.

Ta’lim jarayonida axborotlar bilan ishlash masalasini zamon talablari asosida doimiy ravishda takomillashtirib borish lozimligini bugungi kun amaliyoti ko‘rsatmoqda. Zamonaviy ta’limning talablari xususan, «mehnat bozoridagi dinamik o‘zgarishlar, insonning nafaqat bilim va ko‘nikmalari balki, shaxsiy fazilatlariga bo‘lgan talablarning ortishi» kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltirdi hamda bir qancha olimlar tomonidan kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim muammolari o‘rganilib, ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqildi.

M.M.Vahobov fikricha «kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim – o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetentsiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir» [3].

Ta’limda kompetentsiyaviy yondashuv bizning fikrimizcha: kompete-ntsiyalardan tasodifiy muammoli vaziyatlarga duch kelinganda tegishli bilim, ko‘nikma, malakalardan foydalana olish asosida matematika fanni o‘qitish jarayonida uning maz’muni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga mos kompetentsiyalar shakllantirilish jarayonini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari talabalarining boshlang‘ich sinf matematika faniga oid masalalarini yechishni modellashtirish orqali ularda axborot bilan ishlash kompetentligi rivojlanadi.

Masalan. To‘rt xonali sonni raqamlarini aniqlashni modellashtiraylik:

1). Berilgan son 1000 ga bo‘linadi. Natijaning butun qismi mingliklar raqami;

2). Aniqlangan minglar raqami 1000 ga ko‘paytirilib, berilgan sondan ayriladi. Natija 100 ga bo‘linadi va butun qismi yuzliklar raqami;

3). Aniqlangan minglar raqami 1000 ga ko‘paytirilib, yuzliklar raqami 100 ga ko‘paytirilib, qo‘shiladi va berilgan sondan ayriladi. Natija 10 ga bo‘linadi va butun qismi o‘nliklar raqami;

4). Aniqlangan minglar raqami 1000 ga ko‘paytirilib, yuzliklar raqami 100 ga ko‘paytirilib, o‘nliklar raqami 10 ga ko‘paytirilib, qo‘shiladi va berilgan sondan ayrish natijasida birliklar raqami [4].

Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari talabalarining axborot bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirishning ustuvor muammolaridan biri hisobladi. Talabalarining axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirish maz‘muni sifatida darslarga qiziqish, yangi bilimlarni o‘zlashtirib borishga intilishini saqlanib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida» gi 2017 yil 6 apreldagi 187-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017. 14 (774)-son, 230-modda // www.lex.uz

2. Ruzikulova N. O‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtirishni rivojlantirish omillari. // Maktab va hayot ilmiy-metodik jurnali. - Toshkent, 2013. - № 3.

3. Vahobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari hamda ta’lim sifati monitoringi modelini amaliyotga joriy etish - intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashning muhim omili. Maktab va hayot. - №3 (119), 2016. 2 - b.

4. Turayev A.K. Algoritmik jarayonlarda matematik modellardan foydalanish. «Fizika va matematika fanlarini o‘qitishning zamonaviy usullar: muammolar va yechimlar» Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami Shaxrisabz, 5 yanvar 2023 yil, B.202-205.

# UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

***M.NURULLAYEVA,***
***A.XOTAMOV,***
*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti innovatsion loyiha ijrochilari*

*Tabiiy fanlarni o'qitishda elektron resurs vositalarini joriy etish va dars samaradorligiga erishish borasida ko'pgina amaliy ishlar amalga oshirilgan. Ular bilan bog'liq ko'pgina vazifalar (ko'rgazmali materiallarni sifatli namoyish etish, rag'batlantirish, o'z-o'zini baholash va nazorat qilish, Internet materiallaridan unumli foydalanish, ma'lumotlarni yangilash va o'zgartirish va h.k)ning qisqa muddatda, sifatli amalga oshirilishi elektron ta'lim resurslariga bo'lgan ehtiyojini yanada orttiradi.*

***Kalit so'zlar:*** *elektron resurslar, tabiiy fanlar jamlanmasi, tadqiqotchilik ko'nikmasi, tabiat hodisalarini o'rganish, tirik organizmlar, o'quvchilar, o'qituvchilar.*

*A lot of practical work has been done on the introduction of electronic resource tools in teaching natural sciences and achieving lesson efficiency. The short-term, high-quality implementation of many related tasks (high-quality presentation of visual materials, motivation, self-assessment and control, effective use of Internet materials, updating and changing information, etc.) further increases the need for electronic educational resources.*

***Key words:*** *electronic resources, natural science collection, research skills, study of natural phenomena, living organisms, students, teachers.*

Tabiiy fanlarni o'rganishda o'quvchilarning hayvonot dunyosi, ularning tarqalish chegaralari, ularning yashash tarzi, ularning o'zaro o'xshash va farqli belgilari, xilma-xilligi, ko'payishi va rivojlanishi haqidagi bilim-ko'nikmalari shakllantiriladi. O'qituvchilar dars davomida mavzuga oid nazariy ma'lumotlarni o'quvchilar tez tushunishi va oson qabul qilishi uchun har xil didaktik vosita va materiallar tatbiq etish ishlariga intilishayotganligini guvohi bo'lish mumkin. Mazkur o'qitish vositalari foydalanish nafaqat darsda, balki darsdan tashqari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy fanlarni o'rganishda bunday didaktik vositalar guruhiga mavzular bo'yicha bilim beruvchi darslik, metodik qo'llanmalar, rasmli tablitsalar, jadvallar, mikroskop, hayvon preparatlari, didaktik testlar, krossvordlar va shu kabilarni kiritish mumkin. O'qituvchilar bir soatlik dars davomida mana shunday vositalar yordamida mavzu yuzasidan o'quvchining ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga, ularning mavzu yuzasidan bilimlarini hosil qilishga intiladilar.

Multimedia vositalaridan foydalanish va ularni tatbiq etish davomida o‘quv jarayonida o‘ziga xos yangi usul vujudga keladi. Mazkur usul vositasida biologiya (zoologiya)dan mavzular bir tizim asosda kompyuterlashadi, hayvonning ichki tuzilishini o‘rganishda animatsiyalardan foydalaniladi, hayvonlarning sistematik birliklari, hayvonlarning xilma-xilligini o‘rganishda, o‘quv-ko‘rgazmali jamlanmalar, taqdimot-kliplardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish o‘z-o‘zidan darsda ko‘rgazmalilikni sifat ko‘rsatkichlarini oshiradi, o‘quvchilarning bilim-ko‘nikmalarini qisqa muddat orasida nazorat qilish imkoniyatining paydo bo‘lishi, o‘qituvchining o‘z ish faoliyatini yangi uslub va usullar asosida tashkil etishga yondashuvlar bilan bevosita izohlash mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ko‘pgina predmetlari uchun multimedia vositalari yaratilgan bo‘lib, endilikda o‘quv jarayonini kompyuterlashgan muhitda tashkil etishga bo‘lgan e’tibor ancha rivojlandi. O‘rgatuvchi-dasturiy vositalar hozirgi kunda ko‘pgina fanlarni qamrab olmoqda.

Elektron darsliklar bilan ishlash o‘quvchiga ancha qulaylik tug‘diradi, ya’ni ularda o‘quvchilar faoliyatini yo‘naltiruvchi, tizimga soluvchi ko‘rsatmalar va topshiriqlar mavjud, asosiysi bajargan harakatini to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi haqida darhol ma‘lumot oladi. Esda saqlab qolish maqsadida o‘qituvchi turli ma‘lumotlarni o‘zlashtirish haqida o‘quvchilarga tavsiyalar beradi, xotirani rivojlantirishni doimiy nazorat qilib turadi, uni takomillashtirishga yordam beradi. Elektron darslik yoki qo‘llanma bilan ishlash o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Akademik V.P.Bespalko pedagogik texnologiya turlari  8 (sakkiz) qismga bo‘ladi va ular orasida «kompyuter ta’limi» ni alohida sanab o‘tadi. Shuningdek, loyihalar asosida oldindan tayyorlangan «dasturiy ta’lim» ham alohida e‘tirof etilgan. Mazkur adabiyotda F.Ya.Savelev tomonidan taqdim etilgan texnologik ta’lim tasnifida esa 6 (olti)ga ajratilgan bo‘lib, texnik vositalardan foydalanish deb alohida ma’lumot berib o‘tilgan. Uning tarkibiga O‘TV, videotexnika va kompyuter texnologiyalari ham kiritilgan. Ta’lim tizimga pedagogik texnologiyaning kirib kelishi, u bilan birga kompyuter texnologiyalarini o‘quv jarayonidagi o‘rni va ahamiyatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi.

Tabiiy fanlardan o‘quvchining o‘rganishi lozim bo‘lgan ilk mavzulari umurtqasiz hayvonlar bilan bog‘liqligini hisobga olgan holda, yuqoridagi multimedia vositalaridan unumli foydalanish, ularning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ko‘pgina pedagog-o‘qituvchilarning multimedia dasturlarini dunyoni anglab yetishdagi bir vosita

ekanligini, aynan multimedia vositalarining rivojlanishi va undan faol foydalanishni yo‘lga qo‘yish maktabga yangicha ta’lim uslub va usullari, yangicha fikr va g‘oyalar kirib kelishi haqida fikr yuritishlariga sabab bo‘lmoqda.

Tabiiy fanlar darslarida kompyuter texnikasini joriy etish ko‘p jihatdan o‘qituvchining izlanuvchanligi va tashkilotchiligi bilan xarakterlanadi. Darsda har bir foydalaniladigan o‘quv materiallari o‘quvchini mavzuni o‘zlashtirishiga o‘z hissasini qo‘shishi lozim. Endilikda ta’lim jarayonida o‘quv fanlaridan multimedia vositalaridan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayapti. Multimedia vositalari kompyuter yordamida o‘rganilayotgan mavzularni tez va oson o‘zlashtirishga yordam beradi.

Multimedia vositalari kompyuter yordamida o‘rganilayotgan mavzularni tez va oson o‘zlashtirishga yordam beribgina qolmasdan, balki o‘qituvchiga ko‘plab imkoniyatlar yaratib berishi bilan ajralib turadi.

Multimediali jihozlardan foydalanishda o‘quvchi hayvonning ovozini, uni tabiiy harakatlarini, o‘ziga xos xarakterli belgilarini o‘rganib boradi. Multimediali vositalarda hayvonlarning skelet suyaklari va muskullari nomlari giperssilka holatida dasturlashtiriladi. (Tasvirdagi rasmlarning raqamlar bilan mutanosib joylashishi o‘quvchiga murakkab atamalarni oson o‘zlashtirishga va yodda saqlab qolishga yordam beradi).

Multimedialarning o‘quv jarayonidagi muhim ahamiyatli belgilariga quyidagilarni kiritish o‘rinli bo‘ladi:

– namoyish etilayotgan ma’lumotning ko‘rgazmaliligi (xar xil ranglardan, illyustratsiya, tovush, video, animatsiya va boshqa elementlardan foydalanish);

– teskari tez aloqa (materiallarni o‘zlashtirishda o‘rnatilgan test-tizimlari tezkor nazoratni ta‘minlaydi);

– interafaol tartib o‘quvchiga o‘quv materiallarini tez o‘zlashtirishda o‘z-o‘zini nazorat qilishga o‘rgatadi;

– doimiy ravishda o‘quv qo‘llanmalarini to‘g‘rilab borish va yangi ma’lumotlar bilan boyitib borishni ta‘minlaydi (elektron o‘quv qo‘llanmadagi eski ma’lumotlar o‘rnini yangilari bilan almashtirish yoki ularni o‘zgartirish kelajakda foydalanuvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun amalga oshiriladi).

Tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida ETRlardan foydalanish o‘qituvchining ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni unumli yechimini topilishini ta’minlaydi:

1. Murakkab o‘zlashtiriladigan bilimni bayon etish, ya’ni organizmning tashqi va ichki muhitida sodir bo‘layotgan jarayonlar bilan tanishish, ularni bevosita

kuzatish imkoniyati bo‘lmagan holatlarni monitor orqali o‘rganish va tahlil qilishda qo‘llaniladi;

2. Hayvon organizmida organlarning joylashishi va ularning vazifasini o‘rganish o‘ziga xos usulda tashkil etiladi;

3. Hayvonlarning yashash tarzi, tabiatda tarqalishi, ko‘payishi va rivojlanishi va ularning xilma-xilligi haqidagi mavzularga qo‘shimcha shakldagi ilmiy-ommabop filmlar qisqa hajmli materiallarni namoyish etilishi o‘quvchini bevosita tabiat bilan uzviy aloqada ekanligini, uni asrash va parvarishlash zarurligi haqidagi tarbiyaviy tushunchalarni shakllantiradi;

4. O‘quvchini mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot ishida biologiya (zoologiya) va o‘simliklar fiziologiyasi fanlaridagi murakkab biologik jarayonlarni kompyuter vositasida tashkil etish va bevosita mavzularning ta’sir doirasini kengaytirishga erishish mumkin ekanligi tajriba-sinov ishlarida o‘z tasdig‘ini topgan.

Masalan, tabiiy fanlardan hayvonlarning harakatlanishi (qimirlashi, yurishi, sudralishi, sakrashi, uchishi, qo‘nishi, suzishi va h.k.), oziqlanishi va unda ishtirok etuvchi organlar, hayvonot dunyosining yashash tarzi (hayvonlarning tog‘da, suvda, quruqlikda, issiq va sovuq mamlakatlardagi yashash sharoiti va h.k.) kabi jarayonlar multimedia shaklida o‘quvchilarga namoyish etilishi o‘quvchilarga yangi mavzuni tez va oson o‘zlashtirishga yordam beradi. Bunda o‘quvchilar jarayonni o‘zlari ishtirok etayotganday aniq qabul qiladilar. Multimedialardan foydalanishda obyektlarni takror ko‘rish imkoniyatlari borligi bilan an’anaviy ta’limdagi didaktik materiallardan anchagina farq qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari tabiiy fanlar o‘quv dasturidagi o‘rganilayotgan mavzu uchun: kelib chiqishi va embrional rivojlanishi, ularning asosiy turlarini aks ettiruvchi rasmlar, sut emizuvchilar skeleti, mulyaji, tulumlari kolleksiyasi, uy hayvonlari zotlarini aks ettiruvchi rasmlar va slaydlar, yovvoyi sut emizuvchilar hayotiga bag‘ishlangan kinolavhalar va boshqalar tavsiya etiladi.

Tabiiy fanlar darslarida multimedia vositalaridan foydalanish va ularni o‘quv jarayoniga joriy etish o‘ziga xos yangi usulni vujudga keltiradi. Ularni o‘quv materiallarini texnologik reja asosida amalga oshirish, bosqichma-bosqich o‘quv materiallari bazasi ortib borishi, ko‘rgazmalik sifat ko‘rsakichlarini yuqori bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, dars davomida yangi mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bilim samarasi nazorat qilinadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tabiiy fanlari samaradorligini oshirishda

taqdimot dasturlaridan foydalanishda uning yana bir muhim tomoniga e'tibor qaratish lozim. Ma'lumki tabiiy fanlardan o'zlashtirish qiyin bo'lgan mavzular mavjud bo'lib, ularni sinfda har bir o'quvchi bir vaqtda va oson o'zlashtira oladi desak, qattiq yanglishamiz.chunki o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga oladigan bo'lsak, mavzularni o'zlashtirish o'qitishning defferensiyalashgan ta'lim usullaridan unumli foydalanish imkoniyatlariga tayanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Хушвақтов Т.С. ва бошқалар. Таълим технологияларидан ўқув жараёнида фойдаланиш назарияси ва амалиёти. Ўқув-услубий қўлланма / -Т.: Янги нашр. 2018. 104 бет.
2. Цой М.Н. Педагогические условия создания электронного учебника для общеобразовательных школ (на примере математики VI класса).: Автореф. дисс. … канд. пед. наук. - Ташкент.: УзНИИПН, 2006. - 24 с.
3. Kharakhonova L.M. Electronic educational resources and biology educational process efficiency in general educational schools // Eastern European Scientific jornal. Ausgabe 5-2018. 273-275.
4. Карахонова Л.М. Разработка и внедрение цифровых ресурсов в непрерывном образовании // Узлуксиз таълим. -Тошкент, № 6. 2018. 59-62.
5. Қарахонова Л.М. Биологиядан электрон таълимий ресурслардан фойдаланиш имкониятлари // Гармонично развитое поколение – условие стабильного развития Республики Узбекистан/ Сборник научно-методических статей. УзНИИПН. 2019. Часть 3. -С. 512-514.

# ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРНЫХ РАБОТ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ

***Ф.ГАИБНАЗАРОВА,***
*доцент кафедры Биологии*
*Гулистанского государственного университета*

*В статье выделяются и описываются характерные особенности проведения лабораторных занятий по школьному курсу биологии путем включения работы с определителями для активизации познавательной деятельности, развития самостоятельности, ответственности ученика.*

***Ключевые слова:*** *интернет, урок, общеобразовательной школы, интерактив, доска, мультимедиа, лаборатория, фронтал, виртуал.*

*The article highlights and describes the characteristic features of conducting laboratory classes in the school biology course by including work with determinants to activate cognitive activity, develop independence and responsibility of the student.*

***Key words:*** *Internet, lesson, comprehensive school, interactive, board, multimedia, laboratory, frontal, virtual.*

В условиях внедрения электронного образования в общеобразовательные школы Узбекистана, все более актуальным становится вопрос использования ИКТ и интернет-ресурсов на уроках биологии. Современные уроки значительно отличаются разнообразием форм и методов преподавания. Возможности ИКТ реализуются на всех этапах урока по биологии. Сегодня я уделю внимание использованию виртуальных лабораторных работ на уроках биологии.

В самом простом понимании биология – наука о жизни и развитии живых тел. Изучение в школе предмета «Биология» только на вербальном уровне не создает правильного представления об изучаемых объектах и явлениях. Поэтому главной задачей учителей биологии является разумное использование в учебном процессе наглядных средств обучения.

В обычных условиях мы не всегда можем наблюдать некоторые биологические явления (например, фотосинтез, синтез белка, репликация, прорастание семени и т.д.) и проводить определенные опыты (наблюдение за размножением и питанием инфузории туфельки, изменение окраса животных и т.д.). Здесь очень удобно применять именно виртуальные лабораторные работы, которые открывают перед учителем и учащимся массу возможностей. Работа в сети интернет или с заранее подготовленными программами позволяет не только сформировать, но и закрепить знания, умения и навыки учащихся.

Исходя из обеспечения общеобразовательной школы вычислительной техникой, есть возможность в двух вариантах использовать виртуальные лаборатории:

1.В кабинете есть один персональный компьютер, на котором установлен компьютерный курс, использующийся в демонстрационном режиме.

2.Урок проводится в мультимедийном кабинете с использованием локальной версии компьютерного курса.

Чаще мной используется первый вариант работы, так как не всегда есть возможность работы в мультимедийном кабинете. У детей есть возможность работы с интерактивной доской по очереди для проведения лабораторных опытов или для выполнения проверочных работ.

При работе в мультимедийном кабинете учащиеся работают индивидуально или в мини-группах, что позволяет самостоятельно выполнять работу и формулировать вывод.

Однако работа с виртуальной лабораторной работой не всегда способна сформировать необходимые навыки. Во время работы с компьютером ученик работает только с мышкой, отрабатывая только алгоритм работы и навыки обращения с техникой, а работая вживую при приготовлении микропрепарата, работой с микроскопом, лупой и другим оборудованием формируются совсем другие навыки. Все это следует учитывать при планировании лабораторных работ.

Таким образом, я выделяю классификацию форм урочного использования виртуальных лабораторных работ:

– демонстрационное (перед реальной работой) использование:

– показать фронтально, с большого экрана или через мультимедийный проектор, последовательность действий реальной работы;

– обобщающее (после реальной работы) использование:

– во фронтальном (демонстрация, уточнение вопросов, формулирование выводов и закрепление рассмотренного) или индивидуальном (математическая сторона экспериментов, анализ графиков и цифровых значений, изучение модели как способа отражения и представления реальности) режимах;

– экспериментальное (вместо реальной работы) использование:

– индивидуальное (в малых группах) выполнение заданий в виртуальной лаборатории без выполнения реальной работы, компьютерный эксперимент.

Как и в реальной лабораторной работе, в виртуальной необходимо учить навыкам исследования: – выдвижению гипотез и их проверке, – стандартизации условий, – четкому фиксированию условий и результатов эксперимен-

тов (сначала в заготовленных учителем таблицах, печатных или электронных), – выбирать критерии, формат представления результатов, а затем и планировать, наконец, самостоятельную исследовательскую работу.

Электронные учебные здания, используемые на уроках:

1. Флеш - анимации и интерактивные задания.

2. Интернет ресурсы:

– www.virtulab.net

– http://files.school-collection.edu.ru/dlrstore/052e6bd6-0b80-46cd-88a3-7624fb79ad83/ResFile.SWF

–http://oadk.at.ua/load/biologija interaktivnye_video_labora-tornye_biologija/78.

– http://mirbiologii.ru/

– http://fullbiology.ucoz.ru/load/flash_animacija/sbornik_flash_animacii_po_obshhej_biologii/35-1-0-48

– http://tana.ucoz.ru/

Компьютерные модели легко вписываются в урок и позволяют организовать новые нетрадиционные виды учебной деятельности учащихся.

Внедрение в учебный процесс ИКТ изменяет методы преподавания, делает обучение более содержательным и зрелищным. Обучение становится более активным, это позволяет заинтересовать слабоуспевающих учеников, а для сильных – придать процессу обучения характер исследования, а также активизировать процесс контроля усвоения материала.

Во внеклассной работе применение виртуальных лаборатории помогает проводит интересные лабораторные занятия, а затем на практике проверить виртуальные исследования.

Внедрение виртуальных лабораторных работ мною только начинают внедряться, а значит, есть еще много задач, которые предстоит решить.

**Исползованная литература:**

1. A.Zikiriyayev, A.Toxtayev, I.Azimov, N.Sonin. 9-sinf «Biologiya (sitologiya vagenetika asoslari)» «Yangiyo‘l poligraf servis» 2019.

2. A. G‘afurov, A. Abdukarimov, J. Tolipova, O.Ishankulov, M. Umaraliyeva, I. Abduraxmonova.,10-sinf «Biologiya». Sharq 2017.

3. A.Sattorov, AL va KHK «Informatika va axborot texnologiyalari». «O‘qituv chi» 2013.

4. R.Boqiyev., AL va KHK «Informatika». «Fan va texnologiya». 2012.

5. F.Umarova, A.Ubbiyeva, F.Gaibnazarova, N.Jo‘rayev «O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim. «Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun o'quv modullari. 2- modul, 2-nashr. T., «Bekinmachoq-plyus».2013

# UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI O‘QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH

**F.E.BOQIYEV,**
*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi(DSc)*

*Maqolada O‘zbekistonning bugungi «Yangi O‘zbekiston - yangicha dunyoqarash» davlat siyosati doirasida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarida milliy vatanparvarlik ruhini tarbiyalash masalasi muhokama qilingan. Ushbu maqsadga erishish zamonaviy o‘qituvchilar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Maqola doirasida aynan vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning asosiy vositalari haqida fikr yuritilib, bu jarayonning pedagogik ahamiyati va amaliyotda qo‘llanilishi ko‘rib chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Intellektual shakllanishi, jismoniy va axloqiy rivojlanishi, Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi, fuqarolik-vatanparvarlik.*

*The article discusses the issue of raising the spirit of national patriotism in students of general secondary educational institutions within the framework of the current state policy of Uzbekistan "New Uzbekistan - a new worldview". Achieving this goal places great responsibility on modern teachers. Within the framework of the article, the main means of forming a sense of patriotism were discussed, the pedagogical importance of this process and its application in practice were considered.*

***Key words:*** *Intellectual formation, physical and moral development, the purpose of patriotic education, citizenship-patriotism.*

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini tarbiyalash odatda ko‘p qirrali jarayonlardan biri hisoblanadi. Shu singari ta’limni ustuvor yo‘nalishlari asosan bolalarning jismoniy va axloqiy rivojlanishi; intellektual shakllanishi; shaxsiy madaniyati va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish; huquqiy va vatanparvarlikni yuksaltirish; estetik va mehnat tarbiyasini amalaga oshirish; o‘quvchilarda mustaqil hayotiy rejalarini shakllantirish, oilaviy hayotga tayyorgarliknni olib borish zaruriyatidir.

Vatan va vatanparvarlik tarbiyasi haqida tushuncha, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini vatanpavarlik ruhida tarbiyalashning milliy, tarixiy asoslari.Vatanparvarlik tuyg‘usi kishining o‘z Vatani va uning tabiatiga, xalqiga, xalqining o‘tmishdagi va hozirgi qahramonligiga, tili va san‘atiga bo‘lgan otashin muhabbatini ifodalaydi. Qadim zamonlardan buyon xalqning o‘z Vataniga muhabbati qo‘shiqlarda, ertaklarda va sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlarida tarannum etib kelinadi. Vatanga muhabbat tuyg‘usi insonlarni har doim mehnat qahramonligiga, xalqning baxt- saodati uchun kurashga undaydi.

Vatanparvarlik - bu o‘z vatanini sevish, uning farovonligi va ravnaqi uchun mehnat qilish, uni himoya qilish va rivojlantirishga intilish hissi. Bu insonning vataniga bo‘lgan sadoqati, tarixiy merosiga hurmati va madaniy qadriyatlarini ardoqlashi bilan bog‘liq yuksak ma‘naviy fazilatdir.

Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi - jamiyatda yuqori ijtimoiy faollik, fuqarolik javobgarligi, ma‘naviyatni rivojlantirish, davlatni mustahkamlash, uning manfaatlarini va rivojlanishini ta‘minlashdir. Maqsadga erishishda quyidagilarning rivojlanishi orqali vazifalar amalga oshiriladi: Fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va jamoaviy hayot normalariga hurmat ruhida tarbiyalashdir. Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va uning burchlari amalga oshirilishini ta‘minlash uchun sharoit yaratish ham shu jumladandir. O‘zbekiston Respublikasining ramzlari - gerb, bayroq, madhiya va Vatanning tarixiy yodgorliklariga g‘urur, chuqur hurmat va ehtirom hissini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Vatanparvarlik tarbiyasi tamoyillari: O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga barcha davlat va jamoat tuzilmalarining yo‘naltirilgan ishini o‘z ichiga olgan tizimli-tashkiliy yondashuv printsipi hamdir. Bolalar tarbiyasida asosan yosh hususiyatini hisobga olgan holda vatanparvarlikni shakllantirishda maqsadli yondashuv printsipiga amala qilish kerak. Davlatimizning milliy manfaatlariga qaratilgan dunyoqarashni, fuqarolik qadriyatlarini shakllantirishni ta‘minlaydigan faoliyatga qaratiladi. Yagona va yaxlit yondashuvni hisobga olgan holda vatanparvarlikning asosiy yo‘nalishlarining universallik printsipi, ota-bobolariga, kundalik hayotda urf-odatlarga bo‘lgan g‘ururni o‘stirishdir. O‘tgan ajdodlarning ijtimoiy qimmatli tajribasidan foydalanib oilaviy munosabatlar, o‘qish va ishlashga yondashuvlar, ijodiy harakatlar uyushtirish qulay imkoniyatlarni yaratadi. Vatanparvarlik g‘oyalarini va qadriyatlarini targ‘ib qilishda mintaqaviy sharoitlarni hisobga olish nafaqat butun o‘zbek vatanparvarligida, balki mahalliy qadriyatlar, mehr-muhabbat, o‘z Vataniga, shahariga, ko‘chasiga, maktabiga va boshqalarga xos yoqtirish xususiyatlari bilan ham ajralib turadi.

Vatanparvarlik tarbiyasi tamoyillari jamiyatning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi va ayniqsa yosh avlodni tarbiyalashda asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tamoyillari quyidagi asosiy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi:

Tizimli-tashkiliy yondashuv printsipi: Bu tamoyil davlat va jamoat tuzilmalarining hamkorlikda ishlashini ta‘minlashga asoslanadi. Ushbu printsipga ko‘ra, vatanparvarlik ruhidagi tarbiya yagona tizim sifatida tashkil etilib, davlat organlari, ta‘lim muassasalari, oilalar va jamoat tashkilotlari birgalikda faoliyat yuritadi. Bu yondashuv yoshlarning turli bosqichlarda vatanparvarlik ko‘nikmalarini o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Maqsadli yondashuv printsipi: Yoshlarning psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda tarbiyaviy tadbirlar tashkil etiladi. Ushbu printsipga muvofiq, maktabgacha ta'limdan boshlab o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos maqsadli dasturlar ishlab chiqiladi. Masalan, bolalarda ona yurti bilan faxrlanish hissini shakllantirish va mustaqil davlatning fuqarosi bo'lish mas'uliyatini his qildirish uchun maxsus metodik materiallar va amaliy mashg'ulotlar qo'llaniladi.

Integratsion yondashuv printsipi: Vatanparvarlik tarbiyasi boshqa tarbiyaviy yo'nalishlar bilan birlashtirilgan holda amalga oshiriladi. Masalan, tarixiy bilimlarni o'rgatish orqali milliy meros va madaniyatga hurmat shakllantiriladi, jismoniy tarbiya orqali ona yurt himoyasiga tayyor bo'lishga rag'batlantiriladi.

Amaliy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv printsipi: Vatanparvarlik hissini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan birga, amaliy faoliyatning roli katta. Bu o'quvchilarning o'z yurtining iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiruvchi loyihalar, tadbirlar va harakatlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy-hissiy yondashuv printsipi: Vatanparvarlikni shakllantirishda o'quvchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi vositalardan foydalanish zarur. Bu, masalan, vatan haqidagi qo'shiqlar, badiiy filmlar, adabiyotlar va teatr asarlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Ushbu tamoyillarni izchil va samarali qo'llash orqali yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning jamiyatda faol va mas'uliyatli fuqarolarga aylanishini ta'minlash mumkin.

Vatanparvarlikni asosan ushbu tamoyillarga o'zaro bog'liq holda va jamoa birdamligida amalga oshiriladi. Ammo fuqarolikka - vatanparvarlik tarbiyasini faqat bilimga asoslangan yondashuv yordamida emas balki hissiy ko'nikmalar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bugungi kunda fuqarolik tarbiyasi, ayniqsa vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, shakllari va usullari ijtimoiy-pedagogik voqelikka mos ravishda amalga oshirilmoqda. Vatanparvarlik, nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham muhim o'rin tutadi, va uning faol komponenti - fuqarolik ongini shakllantirishga ehtiyoj sezilmoqda. Bu jarayon, ta'lim tizimi orqali, o'quvchilarning nafaqat akademik bilimlari, balki ijtimoiy mas'uliyat, etika, vataniga bo'lgan hurmat va sevgi kabi jihatlarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quv faoliyatini samarali amalga oshirishda o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagi pedagogik yondashuvlarni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir:

1. Individual yondashuv: Har bir o'quvchining shaxsiy qobiliyatlarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, vatanparvarlik tarbiyasini individual tarzda olib borish. Bu o'quvchining ota-onasi, yashash muhiti va o'rganish muhitiga qarab turli pedagogik uslublarni qo'llashni anglatadi.

2. Faol va interaktiv usullar: O‘quvchilarga vatanparvarlikni faqat nazariy ma‘lumotlar orqali emas, balki turli interaktiv usullar orqali, masalan, guruhli ishlar, munozaralar, loyihalar va ekskursiyalar orqali o‘rgatish. Bu, o‘quvchilarda muloqot qilish, fikrlash va o‘z fikrlarini erkin ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Konspektiv va emotsional yondashuv: Vatanparvarlikni faqat intellektual emas, balki emotsional nuqtai nazardan ham rivojlantirish zarur. Bu o‘quvchilarda vataniga, millatiga bo‘lgan muhabbatni mustahkamlash, o‘zgalar hurmatini shakllantirishda yordam beradi.

4. Tarixiy kontekstni o‘rganish: O‘quvchilarga o‘z vatanining tarixi, madaniy merosi, etnik va milliy qadriyatlarini o‘rgatish. Tarixiy xotira, mustaqillik, ajdodlar mehnati va yutuqlarini o‘rganish orqali vatanparvarlikni mustahkamlash.

5. O‘quvchilarni faol ishtirokchiga aylantirish: O‘quvchilarni ijtimoiy faoliyatlarga jalb qilish, ularni vatanparvarlik tadbirlarida ishtirok etishga, ijtimoiy mas‘uliyatni his qilishga undash. Bu, o‘quvchilarga o‘z vataniga bo‘lgan mas‘uliyatini anglash imkoniyatini beradi.

6. Ko‘zlangan maqsadlar bilan bog‘liq motivatsiyani yaratish: O‘quvchilarda vatanparvarlikni tarbiyalashda maqsadga yo‘naltirilgan motivatsiya yaratish zarur. Bu, ularning o‘z maqsadlariga erishish uchun o‘zining ijtimoiy va milliy mas‘uliyatini tushunishga yordam beradi.

7. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini oshirish: O‘qituvchilarni vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha treninglar va metodik maslahatlar bilan ta‘minlash, ularning pedagogik usullarini takomillashtirish. O‘qituvchining kasbiy yuksalishi o‘quvchilarga ta‘lim berish sifatini oshiradi.

Bu yondashuvlar o‘quvchilarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda samarali bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi tushunchalardan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida fuqarolik, ya‘ni Vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish dolzarb masala bo‘lib, ayniqsa maktab va sinfdan tashqari faoliyatlar orqali buni rivojlantirish zarurati sezilmoqda. Bu masala ta‘lim jarayonining turli jihatlarini o‘z ichiga oladi, shu jumladan o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, vataniga bo‘lgan hurmatni oshirishga, milliy qadriyatlarni hurmat qilishga va jamiyatga faol qatnashishga o‘rgatish.

Maktabda sinfdan tashqari vaqtni samarali tashkil etish, Vatanparvarlik tarbiyasini mustahkamlashda muhim vosita bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarni turli mavzularda ijtimoiy va madaniy faoliyatlarga jalb qilish, ularni tarix, san‘at va adabiyot kabi fanlarda milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, shuningdek, turli ko‘ngilochar va ilmiy o‘yinlar orqali fuqarolik mas‘uliyatini o‘rgatish mumkin.

Sinfdan tashqari faoliyatlarni amalga oshirishda, masalan, turli jamiyat va madaniyat tadbirlari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, yoshlar uchun ko‘nikmalarni

rivojlantirishga qaratilgan treninglar va simulyatsiyalar fuqarolik tarbiyasini samarali shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, bu faoliyatlar orqali o'quvchilarni jamiyatdagi o'z o'rnini topish, ijtimoiy mas'uliyatni anglash, va vatanparvarlik hissini kuchaytirishga undash mumkin.

Vatanparvarlik tarbiyasi shakllari va usullari faol fuqarolikni, Vatanga, Jonajon O'zbkistonga va ularning kichik go'shalariga muhabbat tuyg'ularini shakllantirilishiga qaratilishi kerak. Fuqarolik-vatanparvarlik ta'limining bunday shakllari maktab o'quvchilarini tarbiya fani va tarix fanilarida mustaqil izlanish ishlariga jalb qilishni o'z ichiga oladi. Maktabning ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida ishtirok etish, tarixiy yodgorliklarni bilish va saqlash, himoya qilish bo'yicha o'z o'rnini egallash ham muxim hususiyatdir. Vatanparvarlik mavzularida davra suxbati kunlari, tanlovlar, ko'rgazmalar o'tkazish qatorida g'oliblarni taqdirlash lozim. Jumladan ulug' Vatan urushi faxriylarini, mehnat fronti vakillari bilan mazmunli uchrashuvlarni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bu jarayon o'quvchilarda milliy vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar, Vatan va uning tinchligi uchun mas'uliyatni his etib, shaxsiy rivojlanishlarida milliy iftixor va g'urur hissini shakllantiradilar. Shuningdek, Prezidentning rahbarligida yurtning barqaror rivojlanishini, jamiyatning tinchligi va farovonligini ta'minlash yo'lidagi faoliyatni o'rganish orqali o'zlarining ijtimoiy mas'uliyatlarini chuqur anglaydilar. Bu jarayon nafaqat shaxsiy yuksalish, balki milliy qadriyatlarni hurmat qilish, jamoaviy va ijtimoiy ongni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi, 11.01.2018-yil.
2. Astanova S., GulDU o'qituvchisi, ?Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish omillari, Referat. www.arxiv.uz
3. Sh Jo'rayev, Yoshlarni Harbiy Vatanparvarlik Ruhida Tarbiyalashning Ustuvor Vazifalari. // Academic Research In Educational Sciences. 2020. 1083-b.
4. A.R.Raxmonov Uzluksiz ta?lim tizimida milliy iftixor tuyg?usini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida "Uzluksiz ta?lim" ilmiy uslubiy jurnal //2020- Toshkent.
5. Дополнительное образование детей: учебник для студ. пед. училищ и колледжей /Е.Б. Евладова, Л.Г. Логинова, Н.М. Михайлова. - М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2004. С.46-47

# O‘QITUVCHI MUOMALA MADANIYATINING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

***N.Y.TADJIYEVA,***
*Urganch davlat universiteti*
*2-bosqich tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada o‘qituvchi muomala madaniyatining pedagogik ahamiyati, o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi muomala madaniyatining pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek pedagogik ta’lim jarayonida o‘qituvchilarda ham o‘quvchilarda ham muomala madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan. O‘qituvchi muomala madaniyatining tarbiyaviy, axloqiy jihatlari ta’lim oluvchilar uchun ahamiyatli ekanligi asoslanadi. O‘qituvchi muomala madaniyati pedagogik etiketining tarkibiy tuzilishi izohlanadi.*

***Tayanch so‘zlar:*** *bo‘lajak o‘qituvchi, o‘quvchi, muomala madaniyati, muloqot, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv materiali, muomala qoidalariga amal qilish.*

*В данной статье приводится информация о педагогическом значении культуры общения учителя, педагогико-психологических особенностях культуры общения между учителем и учеником. Также рассмотрены научно-педагогические направления развития культуры общения как у учителей, так и у учащихся в процессе педагогического образования. Обосновано, что воспитательные, нравственные аспекты культуры общения учителя важны для обучающихся. Объясняется структура педагогического этикета культуры общения учителя.*

***Ключевые слова:*** *будущий учитель, ученик, культура общения, общение, формирование коммуникативных навыков, учебный материал, соблюдение правил общения.*

*This article provides information on the pedagogical significance of a teacher‘s communication culture and the pedagogical and psychological aspects of communication culture between teachers and students. It also examines the scientific and pedagogical approaches to developing communication culture in both teachers and students during the process of pedagogical education. The article substantiates that the educational and moral aspects of a teacher‘s communication culture are important for students. Additionally, it explains the structure of pedagogical etiquette within a teacher‘s communication culture.*

***Key words:*** *future teacher, student, communication culture, communication, formation of communication skills, educational material, adherence to communication rules.*

Muomala madaniyati o‘ziga xos qoidalarga amal qilishni talab etadi. Bu qoidalar fikr bayon qiluvchi va bayon qiluvchi uchun alohida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu qoidalar muayyan me’yoriy-axloqiy funksiyalarga ega. Shuning uchun ham ular muloqot jarayoning ma‘naviy-psixologik sifatini belgilaydi. Biz

quyida xuddi mana shu qoidalar haqida fikr yuritamiz. Ushbu qoidalarga birinchi navbatda, o‘qituvchilar qat’iy rioya qilishlari hamda o‘z o‘quvchilari bilan muloqot jarayonida mazkur qoidalar bilan bog‘liq talablarga tayanishlari lozim.

O‘qituvchi o‘z fikrini bayon qilish jarayonida amal qilishi zarur bo‘lgan jihatlar:

– dialog jarayoni subyektlari bo‘lgan o‘quvchilarga do‘stona munosabatda bo‘lishi, o‘quvchi shaxsiga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lmasligi, ularni salbiy, axloqqa zid so‘zlar bilan haqorat qilmasligi;

– o‘qituvchi qaysi o‘quvchi bilan muloqotga kirishayotganligini bilishi, uning ism, sharifini aniq aytib murojaat qilishi;

– o‘qituvchilar suhbat mavzusini maqsadga muvofiq tarzda tanlay olishlari, suhbat mavzusi har doim o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishiga e’tibor qaratishi;

– o‘qituvchi o‘zligidan tashqariga chiqib ketmasligi, o‘ziga-o‘zi va o‘quvchilariga hurmat nazarida qarashi, o‘z shaxsi va o‘zining boshqalarga bergan bahosini o‘quvchilarning diqqat markaziga qo‘ymasligi, balki o‘quvchilarning shaxsiy sifatlaridan xabardorligini namoyon eta olishi, o‘quvchilarda dialog jarayoni va unda ko‘tarilgan muammoga nisbatan qiziqish uyg‘ota olishi;

– dialogni jarayon ishtirokchilariga savol berish bilan boshlamasligi, dialog jarayonida o‘quvchilarning farqli jihatlarini anglagan holda ular bilan muloqotga kirishishi, dialog jarayonida qaysi yo‘nalishlarda o‘quvchilar bilan muloqot o‘rnatishini ta‘kidlashi;

– dialog jarayonida ahamiyatli bo‘lgan holatlarni o‘quvchilar ongiga yetkaza olishi, alohida o‘quvchilarning yetukligini tan olish layoqatini namoyon qilishi, buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar muomala madaniyatiga oid qoidalari puxta o‘zalshtirishlari va kasbiy kompetensiyasi tarkibiga singdirishlari talab qilinadi.

O‘quvchilar uchun o‘qituvchi quyidagilarga erishishi lozim:

– o‘qituvchini diqqat bilan tinglashlariga erishish, faoliyatining boshqa turlariga nisbatan tinglab tusgunishning ustuvor o‘rin egallashiga o‘quvchilarni ishontira olishi;

– o‘quvchilar o‘qituvchini xayrixohlik va toqat bilan tinglay olishlarini ta’minlashi. Buning uchun o‘quvchilarning ishonchini qozona olishi, o‘qituvchi o‘quvchilarni to‘liq tinglagandan keyin yakuniy xulosa chiqarishi;

– dialog jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning fikrlarini bo‘lmasligi, o‘quvchilar o‘z fikrlarini bayon qilayotganida o‘qituvchi turli so‘zlarni qo‘shib, ularga xalaqit bermasligi, o‘qituvchi axborotlarni taqdim etishdan ko‘ra, shundan ko‘ra shunday axborotlarni o‘quvchilardan kutishi kabilar.

Dialog jarayoni ishtirokchilari uchun ham bir qator talablar qo‘yiladi. Ular:

– dialog jarayoni ishtirokchilari bo‘lgan o‘quvchilar o‘z sinfdoshlaridan birortasini muloqot jarayoniga jalb etmasalar axloqiy jihatdan bo‘shliq vujudga

keladi. Bu jarayonda o'qituvchilarda ham o'quvchilarda ham muomala madaniyatining yetishmaganligi kuzatiladi. Natijada dialog vaziyatiga kirishmay qolgan o'quvchining yuz ifodasida sinfdohslari bilan amalga oshiriladigan suhbatlar, bahs munozaralarga bo'lgan qiziqishning yo'qolganligi namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda bunday o'quvchilar keyinchalik o'z-o'zlarini yolg'izlata boshlaydilar;

– agar o'qituvchi bilan o'quvchi yoki o'quvchi bilan o'quvchi orasida amalga oshiriladigan dialog jarayoniga uchunchi o'quvchi jalb qilish zaruriyati vujudga kelsa, uni jalb qilish maqsadida u yoki bu shakldа murojaat qilinadi. O'qituvchi bunday imkoniyatdan foydalanib, dialog jarayoniga jalb etilishi nazarda tutilayotgan o'quvchiga bilvosita murojaat qilish usulidan foydalanishi lozim;

– agar dialog jarayoniga bironta o'quvchi beixtiyor jalb etilgan bo'lsa, barchani qiziqtiruvchi axborotlarni egallashi uchun o'qituvchi qulay sharoit yaratishi, unga murojaat qilishning samarali usullaridan foydalanishi talab qilinadi. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi suhbat jarayonidagi noaniqliklar, adashishlar, chekinishlarni bartaraf etish usullarini ham bilishi kerak.

O'qituvchi alohida bir o'quvchining tashabbusi asosida ham uni dialog jarayoniga jalb etishi lozim. Buning uchun o'qituvchi muomala madaniyati talablariga rioya qilgan holda o'quvchiga murojaat qilishi, uning emotsional sohasiga ta'sir ko'rsatuvchi so'z va iboralarni qo'llashi maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'qituvchi dialog jarayonida amalga oshiriladigan suhbatga to'sqinlik qiluvchi o'quvchilarga vaziyatni tushuntirish, ularning harakatlarini qo'yilgan maqsad sari yo'naltira olishi ham muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar bilan dastlab ularning bir-birlarini o'rganishlariga ko'maklashadigan mavzularida suhbatlashish maqsadga muvofiq. O'qituvchi ularga o'qigan kitoblari, sayohat qilgan shaharlari haqida suhbatlashish haqida topshiriq berishi mumkin. Bunday suhbatlar o'quvchilarda yangi fikrlar, muhokama qilinadigan mavzularning tug'ilishiga turtki berishi mumkin. Ayniqsa, 10-11-sinf o'quvchilarini ijtimoiy, huquqiy, siyosiy mavzudagi suhbatlar qiziqtiradi. Sinfdagi barcha o'quvchilarni dialog jarayoniga birday jalb etish o'qituvchildan kasbiy mahorat bilan bir qatorda muomala madaniyatiga rioya qilishni ham taqozo etadi. O'qituvchi mavzuni tanlash jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, dunyoqarashi, muloqotga kirishuvchanlik imkoniyatlarini ham hisobga ola bilishi talab etiladi.

O'qituvchi o'quvchilarni mavzu atrofida fikr yuritishga yo'naltira olishi ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi dialog jarayonida o'quvchilarda o'zao hamfikrlilik va pozitiv nuqtai nazarni shakllantira olishi ham alohida ahamiyatga ega. Aks holda, dialog jarayonida noqulay muhit vujudga keladi. O'qituvchi o'quvchilarning nutqini tanqid qilmasligi, balki, xushmuomalik bilan ularning xato va kamchiliklarini ko'rsata

olishi kerak. Aks holda, tanqid ularning kayfiyatini tushirib, o‘quvchidan uzoqlashish hissini shakllantirishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarni tanqid qilmaslik bilan bir qatorda, haddan ziyod maqtamasligi kerak. Balki, ularning fikrlarini ma‘qullagan holda qo‘llab-quvvatlashi, bu jarayonda ehtiyotkorlik va xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Dialog jarayoni ishtirokchilarining xulq-atvor qoidalari, o‘qituvchining esa muamala odobiga rioya qilishi suhbat jarayonida ehtiyotkorlik, nazokat bilan so‘zlashi talab qilinadi. Shuning uchun ham dialog jarayonida o‘quvchilarning ortiqcha qiziquvchanligiga yo‘l qo‘yilmaydi. O‘qituvchi esa ularga qo‘pollik bilan tanbeh bermasligi lozim.

O‘qituvchi har doim yumshoq va mehrli ovoz bilan muloqot o‘rnatishi, o‘quvchilarning kamchiliklarini tushuntirishi kerak. Bo‘lajak o‘qituvchilarda yoqimli tabassum, ko‘p qirrali ko‘z qarash, ikki xil ma‘noga ega replika, o‘quvchilarni cho‘chitib, o‘qituvchidan uzoqlashish, o‘z fikrini aniq bayon qila olmaslikka olib keladi.

O‘qituvchi imkon qadar o‘quvchilarga sezdirmagan holda dialogni qo‘yilgan maqsad sari yo‘naltira olishi kerak. Buning uchun u dialog jarayonini to‘liq nazorat qilishi hamda tortinchoq o‘quvchilarni faollashtirish usullarini qo‘llashi talab etiladi. O‘qituvchi imkon qadar kamroq so‘zlab, o‘quvchilarni muloqotga kengroq jalb qila olishi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarni muomala odobi doirasida tinglashi, ularning fikrlariga munosabat bildirishi muhim ahamiyatga ega. Biroq, ehtiyotsizlik bilan ularning fikrlarini bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi. U har doim o‘quvchilarning fikrlarini oxirigacha toqat bilan tinglashi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan yakkama-yakka suhbat qilganida ham ularning fikrlarini oxirigacha tinglashi alohida ahamiyatga ega. Agar o‘qituvchining so‘zi, fikrlari yoki baland ovozda o‘quvchilarni cho‘chitsa, u muloqot ohangini zudlik bilan o‘zgartirishi zarur. O‘quvchilar o‘z fikrlarini himoya qilib bahslashganda ham ularni toqat bilan tinglash o‘quvchining muomala madaniyatiga egaligini ko‘rsatadi. Biroq bunday bahslashuvlar sinfdagi o‘quvchilarning kayfiyatiga yomon ta’sir ko‘rsatmasligi, darsning borishiga halaqit bermasligiga yo‘l qo‘ymaslik talab qilinadi.

Agar o‘quvchining fikrlariga tuzatish kiritish lozim bo‘lsa buni nazokat va ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish talab etiladi. Mazkur vaziyatda o‘qituvchining so‘zlari o‘quvchiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish asosida bayon etilishi muhim ahamiyatga ega. U o‘z nutqini kechirasan, sen xatoga yo‘l qo‘ymading, har kim ham xato qiladi. Biroq, bunday yo‘l tutmaslik kerak iboralar bilan boshlashi talab etiladi. Agar o‘qituvchi o‘quvchining xatosini sezib qolsa, yumshoq ohangda, tovushini ko‘tarmasdan uni tuzatishga harakat qilishi muomala odobiga egaligidan dalolat beradi. Dialog vaziyatida o‘quvchining fikrini ehtiyotsizlik va qo‘pollik bilan tuzatish mumkin emas. Kuzatishlarimiz shuni

ko‘rsatdiki, ayrim o‘qituvchilar noto‘g‘ri, sen noto‘g‘ri fikrdasan, bu har bir sinfdoshingga besh qo‘lday ma‘lum, bekor aytibsan kabi iboralarni qo‘llaganliklariga guvoh bo‘ldik. Aynan shu fikrni o‘qituvchi ehtiyotkorlik va xushmuomalalik bilan bayon qilishi mumkin. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarni haqorat qilmaydi, balki, ularga o‘z so‘zlari bilan emotsional ta’sir ko‘rsatadi. «Kechirasan, bu masalada men sening fikringga qo‘shila olmayman», «Menimcha, sen nohaqsan», «Men boshqa fikrdaman» kabi. O‘qituvchining muomala madaniyatiga ega emasligi uning pedagogik jamoa orasida yakkalanib qolishiga sabab bo‘ladi. Chunki, o‘qituvchining qo‘polligi hamkasblari tomonidan haqorat sifatida qabul qilinadi. Chunki pedagogik jamoa a’zolari o‘z hamkasblarini mumomala-muloqot madaniyatiga egaligi uchun ko‘proq qadrlaydilar. Muomala madaniyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘z nutqida qo‘pol so‘z va iboralarni qo‘llamaydilar. Bunday o‘qituvchilar o‘zgalar oldida qasam ichmaydilar. Qo‘llagan so‘zlarining tartibini buzmaydi va mavhum fikrlarni bayon qilmaydi. So‘zlarni tushunarsiz tarzda talaffuz qilmaydi. O‘quvchilar va hamkasblari bilan muloqot jarayonida suhbatdoshini turtmasligi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Гусман-Симон, Ф., Торрес-Гордильо, Дж. Дж., Кабальеро, К. (2020). Понимание процессов оценки коммуникативной компетентности посредством анализа практики учителей. Образовательные науки, 10(4), 116; 1-17.

2. Safarova R.G. Computer-didactic support for the training of social sphere specialists at the university based on a cultural approach. International conference: Problems in the Textile and Light Industry in the Context of Integration of Science and Industry and Ways to Solve Them (PTLICISIWS-2022). 050009 Scopus, Web of Science indexed. http://pubs.aip.org/aip/acp

3. Safarova R.G. Computer-didactic support for the training of social sphere specialists at the university based on a cultural approach. International conference: Problems in the Textile and Light Industry in the Context of Integration of Science and Industry and Ways to Solve Them (PTLICISIWS-2022). 050009 Scopus, Web of Science indexed. http://pubs.aip.org/aip/acp

4. Tetiana Kachak, Tetyana Blyznyuk, Kateryna Fomin, Svitlana Yatsiv, Khrystyna Kachak, Nataliia Lytvyn (2023). Information And Communication Competence of Future Teachers in The Context of Studying the Humanities.Journal for Educators, Teachers and Trainers,Vol.14(4).95-111.

5. Чен, Р. Х. (2021). Развитие коммуникативной компетентности и коллективного мышления студентов на рабочем месте с помощью исследовательского учебного дизайна. Образовательные науки, 11(1), 17; 1-13.

# BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI MILLIY FOLKLOR QO‘SHIQLARI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

***G.S.KAXAROVA,***
*Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada milliy folklor qo‘shiqlaridan musiqa madaniyati darslarida foydalanish orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali usullari so‘z boradi. An‘anaviy xalq musiqasi madaniy meros, hikoya qilish usullari va hissiyotlarni ifodalash orqali o‘quvchilarning ijodkorligini oshirishda qanday kuchli vosita bo‘lib xizmat qilishi haqida o‘rganiladi. Maqolada turli yondashuvlar, jumladan, lirik mazmun tahlili, musiqiy tuzilma va qoliplarni o‘rganish, xalq qo‘shiqlarini ijodiy mashg‘ulotlar va mahorat darslariga integratsiyalash kabilar keltirilgan. Unda xalq qo‘shiqlarining ijodiy fikrlash va muammoni hal etish ko‘nikmalariga ta‘sirini ko‘rsatuvchi mavzulashtirilgan tadqiqotlar va amaliy misollar yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Milliy folklor qo‘shiqlari, ijodiy qobiliyat, madaniy meros, hikoya , musiqiy tuzilmalar, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari, san‘atdagi innovatsiyalar*

*В этой статье рассматриваются эффективные методы развития творческих способностей посредством взаимодействия с национальными фольклорными песнями. В ней подробно рассматривается, как традиционная народная музыка может служить мощным инструментом для повышения креативности людей путем использования культурного наследия, повествовательных техник и эмоционального выражения. В статье представлены различные подходы, включая анализ лирического содержания, изучение музыкальных структур и моделей, а также интеграцию народных песен в творческие упражнения и семинары. В ней освещаются тематические исследования и практические примеры, демонстрирующие влияние народных песен на творческое мышление и навыки решения проблем.*

***Ключевые слова:*** *Национальные народные песни, творчество, культурное наследие, сюжет, музыкальные структуры, навыки решения проблем, новаторство в искусстве.*

*This article explores effective methods for developing creative abilities through the engagement with national folklore songs. It delves into how traditional folk music can serve as a powerful tool for enhancing creativity in individuals by tapping into cultural heritage, narrative techniques, and emotional expression. The article presents various approaches, including the analysis of lyrical content, the study of musical structures and patterns, and the integration of folk songs into creative exercises and workshops. It highlights case studies and practical examples that demonstrate the impact of folk songs on creative thinking and problem-solving skills.*

***Key words:*** *national folk songs, creativity, cultural inheritance, plot, musical structure, problem-solving skills, innovation and art.*

Har bir jamiyat kelajak avlodni ma’naviy va intellektual jihatdan rivojlantirishga intiladi, chunki bolalar mamlakatning ertangi kuni, uning kelajagini shakllantiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Bu borada bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish alohida e‘tibor talab qiladi. Ijod insonning noyob fikrlash qobiliyati, yangi g‘oyalar yaratish va ularga ijodiy yondashish imkoniyatini beradi. Bolalar dunyosida esa ijodiy fikrlashni rivojlantirish tabiiy jarayon bo‘lib, bu jarayon asosan o‘yinga, qiziqish va ijodiy faoliyatga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, milliy bolalar folklor qo‘shiqlari bolalar ijodini rivojlantirish uchun noyob vositalardan biridir.Milliy bolalar folklor qo‘shiqlari har bir xalqning ma‘naviy madaniy merosi hisoblanadi. Ular asrlar davomida xalq og‘zaki ijodiyoti orqali saqlanib kelgan va hozirgi kunda ham bolalar tarbiyasida o‘z o‘rnini yo‘qotmagan. Ushbu qo‘shiqlar nafaqat musiqiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, ular bolalarning ruhiy holati, madaniy dunyoqarashi va ijodiy tafakkurini shakllantiradi. Qo‘shiqlar orqali bolalar o‘zlarining milliy an‘analari, xalq qadriyatlari bilan tanishadilar va shu orqali milliy o‘zlikni anglashlari shakllanadi.Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda texnologik rivojlanish va globallashuv jarayonlari bolalar tarbiyasida milliy an’ana va qadriyatlarning kamayishiga olib kelmoqda. Yangi texnologiyalar va xorijiy madaniyatlarning kuchli ta’siri ostida milliy musiqiy va madaniy merosdan foydalanish kamayib bormoqda. Ammo aynan milliy folklor qo‘shiqlari bu jarayonlarda muhim o‘rin tutib, bolalarga o‘z milliy madaniyatlari bilan bog‘lanish imkonini beradi. Ijodkorlikni takomillashtirishga va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida tadqiqotchilar turli manbalariga tobora ko‘proq murojaat qilmoqdalar. Tarixiy va madaniy ahamiyatga ega ana shunday manbalardan biri milliy xalq qo‘shiqlaridir. Jamiyatlarning madaniy tuzilishida chuqur ildiz otgan bu an‘anaviy musiqa shakllari ijodkorlik va badiiy ifodaning boy xazinasini taklif etadi. Ularning ijodkorlikni rivojlantirish salohiyati nafaqat madaniy ahamiyatiga asoslanadi, balki an’anaviy musiqa bilan o‘zaro ta’sir qilishning kognitiv va hissiy afzalliklarini ta’kidlaydigan empirik tadqiqotlar bilan ham qo‘llab-quvvatlanadi.

O‘zining betakror ohanglari, ritmlari va lirik mavzulari bilan ajralib turadigan folklor qo‘shiqlari ko‘pincha xalq donishmandligi va xalq ijodiy ruhiyatini o‘zida mujassam etadi. Xalqaro musiqa ta’limi jurnali (2022) tadqiqotiga ko‘ra, xalq musiqasini tinglash,kuylash ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy musiqa bilan muntazam shug‘ullanadigan ishtirokchilar shug‘ullanmaydiganlarga qaraganda

25% ko‘proq ijodiy samaradorlikni namoyish etishdi. Bunday xulosalar Milliy san’at jamg‘armasi (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari bilan yana ham mustahkamlandi, unda xalq musiqasi va rivoyatlarning hikoya tuzilmalari ijodiy rivojlanish uchun muhim bo‘lgan kognitiv jarayonlarni rag‘batlantirishi ta‘kidlanadi. Xalq qo‘shiqlarining asrlar davomida xalq hayot tajribalari asosida shakllangan tuzilmalari insonlar o‘z ijodini kashf etishi va ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishi uchun o‘ziga xos vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Maktab yoshida ijodiy individuallikni shakllantirish shaxsni yanada to‘liq rivojlantirishning muhim shartidir. Ijodga doimiy va ongli ravishda qiziqib, ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxs, hayotning o‘zgaruvchan sharoitlari va talablariga yanada muvaffaqiyatli moslasha oladi, o‘ziga xos individual faoliyat uslubini osongina yaratadi va o‘zini o‘zi takomillash-tirish va tarbiyalashga qodir bo‘ladi. Ijodiy jarayon xotirani, fikrlashni, faollikni, kuzatuvchanlikni, maqsadga muvofiqlikni, mantiqni, intuitivlikni o‘rgatadi va rivojlantiradi. Musiqiy ijodda hissiy sezgirlik va fikrlash, faoliyatning ijodiy tasavvurlari, tezkor qaror qabul qilish va analitik fikrlash qobiliyatining sintezi yetakchi rol o‘ynaydi. Xalq og‘zaki ijodiga murojaat qilish maktab o‘quvchilarini tarbiyalashning zamonaviy sharoitida ko‘p asrlik insoniy qadriyatlar tizimini, odamlar o‘rtasidagi insonparvarlik munosabatlarini saqlab qolish imkoniyatini ochib beradi, darslarda folklordan foydalanish musiqa darslarini sezilarli darajada boyitadi, darslarni tashkil etishning yangi usullarini topishga imkon beradi.

1. Interaktiv hikoya va drama. Tarixiy voqealar, afsonaviy ertaklar yoki kundalik hayot haqidagi fikrlar ifodalanadi. O‘qituvchilar ushbu qo‘shiqlardan interfaol hikoya usulidagi dars tashkil qilish uchun foydalanishlari mumkin, ularda o‘quvchilar ustozlari yordamida qo‘shiq mazmunidan kelib chiqib sahna ko‘rinishlarini yaratishlari mumkin. Har bir bolalar qo‘shiqlarini o‘quvchilar rol o‘ynaydigan va hikoyani jonlantirish uchun rekvizitlardan foydalanadigan ajoyib spektaklga aylantirish mumkin. Bu usul nafaqat o‘quvchilarning tasavvurini uyg‘otadi, balki ularning syujet rivoji va qahramonlar dinamikasi haqidagi tushunchalarini ham yaxshilaydi.

2. Vizual tasavvur. Xalq qo‘shiq matnlarini tahlil qilish va izohlash o‘quvchilar uchun qiziqarli mashg‘ulot bo‘lishi mumkin. Ulardan qo‘shiq ma‘nosini chizmalar orqali tasvirlashni so‘rash orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarni mazmun haqida tanqidiy va ijodiy fikrlashga undaydi. Xalq qo‘shiqlarini tasviriy san’at bilan birlashtirish fanlaro aloqalarni boyitishga olib kelishi mumkin. Xalq qo‘shig‘ini tinglagandan so‘ng o‘quvchilar qo‘shiqda keltirilgan mavzular, his-tuyg‘ular yoki

hikoyalarni tasvirlaydigan badiiy asar yaratishlari mumkin. O‘quvchilar qo‘shiqda ifodalangan mavzular, his-tuyg‘ular yoki hikoyalarni aks ettiruvchi san‘at asarini yaratishlari mumkin. Bunga rasm chizish yoki hunarmandchilik kiradi.

3. Musiqiy kompozitsiya va matn yaratish. Xalq qo‘shiqlari o‘quvchilarga musiqiy kompozitsiya bilan bog‘liq tajriba o‘tkazish uchun imkoniyat beradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarni qo‘shiqning ohang, ritm va garmoniyasi bilan tanishtirishlari, so‘ngra o‘quvchilarga o‘zlari o‘rgangan xalq qo‘shiqlaridan ilhomlangan holda o‘z tasavvurlari bo‘yicha o‘zlarining qisqa musiqiy asarlarini yaratishga taklif qilishlari mumkin. Ushbu faoliyat musiqiy tuzilmani tushunishga yordam beradi va o‘quvchilarni o‘zlarining ijodiy g‘oyalarini izlashga undaydi. O‘quvchilarni xalq qo‘shiqlarining o‘z variantlarini yaratishga undash ijodkorlikni rivojlantirishning yana bir samarali usuli hisoblanadi. Qo‘shiq matnini qayta yozish, yangi misralar qo‘shish yoki ohanglarni o‘zgartirish orqali o‘quvchilar ijodiy muammolarni yechish bilan shug‘ullanadilar va musiqiy elementlarni chuqurroq tushunadilar.

4. Madaniy tadqiqotlar va taqdimot. Madaniy tadqiqotlarni xalq qo‘shiqlari bilan birlashtirish qimmatli ta‘lim tajribasi bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar o‘zlari o‘rganayotgan xalq qo‘shiqlarining kelib chiqishi va madaniy ahamiyatini o‘rganishlari va o‘z xulosalarini plakatlar, taqdimotlar yoki ota-onalari yordamida prezentatsiyalar tayyorlash orqali taqdim etishlari mumkin. . Misol uchun, ma’lum bir hududga xos bo‘lgan qo‘shiq o‘sha mintaqaning an’analari, urf-odatlari va tarixi haqida hulosaga olib kelishi mumkin.Bu usul o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularni jahon madaniy merosi bilan bog‘laydi, ularda tadqiqot va taqdimot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

5. Raqs va harakatli o‘yinlar. Xalq qo‘shiqlari ko‘pincha harakat va raqsga mos keladigan o‘ziga xos ritm va templarga ega. Xalq qo‘shiqlariga mos keladigan raqs yoki harakat mashqlarini dars jarayoniga kiritish o‘quvchilarga qo‘shiqning ritmi va xarakterini tushunish bilan birga o‘zini jismonan ifodalashga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘quvchilar qo‘shiq asosida xoreografiya yaratadigan yoki qo‘shiqning ritmlari o‘rganish uchun harakatli o‘yinlardan foydalanadigan raqs mashg‘ulotlarini o‘tkazishlari mumkin . Ushbu yondashuv o‘quvchilarga musiqa bilan dinamik ravishda bog‘lanish imkonini beradi.

6. Guruhli chiqishlar. Xalq qo‘shiqlarini guruhli tarzda xor bo‘lib kuylah o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.O‘quvchilar birgalikda qo‘shiq aytadigan, raqsga tushadigan yoki xalq qo‘shiqlarini ijro etadigan tadbirlarni tashkil qilish ularga muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga yordam beradi. Xalq qo‘shig‘i

yoki musiqiy sahna ko‘rinishini yaratish kabi guruh loyihalari o‘quvchilarni birgalikda ishlashga, fikr almashishga va bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashga undaydi. Ushbu hamkorlikdagi yondashuv nafaqat ularning badiiy mahoratini oshiradi, balki muhim ijtimoiy ko‘nikmalarga ham o‘rgatadi.

Xalq qo‘shiqlari boshlang‘ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Interfaol hikoyalar, lirik talqin, musiqiy kompozitsiya, madaniy izlanishlar va turli badiiy faoliyatni o‘z ichiga olgan holda, o‘qituvchilar tasavvurni, tanqidiy fikrlashni va shaxsiy ifodani rivojlantiradigan dinamik o‘quv muhitini yaratishi mumkin. Xalq musiqasining boy an’analarini qamrab olish o‘quvchilarning bilim tajribasini boyitibgina qolmay, balki turli madaniyatlar bilan muloqot qilish, zarur ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi 2022 - 2026-Yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Pf-60-Son Farmoni www.lex.uz.

2. Никольская И.М., Грановская Р.М. Психологическая защита у детей. - СПб: Речь, 2000. 507с.

3. G‘.Qodirov Musiqa psixologiyasi «Musiqa» nashriyoti.2005.B- 5-10

4. Zufarova.M.E Umumiy psixologiya. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.2010

5. Давидова М.А., Агапова И.А.. Музикалние вечера в школе. Москва 2001.

6. Теплов.Б.М Психология музыкальных способностей.Планета музыки. 2022.С-24

7. Kaxarova.G.S Musiqiy folklor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida / «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferenyiya // https://doi.org/10.5281/zenodo.13132048

# YOSH AVLODDA MARDLIK, JASURLIK VA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISH UZVIYLIK TAMOYILI

***D.A.BOBOMURODOV,***
*Qori Niyoziy nomidagi TPMI*
*mustaqil izlanuvchisi*

*Maqolada o‘smirlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mexanizmlarini, vositalarini alohida o‘rganish, shuningdek, o‘smirlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlarini tadqiq qilish dolzarb masala ekanligi haqida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, sarkardalik mahorati, jasorat, qahramonlik, matonat, tirishqoqlik, harakatchanlik.*

*В статье описывается, что актуальным вопросом является изучение механизмов и средств воспитания подростков в духе воинского патриотизма, а также исследование педагогических условий воспитания подростков в духе воинского патриотизма.*

***Ключевые слова:*** *патриотизм, отвага, лидерские качества, отвага, героизм, упорство, настойчивость, подвижность.*

*The article mentions that it is an urgent issue to study the mechanisms and means of educating teenagers in the spirit of military patriotism, as well as to research the pedagogical conditions of educating teenagers in the spirit of military patriotism.*

***Key words:*** *patriotism, bravery, leadership skills, bravery, heroism, tenacity, perseverance, mobility.*

O‘smirlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabr kuni qabul qilingan «Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi 1059 sonli Qarorida alohida e’tibor qaratildi. Qarorning 3 bandi asosida tasdiqlangan 10 ta muhim tayanch kompetensiyalar Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, ma’suliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlar sistemasini o‘z ichiga oladi. Ko‘rinib turganidek, ushbu o‘n tayanch fazilatning birinchisi bo‘lib vatanga sadoqat belgilangan va vatanga sadoqat ushbu o‘n fazilatning tizim yaratuvchi markazi kompetensiyasi etib belgilandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu konsepsiya asosida yoshlarda Vatanga sadoqatni tarbiyalashda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorlarning hamorligi ko‘zda tutildi. O‘smirlarni harbiy

vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni zamonaviy asosda ilmiy texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar, bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy asoslangan, tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida yondashishni talab etmoqda. O‘smirlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yangicha tizimda kompetentli asosda kafolatli yondashuv kasb ta’lim maktablari, o‘rta ta’lim muassasalarining pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishda ilmiy-medotdagik talab qiladi. Ommaviy tajribani o‘rganish, o‘smirlarni harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalash, vatanga sadoqat, vatan oldidagi burch, vatan oldidagi mas’uliyat va unga turdosh fazilatlarni yoshlar ongida nazariy tushunchada qolib ketgani holda, ularning amaliy odatlariga aylanmayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Buning oqibatida ular vatanga sadoqat, vatan oldidagi burch, vatan oldidagi ma‘suliyat, harbiy vatanparvarlik tushunchalarini, so‘zlarini, ma’nolarini ayrim hollarda yaxshi anglagan holda, ularni hayotga joriy qilish, qo‘llashda muammolarga duch kelmoqdalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ayrim o‘smirlarning harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi muammolar tufayli ularning vatan himoyachilari sifatidagi burchlari yaxshi shakllanmaganligi, o‘zlarini o‘zlari vatan himoyasiga safarbar qilish, irodani tarbiyalash, matonat, tirishqoqlik, harakatchanlik kabi fazilatlari yetarli rivojlantirilmaganligi sababli bu fazilatlar ularning nafaqat harbiy vatanparvarlik yo‘nalishidagi faoliyatlarida, balki ularning ta’limga munosabatlarida ham, salbiy namoyon bo‘lmoqda, shuningdek harbiy vatanparvarlik tarbiyasi sohasida o‘qituvchilarning, sinf rahbarlarining, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mutasaddilarning ijtimoiy ijodiy madaniy faoliyat bo‘yicha xodimlarning faoliyatlarining metodik ta’minlovchi o‘quv materiallari, ma‘naviy-ma’rifiy tadbirlarning ssenariylari, harbiy vatanparvarlik sohasiga doir metodik qo‘llanmalar, o‘quvchilar uchun zarur qo‘llanmalar, darsliklar yetarli emas.

Umumiy o‘rta ta’lim hamda kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun mo‘ljallangan chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik bo‘yicha darslik va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish, bunda buyuk sarkardalarning hayoti va sarkardalik mahorati, jasorati va qahramonliklari haqidagi ma’lumotlarni nazarda tutish.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari hamda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o‘quvchilari ishtirokida «Temurbeklar» va «Burgutlar» harbiy sport o‘yinlarini tashkil etish.

O‘quvchi-yoshlarni har yili joylardagi harbiy qismlar, oliy harbiy ta’lim muassasalari va Temurbeklar maktablariga ekskursiyalarini muntazam tashkil etib borish rejasini ishlab chiqish.

Umumiy o‘rta ta’lim hamda kasb-hunar ta’limi muassasalarida harbiy tayyorgarlik sinf xonalarini tashkil etish, muassasalar sport zallarida jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun zarur sharoitlar hamda to‘siqli yo‘laklardan iborat sport maydonchalarini tashkil etish.

Respublikamizning barcha tumanlari va chegaraoldi hududlarida, istirohat bog‘larida aholi, ayniqsa yoshlar uchun harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishida qo‘shiqlar va harbiy orkestr musiqalarining, shuningdek, qishloq, tuman va viloyat ko‘chalari bo‘ylab harbiy bo‘linmalarning harbiy orkestr jamoasi bilan saf qo‘shiqlarini muntazam ijro etib o‘tishlarini yo‘lga qo‘yish.

Hududlarda tarixiy va qo‘shin turiga oid qurol-yarog‘ va aslahalar, harbiy texnika ko‘rgazmalari, tir va turli harbiylashtirilgan attraksionlar joylashgan harbiy-vatanparvarlik istirohat bog‘larini tashkil qilish va faoliyatini takomillashtirib borish.

Harbiy qismlarda o‘tkaziladigan jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlariga sohibqiron Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkardalarning harbiy salohiyati va jang qilish san‘ati haqida mavzular kiritish.

Vatanimiz mustaqilligi yo‘lida qurbon bo‘lgan harbiy xizmatchilarning xotirasini abadiylashtirish, ayni kunda o‘zining mas’uliyatli va sharafli burchini munosib ado etayotgan Vatan posbonlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiylik kasbi nufuzini oshirish, harbiy xizmatchilar erishayotgan yutuqlar va ularning ijtimoiy himoyasi borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar uyushtirish kabi chora tadbirlardan iborat ma’naviy ma’rifiy ish shakllarini amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Xususan, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmagan.

Tarbiya nazariyasida tarbiyalanuvchilarda u yoki bu fazilatni, kompetensiyani shakllantirish, tarbiyalash, rivojlantirish kabi tushunchalar ko‘p qo‘llaniladi. Ana

shu eng ko‘p ishlatiladigan tushunchalardan biri shakllantirish. Shakllantirish degan so‘zning mohiyati nimanidir reja aosida yaratish, qurish, biror narsaga ongli ravishda, uzluksiz ravishda biron bir shakl berish, individga yoki biror bir ijtimoiy ruhga muayyan xususiyatlarni, sifatlarni, xarakter chizgilarini singdirish ma‘nolari tushuniladi.

Shakllantirish bu shaxsning rivojlanish jarayonini ongli ravishda boshqarish yoki biror bir individda sifatni, o‘ziga xoslikni xarakter chizgilarni yaratish va rejalashtirilgan darajada, turda, natijada bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan jarayondir. Ta’lim tarbiya jarayonidagi shakllantirish so‘zining mohiyati ta’lim oluvchilarning shaxsiga ularda muayyan qadriyatlarni, o‘zaro munosabatlar modellarini, bilimlarini, malakalarini, fikrlash tarzlarini, xotirani rivojlantirishga qaratilgan va muayyan metodlarni, vositalarni va resurslarni safarbar qilish jarayoni tushuniladi.

Yangi O‘zbekistonda o‘smirlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta’lim sohasida bir qator innovatsion chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan Temuriylar maktablari ochilgani, xarbiy litseylar ochilgani, turli o‘lkashunoslik harbiy sport o‘yinlari, xarbiy tarixiy klublar ochilgani, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning maxsus turkumlari vatan mavzusiga bag‘ishlanayotganligi, o‘smirlarning ikkinchi jahon urishi qatnashchilari bilan o‘tkazilayotgan uchrashuvlari, mamlakatimizdagi 9-may ikkinchi jahon urishida fashizm ustidan qozonilgan Xotira va qadrlash kuni sifatida umumxalq darajada nishonlanayotganligi, poytaxtimizda «G‘alaba bog‘i» va «Ma’naviyat va madaniyat departamenti» ning Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil eilganligi, qolaversa barcha viloyat va tumanlarda ikkinchi jahon urishi qatnashchilarini qadrlashga bag‘ishlangan yodgorliklar, xotiragohlar faoliyat ko‘rsatayotganligi o‘sirlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning oddiy resurslari mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq, ushbu boy pedagogik imoniyatlarning tizimli ravishda ishlatilmasligi va ular orasida o‘zaro aloqalarning o‘rnatilmaganligi, ayniqsa ilmiy pedagogik ta’minlanmaganligi, bu boy imkoniyatlardan foydalanish samaradorligini pasaytirmoqda. Shu bois, o‘smirlani ma’naviy boy, harbiy vatanparvarlik ruxida tarbiyalashni ilmiy pedogagik tadqiq qilish dolzarb zaruratga aylandi. O‘smirlik davri  inson umrining eng murakkab va eng muhim qismi bo‘lib, bu davrda shaxsning asoslari shakllanadi. Dunyoqarash shakllanadi. Bu davrda o‘smirlarning kelajakda shaxsning ideallari shakllanadi. Uning qiziqishlari yuzaga chiqib ularni real hayotga qo‘llash davri boshlanadi.

O‘smirlik davri shaxsning etiqodining shakllanishi davri va jamiyat, xalq, millatning asosiy ma’naviy qadriyatlarini interiorizatsiya qilish, o‘zlashtirish davri hisoblanadi. Shu ma’noda o‘smirlik davri har bir mamlakat davlat fuqarolarining kelajakda qanday shaxs bo‘lib yetishlari, ularni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash natijalari qanday bo‘lishini hal qiluvchi muhim bosqich, deb aytish mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, o‘smirlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mexanizmlarini, vositalarini alohida o‘rganish, shuningdek, o‘smirlarni xarbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlarini tadqiq qilish dolzarb zaruratga aylandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Mirziyoyev. Sh. M.. «Yangi O‘zbekiston strategiyasi» -T. : 2021
2. Quronov M., Targ‘ibot tamoyillari. -T. : «Ma’naviyat», 2015.
3. Oripova N.X. Boshlang‘ich sinf talabalarida vatanga e’tiqodni shakllantirish: - Ped.fan.nomz.diss.avtoreferati. - T.: 2008.
4. Qodirov B. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. -T.: Mehnat, 2001.
5. Носиров К.Ж. Идеи мыслителей Средней Азии IX-X веков о нравственном воспитании: Автореф. дисс…канд. пед. наук. - Т.: 2000.
6. Эбрайими Тагизадех Хосро Морадали. Психолого-педагогические основы формирования социально-ответственного поведения личности подростков (на материале школ Исламской Республики Иран).:13.00.01-автореферат дисс. к.п.н. Душанбе-2014.

# TA'LIM JARAYONIDA TALABALAR O'QUV MOTIVATSIYASIGA QADRIYATLAR YO'NALGANLIGINING TA'SIRI

**_M.X.DJUMANIYAZOVA,_**
_UrDU Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti,_
_psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)_

*Talabalar o'quv jarayonida motivatsiyaga ega bo'lishlari, ularning o'zlashtirish darajasi va kelajakdagi muvaffaqi-yatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday motivatsiyaning manbai esa ko'p jihatdan ularning qadriyatlari, shaxsiy hayot tamoyillari va jamiyatga bo'lgan munosabatlariga bog'liqdir. Mazkur maqolada talabalar o'quv motivatsiyasiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri to'g'risidagi nazariy qarashlar tahlil qilinib, xulosalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *talabalik davri, motivatsiya, qadriyatlar, o'quv motivatsiyasi, ta'lim jarayoni, qadriyatlar yo'nalganligi, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, shaxsiy qadriyatlar, faol o'qitish usullari.*

*This motivation often stems from their values, personal principles, and attitudes towards society. This article analyzes theoretical perspectives on the impact of value orientation on students' learning motivation and presents conclusions based on the findings.*

***Key words:*** *student years, motivation, values, learning motivation, educational process, value orientation, intrinsic motivation, extrinsic motivation, personal values, active teaching methods.*

*В процессе обучения мотивация студентов оказывает значительное влияние на их успеваемость и будущий успех. Источник такой мотивации во многом связан с их ценностями, жизненными принципами и отношением к обществу. В данной статье анализируются теоретические взгляды на влияние ценностной ориентации на учебную мотиватsію студентов и приводятся выводы на основе проведенного исследования.*

***Ключевые слова:*** *студенческие годы, мотивация, ценности, учебная мотиватsія, образовательный процесс, ценностная ориентация, внутренняя мотиватsія, внешняя мотивация, личные ценности, активные методы обучения.*

Motivatsiya – insonni faoliyatga jalb qiluvchi, maqsadga erishish uchun kuch beruvchi ichki va tashqi omillar yig'indisi hisoblanadi [4]. Talabalar o'quv jarayonida motivatsiyaga ega bo'lishlari ularning o'zlashtirish darajasi va kelajakdagi muvaffaqiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu motivatsiyaning manbai esa ko'p jihatdan ularning qadriyatlari, shaxsiy hayot tamoyillari va jamiyatga bo'lgan munosabatlariga bog'liqdir.

Qadriyatlar insonning hayotdagi maqsadlarini va qanday yashash kerakligini belgilaydi. Talaba o‘zining hayotiy qadriyatlarini aniq belgilab olgan bo‘lsa, bu o‘quv jarayonida ko‘proq motivatsiyaga ega bo‘lishiga yordam beradi[7]. Masalan, talabaning o‘ziga xos maqsadi ilm olish, shaxsiy rivojlanish yoki kasbiy muvaffaqiyatga erishish bo‘lsa, bu maqsadlar ularni ko‘proq o‘qishga, chuqur bilim olishga undaydi. Shuningdek, jamiyatdagi o‘zgarishlar, globallashuv jarayoni talabaning qadriyatlarini shakllantiradi, o‘zgartiradi. Oila, do‘stlar, o‘qituvchilar va ijtimoiy muhit orqali shakllangan qadriyatlar o‘quv motivatsiyasini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘quv motivatsiyasi – ta’lim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. U talabaning o‘qishdagi faolligi, natijaviyligi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlaydi[5]. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv motivatsiyasiga turli omillar ta’sir qiladi, jumladan, shaxsiy qadriyatlar tizimi va uning ta’lim jarayoniga qaratilganligi.

Qadriyatlar yo‘nalganligi – bu shaxsning hayotiy tamoyillari, e’tiqodlari va maqsadlarining jamlanmasi bo‘lib, u o‘z faoliyatini qanday tashkil qilishini belgilaydi[6]. Talabalarning o‘z qadriyatlariga asoslangan motivatsiyasi ularning ta’limdagi muvaffaqiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘quv motivatsiyasi – bu talabaning ta’lim olish jarayonida faol ishtirok etishiga olib keluvchi ichki va tashqi kuchlarni tavsiflaydi[8].

Psixologiyada motivatsiya ikki asosiy turga bo‘linadi: ichki motivatsiya va tashqi motivatsiya [4]. Ichki motivatsiya talabaning shaxsiy qiziqishi va bilim olish jarayonida o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan istagiga asoslanadi. Tashqi motivatsiya esa talabaning ma’lum maqsadlarga erishish uchun tashqi rag‘batlar – baholar, sertifikatlar, stipendiyalar yoki ijtimoiy maqom kabi omillar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ichki motivatsiya talabaning ta’limdagi uzoq muddatli muvaffaqiyati uchun muhim bo‘lsa, tashqi motivatsiya ko‘pincha qisqa muddatli natijalar uchun yetarli bo‘ladi. Shaxsning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyati uning mustaqilligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va shaxsiy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Qadriyatlar yo‘nalganligi shaxsning ijtimoiy va shaxsiy hayotida amalga oshiradigan faoliyati va qarorlarida namoyon bo‘ladi.

Talabaning ichki motivatsiyasi ko‘pincha uning shaxsiy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq. Bilim olishga qiziqish, avtonomiya va shaxsiy o‘sish qadriyatlari talabaning bilimga bo‘lgan intilishlarini kuchaytiradi. Ushbu qadriyatlar ichki motivatsiyaning mustahkamlanishiga sabab bo‘ladi, chunki talaba bilim olish jarayonini o‘zining

shaxsiy muvaffaqiyatlari bilan bog‘laydi va bu jarayondan zavq oladi. Ichki motivatsiya yuqori bo‘lgan talabalar ta’limga yanada jiddiy va ongli yondashadilar, bu esa ularning bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirishiga olib keladi [1].

Tashqi motivatsiya ko‘pincha talabaning tashqi rag‘batlarga bog‘liq qadriyatlari bilan shakllanadi. Ota-ona, o‘qituvchilar tomonidan rag‘batlantirish, ma‘qullanish, maqtalish, namuna sifatida ko‘rsatilish kabi qadriyatlar tashqi motivatsiyaning asosiy manbalariga aylanadi . Ushbu qadriyatlar, odatda, ta’lim jarayonida qisqa muddatli yutuqlarni ta’minlaydi, ammo ichki motivatsiyaga asoslanmagan holda, bu rag‘batlantirishning samaradorligi cheklangan bo‘ladi. Tashqi motivatsiyaga bog‘langan talabalar ma’lum maqsadlarga erishgandan so‘ng, o‘quv faoliyatiga qiziqishni yo‘qotishlari mumkin.

Ilmiy adabiyotlartahlili va empirik tadqiqotlar qadriyatlarning o‘quv motivatsiyasiga ta’sirini tasdiqlaydi. Jumladan, o‘quv faoliyati motivatsiyasiga oid tadqiqotlar XX asrning 20-yillardan boshlab keng ko‘lamda amalga oshirib kelingan.

L.I. Bojovich va P.M. Yakobson tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zining intellektual va shaxsiy o‘sishiga e‘tibor qaratgan talabalar ichki motivatsiyaga ko‘proq moyil bo‘ladi. Ushbu talabalar bilim olish jarayonini o‘z maqsadlariga moslashtirib, o‘quv faoliyatiga yuqori darajada ijobiy munosabatda bo‘ladilar[9].

Tadqiqotlar, shuningdek, tashqi motivatsiyaga asoslangan talabalar ko‘pincha faqat qisqa muddatli natijalarga erishishga qaratilganligini ko‘rsatdi. Bunday talabalar o‘quv faoliyatini baholash orqali modellashtiradilar va tashqi rag‘batlar yo‘qolganda yoki kamayganda ularning o‘quv faoliyati pasayadi[3].

O‘quv motivatsiyasi va qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik talabaning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omildir. Talabaning qadriyatlar tizimi uning ichki yoki tashqi motivatsiyasini shakllantiradi va ta’limga bo‘lgan yondashuvini belgilaydi. Shuning uchun ta’lim tizimida talabalarning shaxsiy qadriyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratish motivatsiyani kuchaytirish va ta’lim samaradorligini oshirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

O‘quv motivatsiyasini rivojlantirish uchun talabalarning qadriyatlar tizimini shakllantirish muhimdir. Bu jarayonda samarali bo‘lishi uchun quyidagilarni tavsiya qilish mumkin :

1. Shaxsiy qadriyatlarni rivojlantirish: Ta’lim jarayonida talabalar uchun shaxsiy o‘sish, avtonomiya va bilim olish qadrini oshiradigan muhit yaratish kerak. Bunday yondashuv ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

2. Faol o‘qitish usullari: Muammoli va interaktiv o‘qitish usullari talabalarni

bilim olish jarayoniga chuqurroq jalb qiladi. Bu talabalar ichki motivatsiyasini rivojlantirib, ularning faolligini oshiradi.

3. Ta'lim va qadriyatlar integratsiyasi: Ta'lim jarayonida o'qituvchilar talabalarning bilim olishini ularning hayotiy qadriyatlari bilan bog'lash orqali o'quv faoliyatini yanada ma'noli qilishlari kerak. Masalan, shaxsiy rivojlanish va jamiyatga xizmat qilish qadriyatlarini targ'ib qilish orqali motivatsiyani oshirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Акулина Н.Н. Влияние общего интеллекта и мотивации на успешность усвоения знаний //Ананьевские чтения - СПб: Питер, 2015 - 496 с.
2. Вилюнас, В. К. Психологические механизмы мотиватsiи человека / В. К. Вилюнас. - М. : Изд-во МГУ, 1990. - 288 с.
3. Davletshin M.G. Tanlangan ilmiy ishlar to'plami. - T.,2008.- 81 b.
4. Ильин, Е. П. Мотивация и мотивы / Е. П. Ильин. - СПб : Питер, 2011. -512 с.
5. Курдюкова Н.А. Оценивание успешности учебной деятельности как психолого-педагогическая проблема. - СПб.: Питер, 2007. - 386 с.
6. Леонтьев А.Н. Деятельность.Сознание.Личность.-М.:Полит издат,1975.-386 с.

# ALISHER NAVOIYNING AXLOQIY-PEDAGOGIK QARASHLARI

**N.T.JALILOVA,**
*Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti, loyiha ijrochisi*

*Maqolada ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiyning pedagogik merosi, axloqiy-didaktik qarashlari manbalar asosida yoritilgan. Muallif pedagogika oliy ta'lim muassasalarida Alisher navoiy merosidan foydalanish bo'yicha tavsiyalar keltirgan.*

***Kalit so'zlar:*** *qadriyat, pedagogik meros, ta'lim-tarbiya, maktabdor o'qituvchi, shogird, talablar, me'yorlar.*

*В статье на основе источников освещено педагогическое наследие, нравственно-дидактические взгляды великого узбекского поэта Алишера Навои. Автор дал рекомендации по использованию наследия Алишера Навои в высших учебных заведениях.*

***Ключевые слова:*** *ценность, педагогическое наследие, образование, школьный учитель, ученик, требования, нормы.*

*The article, based on sources, highlights the pedagogical heritage, moral and didactic views of the great Uzbek poet Alisher Navoi. The author gave recommendations on the use of Alisher Navoi's heritage in higher educational institutions.*

***Key words:*** *value, pedagogical heritage, education, school teacher, student, requirements, norms*

> Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidar. Tarixiy merosni asrab-avaylash, avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir.
>
> ***Shavkat Mirziyoyev.***

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz» asarida uqtirishicha, «... yosh avlodimizda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish alohida muhim ahamiyatga ega».[1,162-b.] Bunda allomalar qoldirgan axloqiy-pedagogik qadriyatlar muhim o'rin tutadi.

Bebaho badiiy asarlari tufayli «G'azal mulkining sultoni», Bayqaro davlatini yuksaltirish borasida amalga oshirgan ishlari sababli «amiri kabir» (ulug' amir), «amiri

muqarrab» (eng yaqin amir) unvonlariga sazovor bo‘lgan mir Alisher Navoiy asarlarida ma’rifatparvarlik g‘oyalari, yurt farovonligini ta’min etish, maktab va madrasalardagi ta‘-lim-tarbiya usullari, ta‘lim olish tamoyillari, talabalarga bilim beradigan muallimlar, mudarris va ustoz-murabbiylarning o‘zlari bilimli, dono va tarbiyali, yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lishi zarurligi g‘oyasi etakchi o‘rinni egallagan.

Alisher Navoiy o‘z mablag‘lari hisobidan Xurosonda bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 ta masjid, 10 ta xonaqoh, 9 ta hammom, 9 ta ko‘prik, 20 ga yaqin hovuz qurdirgan. Uning tashabbusi va mablag‘i bilan qurdirilgan Ixlosiya majmuasi hozirga qadar butun dunyo ahli uchun o‘ziga xos mo‘jiza hisoblanadi.

Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» («Ma’nolar xazinasi»), «Devoni Foniy» («Foniy devoni»), «Lison ut-tayr» («Qushlar tili»), «Muhokamat ul-lug‘atayn» («Ikki til muhokamasi»), «Mahbubul-qulub» («Qalblar sevgani»), «Xamsa» kabi dostonlari xalqimiz ma’naviyat xazinasidan munosib o‘rin egallagan.

Alisher Navoiy nafaqat betakror ijodi bilan, balki go‘zal insoniy fazilatlari bilan ham o‘zga xos maktab yaratib ketgan buyuk alloma edi. Manbalarda keltirilishicha, Alisher Navoiy odatda ko‘pchilikning ra‘yiga qarab ish qiladigan, nihoyatda andishali va shirinso‘z inson bo‘lgan. Jamoat bilan suhbatlashish, bemor va ehtiyojmandlar, faqir-miskinlarning ko‘nglini olish, hol-ahvol so‘rash uning odati edi. Kunlarning birida jamoat bilan suhbat qilmay, qayergadir shoshilib borib keldi. Bu holga odatlanmagan jamoa ketishining sababini so‘raganlarida hazrat Navoiy shunday izoh bergan ekan: «Ikki yelkamga salom berganda ko‘rdimki ustimda bir chumoli turibdi. Bu chumoli tahorat olganim joydan chiqqanini bildim va bir jonzotni oshiyonidan judo qilmoqning gunohini, yukini o‘ylab uni o‘z joyiga qo‘yib keldim».

Nafaqat insonga, balki chumoliga ham ozor bermagan bobomizning quyidagi shoh satrlarni bitganiga va bu satrlar xalqimizning ko‘ngil mulkiga aylanib qolganiga ajablanmasa ham bo‘ladi:

Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa obod aylagay.

Ya’ni bobomizning e‘tiroflariga ko‘ra, kim ko‘ngli o‘ksik bir insonni xursand qilsa, yiqilgan Ka‘bani qaytadan qurgan, ta’mirlagan kabi savobga noil bo‘ladi.

Alisher Navoiyning o‘qituvchilarga qo‘ygan talablari uning «Mahbub ul-qulub» asarining «Mudarrislar zikrida» bobida ta’kidlab ko‘rsatiladi: «Mudarrisning kerakki, g‘arazi mansab bo‘lmasa va bilmas ilmini ayturg‘a murtakib bo‘lmasa va xudnamolig‘ uchun dars ravzasin tuzmasa va xudsitonlig‘ uchun takallum va g‘avg‘o ko‘rguzmasa». Hazrat ustozning kasbiy darajasi haqida: «Diniy ulum bilsa va yaqiniy masoil ta’lim qilsa», – deydi. Uning fikricha, o‘qituvchi bolaning ijtimoiy kelib chiqishi(boy yoki qashshoq oiladan ekani)ga qarab muomala qilmasligi,

manmanlik, ta'magirlik kabi illatlardan yiroq bo'lishi; yaramas, nopok ishlardan saqlanishi kerak. «Mahbub ul-qulub»ning «Dabiriston ahli zikrida» deb nomlangan o'n sakkizinchi bobida ustozlik martabasiga nomunosib maktabdorlarni «Maktabdor begunoh mas'umlarg'a jafokor. Atfol azobig'a rog'ib va alar ta'dibig'a murtakib . Zoti bemadoro, dimog'i po'lod va ko'ngli xoro» deb ta'riflaydi.

Ilm egallashga kuchli rag'bat bilan kirishish kerak, erinchoq talaba bilimsizligi sababli xijolatga qoladi:

Kishi ta'limda topsa malolat,
Topar ilm ahli olinda hijolat. [4,29-b.]

O'qituvchi esa bolalarga mehribon, ayni paytda talabchan bo'lishi lozim: Lutfu karam garchi erur dilpazir, Qahru siyosat ham erur noguzir.[4,115]

Alisher Navoiy «Ixlosiya» madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, muallimlar uchun maosh ajratdi. Uning fikricha, bolalar 5-7 yoshdan maktabda o'qishlari zarur, bunga masjid imomlari mas'ul bo'lib, ular «masjid joylashgan mahalla ahlining o'g'il va yosh bolalariga maktab ochib» o'qitishlari lozim.[5,57-b.] Alloma madrasalardagi o'quv bosqichlari (adno (quyi), avsat (o'rta), a'lo (yuqori) bo'yicha talabalarga stipendiyalar miqdorini belgilab, ularning intizomiga qo'yiladigan me'yoriy talablarni ishlab chiqdi (1-rasm), ularni o'zi qurdirgan Ixlosiya, Shifoiya, Nizomiya madrasalari va Xisraviya xonaqohida joriy ettirdi:




1-rasm. Alisher Navoiyning talaba intizomiga yuklagan talablari

Taniqli pedagog (mudarris)lardan Xusayn Voiz Koshifiy (1442/46-1505) 40 bobdan iborat "Axloqi Muxsiniy"(1495) asarida davlat ta'lim siyosati yo'riqnomasini ishlab chiqib, unda "baland toqili" madrasalar qurdirish bilan

birga, o‘quv dargohlarini kuchli bilim bera oladigan («ma’no mahbubini ibo pardasidan chiqarib yaxshi takrir qiladigan») mudarrislar, mavhum so‘zlarni ta’lim sharoitiga moslab o‘quvchilariga yetkazib bera oladigan o‘qituvchilar bilan ta’minlashning zaruriyatini ta’kidlaydi.[6,82-b.] Uningcha, mamlakat shohi ta’limning moddiy asoslari va o‘quv jarayoni sifatini ta’minlashga mas’ul shaxs sifatida munosib ta’lim siyosati yuritishi zarur.

Navoiyning mashhur shogirdi tarixchi Xondamir «Makorimul-axloq» asarida Alisher Navoiyning xizmat va fazilatlarini tavsiflab, «... to qiyomatgacha va qiyomatda ham ulug‘ hazratning yoqimli fe’llari va yaxshi ishlari zamon sahifalarida, kecha va kunduz varaqlarida mangu qolur» [7,16-b.] deb ta‘kidlagan edi deb ta’kidlagan edi.

Fikrimizcha, Alisher Navoiy axloqiy-pedagogik va didaktik merosini chuqur o‘rganish uchun pedagogika oliy o‘quv yurti talabalari o‘zlashtirishlari zarur bo‘lgan badiiy, ilmiy va ma‘rifiy tarbiyaviy adabiyotlar minimumini shakllantirish, talabalar bilan Navoiy asarlari izohli lug‘atini o‘rganishga e’tibor qaratish, Navoiyning pedagogik qarashlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan tadqiqot ishlarini amalga oshirish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1.Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият би лан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. - Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018 й.- 501 б .

2. Алишер Навоий. Маҳбуб-ул қулуб (Қалблар севгилиси). - Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. - 111 б.

3. Алишер Навоий. Лисон ут- тайр (Қуш тили).- Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. -176 б

4. Алишер Навоий. Ҳикматлар. - Т.: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2006 й. - 224 б.

5. Алишер Навоий . Муншаот (Мактублар) . Изоҳли баён муаллифи, нашрга тайёрловчи Юсуф Турсунов. - Т.: Маънавият, 2001. - 152 б.

6. Кошифий Ҳусайн Воиз. Ахлоқи муҳсиний («Яхши хулқлар». - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2010. - 664 б.

7. Хондамир. Макоримул ахлоқ (Яхши хулқлар). Т.: ЎзССР фанлар академияси нашриёти, 1948 йил - 82 б.

# MUTAXASSISLARNI DUAL TIZIMI ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

**R.CHORIYEV,**
*«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti professori, pedagogika fanlari doktori*

*Ilm-fan, texnika va texnologiyalardagi ajoyib yutuqlar insonlarning hayot sifatini tubdan yaxshilash uchun xizmat qiladi, shu bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, moddiy-texnika va hayotiy faoliyati uchun boshqa shart-sharoitlarni yaratishi bilan birga shaxsiy ehtiyojlari va manfaatlarini ro'yobga chiqaradi. Mobil aloqa, shaxsiy kompyuterlar, shaxsiy texnikalar va barcha turdagi xizmat ko'rsatish uskunalari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari insoniyatning ilmiy va texnologik taraqqiyotga asoslangan bo'lib, bugungi kunda texnik o'zgarishlar haqida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *dual ta'lim, kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat, kasbiy rivojlanish, mobil aloqa.*

*Выдающиеся достижения в науке, технике и технике служат коренному улучшению качества жизни людей, реализуя при этом их индивидуальные потребности и интересы, создавая при этом иные условия для социальной, экономической, культурной, материально-технической и жизнедеятельности. Мобильная связь, персональные компьютеры, персональная техника и все виды сервисного оборудования, современные информационные и коммуникационные технологии основаны на научно-техническом прогрессе человечества, о технических достижениях которого сегодня говорят.*

***Ключевые слова:*** *дуальное образование, профессиональное образование, профессиональная деятельность, профессиональное развитие, мобильная связь.*

*Outstanding achievements in science, technology and engineering serve to radically improve the quality of people's lives, while realizing their individual needs and interests, while creating other conditions for social, economic, cultural, logistical and vital activities. Mobile communications, personal computers, personal appliances and all types of service equipment, modern information and communication technologies are based on the scientific and technological progress of mankind, whose technical achievements are being talked about today.*

***Key words:*** *dual education, vocational education, professional activity, professional development, mobile communication.*

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya mazmunini, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini dual tizimi asosida shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «ta'lim sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim

xizmatlarining mavjudligi va samaradorligini oshirish» va «zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olish va kadrlar malakasini oshirish ishlarini keng ko'lamda yo'lga qo'yish» kabi ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashda ta'lim oluvchilarda yaxlit va tizimli integrativ bilim, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va ta'lim natijalarini diagnostik baholash muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai – nazardan kasb ta'limi mutaxassislarini va ishlab chiqarish xodimlarini kasbiy faoliyatga tayyorgarlik holatini o'rganish, ularning ixtisoslik sohalari va ishlab chiqarish yo'nalishlari bo'yicha kasbiy kompetentligini tadqiq etish, pedagogik tashxislashning innovatsion usullarini ishlab chiqish hamda amaliyot-ga joriy etishni taqozo etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak kasbiy ta'lim mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning dual tizimini qurishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda biz uning quyidagilarga mosligi nuqtai nazaridan kelib chiqqanmiz:

– ta'lim maqsadlarining ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlariga;

– ta'lim faoliyatining ijtimoiy-falsafiy, ilmiy dunyoqarash asoslariga tashkiliy yondashuv;

– muhandis-pedagogik kasbiy ta'lim metodologik xususiyatining didaktik asoslariga.

Bizning fikrimizga ko'ra, dual ta'lim haqiqatda ta'lim rivojlanishining yangi mazmun-mohiyat paradigmasidan iborat bo'lib, odatda an'anaviy deb ataluvchi eski ta'lim paradigmasidan yetarlicha radikal (keskin) tarzda ajralishni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim konsepsiyasi, uning maqsadi, mohiyati, vazifalari, tamoyillar va tashkiliy tuzilishi qayta ko'rib chiqiladi. 1-jadvalda an'anaviy va uzluksiz paradigmada ta'lim rivojlanishi tamoyillarining amal qilishi va rivojlanishining qiyosiy tavsifi berilgan.

1-jadval

Ta'limga an'anaviy va dual ta'lim tizimiga xos yondashuvlarning qiyosiy tavsifi

| № | Ta'lim jarayoni elementlari | An'anaviy ta'lim tizimi | Dual ta'lim tizimi |
|---|---|---|---|
| 1 | Maqsadlar | Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan | Dual ta'limi bo'yicha kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan |
| 2 | Ta'lim dasturlari (ta'lim mazmuni) | Davlat ta'lim standartini amalga oshiradi | Kasbiy - ta'limiy- amaliy va ishlab chiqarish- dasturlarni o'zlashtirishga qaratilgan hamkorlik yo'nalish |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | Ta'limni tashkil etish shakllari | O'quv soatlari xajmining auditoriyada 60 %, auditoriyadan tashqari 40 % miqdorda tashkil etilishi | Ishlab chiqarish va amaliyot jarayonida ishlashni tashkil etish, juftlikda, kichik guruhlarda (7+2) va katta guruhlarda (25) ishlash |
| 4 | Pedagogik jarayonni tashkil etish va amalga oshirish metodlari | O'qitishning sinf-dars tizimi doirasidagi an'anaviy metodlar | Hamkorlik, ishlab chiqarish, dual ta'lim tizimi bo'yicha kompetentli yonda-shuviga yo'naltirilgan noan'anaviy metodlar |
| 5 | Pedagoglarning faoliyat jarayonidagi o'rni | "Nasihatgo'y", "axborot beruvchi", "baholovchi" | "Hamkor", "rahbar","maslahatchi", "yordamchi", "vositachi" |
| 6 | Ta'lim oluvchi-larning faoliyat jarayonidagi o'rni | "Tinglovchi", "qabul qiluvchi", "xotirasida saqlovchi" | "Hamkor", "tajriba o'tkazuvchi", "tadqiqotchi", "konstruktor-yaratuvchi" |
| 7 | Ta'lim muassasa-sini boshqarish tuzilmasi | Tuzilma ta'lim muassasasi faoliyatini yuritishga yo'naltirilgan | Tuzilma ta'lim muassasasini innovatsion hamkorlikda rivojlantirishga yo'naltirilgan |
| 8 | Ta'limni rivojlantirish texnologiyalarini qo'llash | Ta'lim texnologiyalari bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi | Amaliy faoliyatda layoqatlilik va bir vaziyatdan boshqa vaziyatga o'tishda ijodiy yondasha olish, xamkor tashkilotlar bilan ishlash kompetentligi rivojlanadi |
| 9 | Ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholash | Bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganligini tekshirishga yo'naltirilgan | Mutaxassis va ishlab chiqarish xodimlarining kasbiy va shaxsiy sifatlari rivojlanish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan |

Mazkur talablarga javob beruvchi asosiy, konseptual ahamiyatga ega g'oyalarga oydinlik kiritish kasbiy ta'limning maxsus integrativ sohasi sifatida kasbiy ta'lim rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazuvchi «ichki», fenomenologik va metodologik, shuningdek ijtimoiy pedagogik xususiyatga ega tamoyillar asosida amalga oshirilgan.

Uzluksiz kasbiy ta'lim tizimining eng ehtimolli yoki optimal tarkibiy tuzilishiga nisbatan ko'pgina nuqtai nazarlar mavjud. Bunda hududiy va sohaviy tizimlarning ko'pgina variantlari paydo bo'lgan bo'lib, ularning xilma xilligini uchta turga bo'lish mumkin:

– uzluksiz kasbiy ta'limning tashkiliy-funksional tarkibiy tuzilishi;
– tizimli uzluksiz kasbiy mazmun;
– o'z-o'zini rivojlanuvchi tizim.

Moddiy ishlab chiqarish chegaralari bilan cheklangan an'anaviy ta'lim

usulidan farqli ravishda, aksincha yangi usul rivojlanish sur'atlarini belgilaydi, muayyan turdagi faoliyat turlariga amaliy faoliyat bilan chambarchas bog'liqlikda ta'limning dualliligini ta'minlaydi.

Dual tizimni namoyish qilishning barcha ajratib ko'rsatilgan darajalari turli xil tabiatga ega, zero sifat nuqtai nazaridan ta'limning turlicha ko'rinishlari, xossalari, jihatlarini ifodalaydi. Bular: qadriyatli-maqsadli, tizimli protsessual, subyektiv natijali. Shu vaqtning o'zida ularning har biri alohida tizim sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Bu borada biz tomonimizdan Kasb ta'limi mutaxassislarini dual tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari sifatida dual ta'limining har qanday tuzilmasi an'anaviy ta'lim tizimi bilan qiyoslanmagan bo'lsa tugallanmagan hisoblanadi. Agar dual ta'lim ko'pchilik mutaxassislarning fikriga ko'ra yangi paradigma bo'lsa, u avvalgisidan qaysi jihatlari va o'lchamlari bilan farq qilishi va biridan ikkinchisiga o'tishining sabablari nimadan iborat ekanligi; dual ta'lim oddiygina an'anaviy ta'lim tizimining buzilishimi yoki uni dialektik tarzda inkor etadimi va nihoyat vaqt mobaynida eng jiddiy va haqqoniy tekshiruvdan o'tganligi tekshiriladi.

Bizning mavzuimiz nuqtai nazaridan muhandis-pedagogik kasbiy ta'limning tizimli jihati avvalambor, uni kasbiy ta'limning kasbga yo'naltirilgan tizim sifatida ko'rib chiqilishini talab qiladiki, u o'z navbatida, mamlakat ta'lim tizimlaridan biri bo'lib hisoblanadi hamda uning natijasi sifatida Kasbiy ta'limni dual tizimini qurishning konseptual modeli ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Ta'lim tizim tushunchasi ta'limning ichki tuzilishi, uning qurilishi, xususiyati hamda ko'p sonli turli tabiatga ega obyektlarni bir yaxlit butunlik – tizimga aylantirishga imkon beruvchi o'zaro aloqalar va o'zaro munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Keltirilgan tavsiflarni tahlil etish natijasida ta'limga dual ta'lim tizimiga xos kompetentli yondashuvining vujudga kelish shart-sharoitlarini aniqlab olish mumkin:

– pedagog «boshqaruvchi», «hamkor» sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni hamkorlik qilish, demokratik ravishda ta'sir o'tkazish, yordam berish, ruhlantirish, talabaning shaxsiy tashabbuslariga e'tiborli bo'lish, uning shaxsini rivojlantirishga intilish pozitsiyasini egallaydi;

– professor-o'qituvchilar va talabalar bilan faol hamkorlik qilishga, bir-birini qo'llab-quvvatlash va o'zaro masuliyatlilik muhitini yaratishga yo'naltirilgan;

– ta'lim oluvchilar uchun ta'lim va tarbiyani tashkil etishning guruhli shakllari orqali shaxslararo munosabatlar va muloqotning xilma-xil shakllarini amaliy ravishda o'zlashtirishlari, hamkorlikda ishlash va ijod qilish quvonchini his etishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Ta'limning yangi tizimi asosiy ta'lim usuli sifatida muammoli muloqot usulidan foydalanadi. U ijodiy xususiyatga ega bo'lib, nafaqat bilim berish, balki, ulardan foydalanishga o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Aynan mana shu sababli amaliy ish ta'lim olishning muhim in'ikosi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib, mavjud ta'lim tizimi ishlab chiqarish va ijtimoiy sharoitda ochiq-oydin mavjud bo'lgan muayyan vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetenligi ni shakllantirishga xizmat qiladi .

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ruzimurot Choriev, Zukhra Ismailova, Ra'no Salomova, Zuhrakhon Jumanazarova. Use Of Economic And Geographical Methods Of Agricultural Development. // Journal of Critical Reviews Vol 7, Issue 5, 2020.ISSN- 2394-5125 409- 412 pages.

2. Ruzimurot Choriev, Zukhra Ismailova, Aynisa Musurmanova, Mahfuza Aripjanova. Methods Of Training Of Teachers Of University On Advanced Training Courses. // Journal of Critical Reviews Vol 7, Issue 5, 2020.ISSN- 2394-5125 413-416 pages

3. Choriev Ruzimurot Kungratovich, Ismailova Zuxra Karabaevna. Peculiarities of professional self-development of a future teacher in the context of personalityoriented pedagogy. // journal of research and reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852.505-508 pages.

4. Choriev Ruzimurot Kungratovich,Ismailova Zuxra Karabaevna. Gulzoda Ibragimova, Shokhida Abdurakhmanova, Navruz Abdie. Competent model of practice-oriented education of students of the construction profile. // Journal of Critical Reviews Vol 7, Issue 4, 2020.437-441 pages.

5. Choriev R.K. Formation of professional competencies of high-tech industry specialists in dual education.// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences (EJRRES). Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN 2056-5852. 112-114. pages

# ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLAR ORASIDA VATANPARVARLIK RIVOJIGA BOʻLGAN TALAB

***A.B.BAXRAMOV,***
*Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi katta oʻqituvchisi, dotsent, podpolkovnik*

*Bugungi globallashuv davrida yoshlarda vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirish, yuksak va mustahkam hayotiy pozitsiyasini qaror toptirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.*

***Kalit soʻzlar:*** *vatanparvarlik, maʼnaviyat, qadriyatlar, ishsizlik, chorasizlik, maʻlumotli va salohiyatli yoshlar.*

*В современную эпоху глобализации все большее значение приобретают формирование чувства патриотизма у молодежи, определение высокой и стабильной жизненной позиции.*

***Ключевые слова:*** *патриотизм, духовность, ценности, безработица, беспомощность, образованная и потенциальная молодежь.*

*In todayʻs era of globalization, the formation of a sense of patriotism in young people, and the determination of a high and stable position in life are becoming more important.*

***Key words:*** *patriotism, spirituality, values, unemployment, helplessness, educated and potential youth.*

Bugungi globallashuv davrida yoshlarda vatanparvarlik tuygʻusini shakllan-tirish, yuksak va mustahkam hayotiy pozitsiyasini qaror toptirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. 2019-2020 yillardagi global pandemiyasi nafaqat jahon iqtisodiyotiga, balki yillar davomida shakllangan qadriyatlariga ham oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Oʻtgan ikki yilda jahon miqyosida boy va qashshoq davlatlar oʻrtasidagi katta tafovut ishsizlik, chorasizlik, tibbiy himoyalanmaganlik sabablari bilan oʻziga yaxshi sharoit qidirayotgan maʼlumotli va salohiyatli yoshlarning vatanga qaytishi yoki vatanidan chiqib ketishi holatlarining faollashishi kuzatilmoqda. Postpa-ndemiya qayta tiklanishi sharoitida yoshlar faolligini oshirish, maʼnaviy yetuk va ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi mustahkam avlodni tarbiyalash, ularda vatanpar-varlik koʻnikmalarini shakllantirish orqali jamiyat barqarorligiga erishish har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasida oʻzaro raqobatlashayotgan, siyosiy kuchlarning maqsad va intilishlarini namoyon qilayotgan mafkuraviy ziddiyat tendensiyasi yanada kuchayib borayotgan davrdir. Shuning uchun yoshlarda vatanparvarlik koʻnikmalarini rivojlantirish orqali oʻziga xos mafkuraviy immunitetni hosil

qilishda zamonaviy dunyo qadriyatlarini o‘zida aks ettirgan mafkuralar va ularning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-mafkuraviy jarayonlardagi o‘rniga baho berish, mazmunini teran anglash, yoshlarda vatandan voz kechish, millatimizning asrlar davomida saqlanib kelgan urf-odatlariga nisbatan behurmatlik holatlarini yuzaga kelishiga olib kelayotgan yangicha mafkuraviy tahdidlarni ko‘ra bilish ko‘nikmalarini shakllantirishga e‘tibor qaratish dolzarb masalalardan biridir. Shu bois yoshlarda vatanparvarlik ko‘nikmalarini shakllantirishning zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish, zamonaviy mafkuraviy tahdidlarga qarshi tura oladigan yoshlarni tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi [1]. O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Barchamizga yaxshi ma’lumki, vatanparvarlik dar bir davlat xayotining ma’naviy asosi xisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon buladi» [2]. Hech kimga sir emaski, keng aholi, jumladan, yoshlar ongini zabt etishga intilayotgan turli kuchlar eng avvalo, media imkoniyatlardan unumli foydalanmoqda. Shundan kelib chiqilsa, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham ayni axboriy-texnologik imkoniyatlardan foydalanish katta samara beradi. Buning uchun yoshlarni o‘ziga jalb qilayotgan pas saviyadagi yoki destruktiv mazmundagi media mahsulotlarning shunchaki zararli ekanligini bot-bot takrorlab aks ta‘sir uchun zamin tayyorlash noo‘rin sanaladi. Bunday yondashuv aksincha, ayni shakldagi kontentlarning yanada kengroq tarqalishi uchun xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, OAVlar hamda ijtimoiy tarmoqlarda inson ongini egallash va g‘ayri ixtiyoriy tarzda uni boshqarishga qaratilgan kontentlarning manipulyativ xarakterini aniqlash, ularga qarshi kurashish, iste’mol qilinayotgan axborotni tanqidiy mushohada qila olish qobilyatini shakllantirish kabi yo‘nalishlarda onlayn kurslar, vibinarlar hamda qisqa video roliklar tayyorlagan holda ularni keng ommalashtirish lozim. Ayni jarayonlarda malakali mutaxasislar bilan bir qatorda yoshlarning ishtirokiga alohida urg‘u berish uning yanada samarador bo‘lishiga xizmat qiladi.

Bundan 15-20 yillar avval yoshlarning asosiy axborot olish manbayi kutubxona, televidinie va radio hisoblanar edi. So‘nggi yillarda yoshlar orasida informatsiya olishda internet, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar (facebook, odnoklassniki, twitter, instagram, youtube) yetakchilik qilmoqda. Ushbu jarayonda biz yoshlarga ta’lim va tarbiya berish, vatanimizni sevish va unga xizmat qilishni o‘rgatishda ushbu tarmoqlar kuchidan foydalanishimiz lozim. Bizga bugungi kundan kechiktirib bo‘lmaydigan vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘usini kuchaytiradigan videolar ko‘proq kerak. Aholining barcha qatlamlariga ta’sir qilidigan tarbiyaviy mazmundagi ommabop kontentlar zarur. Ko‘rganda, eshitganda etlarimiz jimirlab, qonlarimiz ko‘pirib, yuraklarimiz dukurlashi

o'zimizga eshitilishi kerak. Mendirman Jaloliddin, Fitrat, Ilhak kabi kinolar, Sardor, Zanjir kabi seriallar, kliplar, podkastlar, tok-shoular, roliklar, vaynlar, rilslar zarur. Vatanparvarlik mavzusida Ozodbek Nazarbekovning 6-yil oldingi «Mendirman» qo'shig'i va klipidan keyin, hali bu darajada ta'sirli boshqa kliplar ishlanmadi hisob. Yoki Yulduz Usmonovaning «Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston», Sevara Nazarxonning «Ulug'imsan, Vatanim» kabi qo'shiqlariga ham 20 yillar bo'ldi chamasi. O'rnini bosadigan, bugungi kun yoshlarini o'ziga tortadigan chiqmayapti. O'ldim-kuydim, bevafo yorga aldandim yoki to'ybop qo'shiqlardan ortmayapmiz. Vatan haqidagi asarlar ham ko'p, ammo ular nomiga, qo'l uchida yaratilayotgandek. Bu haqda jiddiy o'ylashimiz kerak. Ayniqsa, bu hozirgi davrda juda muhim. Barcha sohalarda muammolarimiz bor. Yechimi bir necha yillardan beri topilmayotgan muammolarimiz ham ko'p. Ammo bu Vatanimizni sevishimiz uchun xalaqit bermaydi. Lekin bu boshqa davlatlar bizning ichki ishlarimizga aralashishi va aql o'rgatishiga huquq bermaydi. Biz Vatanimizni undagi bor muammo va kamchiliklari bilan sevamiz. Biz bo'lmasak ushbu muammolarni kim hal qiladi. O'zbekiston bizniki, uning hayoti ham, har bir qarich yeri ham, yutug'i va muammosi ham o'zimizniki. Vatanparvarlik tushunchasi avvalo vatan tushunchasi bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo'lib, o'zida makoniy xususiyatlarni namoyon qiladi. Soddaroq qilib aytganda, tarixan bir makon va bir zamonda hayot kechirgan, fikrlash va turmush tarzi bir muncha yaqin hamda yagona an'ana va qadriyatlar tizimiga ega xalqlarning o'zi yashayotgan hudud o'tmishiga dahldorlik buguni va kelajagi haqida qayg'urush xislari tushuniladi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarda vatanparvarlik hissini o'zi yashayotgan hudud, uning urf-odat va an'analari diqqatga sazovor joylari, ayni zamindan yetishib chiqib yurtimiz va jahon tamadduniga katta hissa qo'shgan kishilar bilan bog'liq tarzda shakllantirish zaruratini namoyon qiladi. Shunday ekan, yoshlarning o'z qishlog'i (eng chekka, qoloq, azaliy muammolari yechilmagan bo'lsa ham), mahallasi shahri haqidagi ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlarini rag'batlantirish, ular ta'lim olayotgan muassasalarda avlodlar uchrashuvlarini muntazam yo'lga qo'yish vatanga va islohotlarga daxldorlik tuyg'usining yanada kuchayishiga xizmat qilishi shubhasiz. Ma'lumki, ijtimoiy munosabatlar milliy mintaqaviy miqyos chegaralaridan chiqib, tobora ta'sirlarga ochiq, ko'pyoqlama hamda global tus olib borayotgan bugungi kunda milliy identiklik [3] hamda madaniy autentiklikni saqlab qolish ayni paytda muayyan milliy madaniy tizimning yopiq, konservativ xususiyat kasb etib qolmasligi masalasi tobora murakkab paradoksal harakter kasb etib bormoqda [4]. Bunday sharoitda o'zining milliy mansubligiga ega vatanparvar, milliy an'ana va qadriyatlarga sodiq ayni paytda

zamonaviy umuminsoniy qadriyatlar tizimlari elementlariga ochiq, bag'rikeng dunyoqarashga ega yoshlarni tarbiyalash muammosi bugungi mafkura sohasida faoliyat yurituvchi tadqiqotchi olimlar va amaliyotchilar oldida turgan yechimtalab masalalardan sanaladi. Bu esa, o'z navbatida, vatanparvarlik va millatparvarlik tushunchalarining falsafiy, tarixiy hamda huquqiy asoslarini ko'rib chiqqan holda ularning zamonaviy talqinlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Vatanparvarlik deganda, bizda, avvalo, makon tuyg'usi tushuniladi. Tug'ilgan, voyaga yetgan makonni anglash, tushunish jarayonida vatanparvarlik tushunchasi paydo bo'ladi. Ana shu tushuncha orqali biz o'z yurtimizning qaerda, qaysi mintaqada joylashgani, betakror tabiati, daryo va tog'lari, odamlarini aniq tasavvur qilamiz. Vatanparvarlik – insonning amaliy faoliyati hamdir. Biz o'z Vatanimizni o'ylab, uning bugungi taraqqiyoti, yorug' kelajagi yo'lida mehnat qilsak, kurashsak, bularning barchasi vatanparvarlik hissining amaliy ifodasi bo'la oladi. Bunday faoliyat barcha halqlar hayotida yuksak insoniy fazilatlardan biri sifatida qadrlanadi. Shu ma'noda, Vatanni sevish borasidagi nafaqat ajdodlarimizning ma'naviy me'rosidan, balki jahon xalqlari tarixida o'z yurti uchun jonini fido qilgan nufuzli shaxslar hayotiga oid namunalar bilan ham yoshlarni tanishtirish ayni muddao bo'lar edi. Negaki, yoshlar, xususan, bo'lajak ziyolilar sanalgan talabalar ongiga vatanni sevish hamma vaqt va hamma joyda muqaddas burch bo'lib kelganligi g'oyasini chuqur singdirish ularning kelajakda nafaqat vatanparvar fuqaro bo'lib, shakllanishiga, qolaversa, ular shaxsiyatida bag'rikenglik, o'zga madaniyat, svilizatsiyalar va millatlarga hurmat tuyg'usining kamol topishi uchun ham zamin hozirlaydi.

Vatanparvarlik nihoyatda serqirra bo'lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdirini, istiqbolini qancha ko'p anglashilsa, kishilarda Vatanparvarlik tuyg'usi shuncha baland bo'ladi. Bu jarayon cheksizdir. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy taraqqiyotning turli bosqichlari vatanparvarlikning yangi-yangi qirralarini kashf etib boradi. Har bir shaxsdagi vatanparvarlik tuyg'usi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Vatanparvarlik tuyg'usi, ayniqsa, milliy jipslashish harakatida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Haqiqiy vatanparvarlik millat, Vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo'lida mehnat qilish hamda kurashishdir

[5]. Buning uchun esa, yurtimizda amalga oshirilayotgan kompleks islohotlar jarayonlari eng avvalo, xalq bilan muloqot asosida, xalqning roziligi va inson manfaatlari uchun yoʻnaltirilganligini keng aholiga sodda va tushunarli shaklda yoritilishiga erishish talab qilinadi. Jumladan, yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash, ta'lim sohasida yaratilgan imkoniyatlar, sogʻliqni saklash borasida roʻy berayotgan oʻzgarishlar, xalqning ogʻirini yengillatish uchun davlat xizmatlari, bank va moliya tizimlari hamda tadbirkorlik yoʻnalishlarida yuzaga kelgan yengilliklar, pedagoglar maqomini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan ezgu ishlar kabi koʻplab mavzularda amaliy misollarga asoslangan targʻibot mexanizmlarini yoʻlga qoʻyish talab qilinadi. Ayniqsa, bunda yaratilgan imkoniyatlardan foydalangan holda muayyan yutuqlar va hayotiy muammolariga yechim topgan insonlar bilan suhbatlar tashkil etgan holda, ularning OAVlar va ijtimoiy tarmoqlarda ommalashtirish mamlakatimiz aholisida bugungi hayotidan rozilik va kelajakka boʻlgan ishonchning yuksalishiga olib keladi. Qolaversa, muayyan muammosini hal qilishda yurtimizda yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan insonlar tajribasi ayni borada mushkul ahvolga tushib qolgan kishilar uchun xabardorlikni oshirish omili vazifasini ham bajaradi. Shuni ham alohida ta'kidlab oʻtish lozimki, odatda yaratilgan imkoniyatlardan xabardorlik darajasi yuqori boʻlmagan aholi qatlami, xususan, yoshlarimizda, turli hil manipulyativ taʻsirlar nishoniga aylanib qolish ehtimoli balandroq boʻladi.

**Adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 июлдаги «Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида»ги ПҚ-3160-сонли қарори

2. Мирзиёев Ш.М. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Хал? сFзи. - Т., 2017. - 247 (6741)-сони.

3. Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX аср бошлари). - Т.: Янги аср авлоди, 2005. - 215 б.

4. Этнические группы и социальные границы. Социальные организация и культурная различия / Под. ред. Ф.Барта, пер. с англ. И.Пильщикова. - М., 2006. - 200 с.

5. Сайфуддинов Р. Ватанпарварлик - олий фазилат. - Т., 2018.

# MILLIY HUNARMANDCHILIKDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI

***N.M.RUZIYEV,***
*Andijon Davlat Universiteti*
*«Tasviriy va amaliy san'at» kafedrasi o'qituvchisi*

Mamlakatimizning iqtisodining rivojlanishi, o'sishi va rivojlanishining hozirgi davrida yosh avlodni mehnatsevar, halol, mehr-muruvvatli qilib tarbiyalash bugungi kunning muhim talablaridan hisoblanadi. Ayniqsa, bu o'rinda joylar qiyofasini belgilashda shu yerlarda shakllangan, taraqqiy etgan va an'anaga aylangan hunarmandchilik maktablarining barpo etilishi yoshlar tarbiyasida, ular kelajagini belgilashda, kasbiy faoliyatga yo'naltirishda, muhim kasb va kasb ahliga hurmat-ehtirom ko'rsatish kabi fazilatlarni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach barcha sohalarda bo'lgani kabi, hunarmandchilik sohasida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Hunarmandchilikni rivojlanishi hozirgi mehnat taqsimotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Hunarmandchilik bevosita savdo-sotiq bilan bog'liq jarayon bo'lib, aholi gavjum yashaydigan joylarda amalga oshiriladi.

Ma'lumki, yoshlarga kasb-hunar o'rgatishda amaliy san'atdagi qadriyat va an'analar alohida o'ringa ega. Hunarmand usta shogirdlariga hunarning sir-asrorlarini o'rgatib borar ekan, ularda ma'lum tarbiyaviy fazilatlarni, jumladan, halol mehnat bilan pul topish, muvaffaqiyatsizliklarga bardosh berish, hunardan boylik orttirishgagina emas, balki jamiyat rivojiga hissa qo'shish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish, iqtisodiy bilim va tushunchalardan foydalanib tadbirkor va ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish hamda rost so'zlashga o'rgatib boradi.

